Raqs terapiyasi. O‘z shaxsiy his va tuyg‘ularini raqsdan ko‘rsatishdan yaxshiroq narsa bormi? Bu bilan birga raqs terapiyasi mashg‘ulotlari shunchalik samarali va sog‘aytiruvchi ta’sirga ega bo‘ladiki, u insonning dunyoga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartirishga qodir. Buning uchun raqsni o‘zining ittifoqdoshi qilib olinsa, bas. Tanaga yo‘naltirilgan terapiya asoschisi Vilgelm Rayx bu borada shunday degandi: “Agar hissiyotlarning (har qanday: jahl, xafagarchilik, xursandchilik, kechinmalarini) tashqariga chiqishiga imkon berilmasa, ular inson tanasida o‘ziga xos mushak qalqonini tashkil qilib, hujayralarda yig‘iladi. Raqs terapiyasi buning oldini oladi. Raqsga tushish jarayonida ularni tarqatib, yo‘qotib tashlashga erishish mumkin.

Art terapiyasida insonda erkinlik hissiyoti paydo bo‘lgunga qadar, raqsga tushish tavsiya etiladi. Bu holda raqs studiyasidagi mashg‘ulotlar to‘g‘ri kelmaydi, sababi barcha harakatlar u yerda murabbiy tomonidan belgilab beriladi. Har bir inson o‘z ichki kechinmalarini o‘zi boshqarib ruhiyatini yuksaltirib olishi kerak. Shundagina salbiy hissiyotlardan forix bo‘ladi.

Musiqqa terapiyasi. Musiqqa inson his-tuyg‘ularini, orzu-istaklarini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishilarning hissiyotlariga, estetik va axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, go‘zallikka bo‘lgan his-tuyg‘ularning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu borada Sharq mutafakkirlarining musiqiy, falsafiy, psixologik va pedagogik merosidan ta’lim jarayonida foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda mohiyatini o‘rganish muhim ahamiyatga molik. O‘tib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda ulug‘vor ekanligini buyuk allomalar alohida urg‘u bilan ta’kidlaganlar. Shu bilan bir qatorda, musiqiy atamalarni, usullarni sharhlashga harakat qilganlar. O‘tmishda yashab ijod qilgan ulug‘ ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Muso Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Imom Ismoil Buxoriy, Imom at-Termiziy, Mirzo Ulug‘bek va Alisher Navoiyning ilmiy-ma’naviy meroslaridan yoshlarni keng bahramand qilib borish, shuningdek, yaqin o‘tmishda yashab ijod qilgan Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy kabilarning ta’lim-tarbiyaga oid

asarlarini, ularda ilgari surilgan g'oyalar, pedagogik fikr va qarashlarni bugungi ta'lim-tarbiyaga bog'lash natijasida yaxshi samaraga erishish mumkin. Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqorida nomlari zikr etib o'tilgan buyuk siymolar o'zlarining ilmiy va pedagogik qarashlarida shaxs kamolotida barcha aniq fanlar qatori san'at turlari, ayniqsa, musiqa san'ati keng imkoniyatlarga ega ekanligini e'tirof etib o'tganlar. Ulug' qomusiy olim Abu Nasr Forobiy bu borada fikr yuritib, "Musiqa nafaqat insonlarni tarbiyalaydi, balki uning ruhini davolaydigan omildir" — deya ta'kidlagan. Shuningdek, musiqaning ruhiyatga ta'siri, tarbiyaviy quvvati hususida Sharqning buyuk shoir faylasufi Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, musiqa nazariyotchisi Darvesh ali Changiylarning musiqiy meroslari musiqiy-estetik tarbiya muammolarini hal etishda noyob manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalqining buyuk shoiri va allomasi Alisher Navoiy o'z asarlarida nazm, qo'shiq va raqs davra ahliga bag'oyat zavq-shavq bag'ishlashini ta'kidlaganlar. Hamma davrlarda ham musiqa san'ati kishilar hayotida muhim o'rin tutib kelgan. O'zida xalqning turmush tarzini, hayotga munosabati va dunyoqarashlarini aks ettirgan. Shunga ko'ra ta'lim-tarbiya sohasida san'at, uning yetakchi va ommaviy turlaridan bo'lgan musiqaning o'rni alohidadir. Ulug' alloma Ibn Sino fikricha, inson qalbi o'z tabiati bilan bir-biriga monand bo'lgan tovush va ritmlarni yoqtiradi. Shu sabab tovush insonlar hayotida eng zarur omillardan biri; tovush insonni hayajonlantiradi, salomatligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning "Musiqa bilimiga oid to'plam" asari birinchi maqola muqaddimasida tovushning sezgi organlariga ta'siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yo nafratlanish hissining paydo bo'lishi kabi masalalarga to'xtalgan. Unda musiqaning kishi hayotiga qanchalik zarurligi va uning paydo bo'lishi sabablari haqida mulohaza yuritilgan. Inson tabiati yoqimli narsalar orqali yengil tortadi, orom oladi, aksi bo'lsa og'irlashadi, oromi yo'qoladi, nafrati qo'zg'aladi. Shu bilan birga, Ibn Sino mulohazasiga ko'ra, ovozning baland-pastligi ham, ularning bir-biridan farq qilishning ham o'ziga xos ma'nosi bor. Bu xil turli-tuman ovozlarda nazokat bilan ma'lum ma'nolar ifodalangan. Bular hammasi o'sha ovoz sohibiga ta'sir etib, undan kuzatilgan ma'no tushuniladi. Mana shunda olim fikricha,

ovozning baland-pastligi, ayniqsa, musiqiy ovoz yoki tovushning darajasi qanday bo'lishligi kishi ruhiga ta'sir etishda ahamiyat kasb etadi. Mana shu mulohazadan keyin, Ibn Sino yoqimli va yoqimsiz ovozlarning inson salomatligiga ta'sirini ta'kidlab o'tgan. Ibn Sino o'zining mashhur: "Qonun-fit-tib" asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Tanani chiniqtirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan, yengil tebratish va, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytiladigan qo'shiqlar — allalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani qabul qilish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqaga moyilligini aniqlaydilar. Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir". Bunda Ibn Sino ma'naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan beshigini tebratish davomida (jismoniy tarbiya) alla (qo'shiq) aytish vositalari bilan mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o'tgan. "Musika – donishmandlik va faylasuflikdan yuqoriroq ta'sirga ega" – degan edi Betxoven. Shu sababli ham art terapiyasida musiqiy usuldan keng foydalaniladi. G'arb olimlari olib borilgan ko'plab izlanishlar natijasida shunday xulosaga kelganlarki, musiqa bilan davolash juda katta samaraga ega. Musika bilan davolash alsgeymerlar, tushkunlik, qo'rquv va uyqusizlik holatida samaralidir. Musiqani tinglashda – insonning ichki holati musiqa maromiga tenglashib, ijobiy tebranishlarni o'ziga singdiradi. Musika nafaqat kayfiyatni ko'taradi, balki mushaklar tarangligini kamaytiradi, davolash kuchiga ega bo'ladi.

O'yin terapiyasi. Art terapiyasida o'yinli mashqlar alohida e'tiborga molik. O'yinli mashqlar insonga zavq berish bilan birga, undan ijodkorlikni ham talab etadi. Masalan, bolalarning chillak o'yini, qizchalarning besh tosh o'yini, bekinmashoq o'yinlari bolalarning ruhiyatiga yaxshi ta'sir etib. Ijodkorlikka yo'naltiradi, o'z muammolarini unishga yordam beradi.

Sahnada ijro terapiyasi. Psixodrama ko'rinishiga ega o'yinlar orqali davolash yo'nalishni Yakob Moreno asoslagan. Sahna ko'rinishlarida ishtirok etish inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Hayotdagi murakkab va og'ir vaziyatlarda ushbu davolash qo'l keladi. Teatrlashgan o'yinlar xotira, diqqat, iroda, his-hayajon, tasavvur va jismimiz holatini faollashtiradi. Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Teatr

bu yunoncha (tiyation) soʻzidan olingan boʻlib tomoshaxona degan maʼnoni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli teatri bu qoʻgʻirchok teatridir. Bu teatr orqali bolalar oʻzlariga yaqin va tanish boʻlgan oʻyinchoqlarni, ayiqcha, quyoncha, kuchukcha va boshqa qaxramonlarni jonli ravishda koʻradilar. Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir. Shu sababli sahna ijrosida bolani qatnashtirib, sahna terapiyasidan foydalanib, inson ruhiy olamiga taʼsir koʻrsatish imkoni mavjud.

Fototerapiya. Psixologik muammolar yechimi shaxsiy oʻsish va oʻz-oʻzini anglashda fototerapiyaning oʻrni muhimdir. Art terapiyasining zamonaviy turi oʻtgan asrning 70-yillarida Amerikada keng ommalashgan. Bunda inson oʻzini suratga tushirishi yoki suratga oʻzi tushib, tayyor suratlar bilan ishlashi mumkin. Bu kabilar boshqa ijod turlari bilan psixik uygʻunlashib, tahlil etiladi. Qoʻshimcha tasviriy texnikalar, mussavirlik, va suratlardan maket yasash diqqatni toʻplaydi, inson sevimli kasbi bilan mashgʻul boʻladi. U raqs va badiiy koʻrinishlar va boshqalar bilan uygʻunlashtirilganda yanada samarali boʻladi.

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun 4 ta art-terapiya mashgʻulotlari - Bolalar tezda zerikib, yangi mashgʻulotlar va sevimli mashgʻulotlarni qidiradilar. Ammo oʻyinlar rivojlanish jarayonida muhim rol oʻynaydi. Agar bolalar rivojlanish xususiyatlariga ega boʻlsa, ota-onalarning bolalarning sevimli mashgʻulotlari uchun masʼuliyati kuchayadi. Olimlar art-terapiya kattalarga ham, bolalarga ham kuchli taʼsir koʻrsatishini isbotladilar. Bu yerda alohida ehtiyojli bolalar uchun foydali boʻlishi mumkin boʻlgan 4 ta art-terapiya faoliyati mavjud: **Musiqasi terapiyasi** - Tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, musiqa miyaning maʼlum qismlarini ragʻbatlantirishi va tinchlantirishi mumkin. Bu ularning oʻqish va boshqa faoliyatga konsentratsiyasini oshiradi. Bu hatto cholgʻu oʻynashga boʻlgan qiziqishlarini uygʻotishi mumkin. Ota-onalar farzandlarining musiqaga boʻlgan munosabatini kuzatib, unga qiziqish yoki qiziqishlarini aniqlashga harakat qilishlari mumkin. Bu bolalarga koʻnikmalarni rivojlantirish va isteʼdodlarni ochishga yordam beradi. Qogʻoz haykalchalar Qogʻoz turli tadbirlar uchun ishlatilishi mumkin. Ota-onalar farzandlariga, masalan, origami qilishga yordam berishlari mumkin. Bu

ularning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradi. Alohida ehtiyojli bolalarni qog'oz shakllarini yaratishga undash ularning atrof-muhitga nisbatan hamdardligini oshiradi.

Nitkografiya - bu bolalarning motorli ko'nikmalarini va konsentratsiyasini yaxshilaydigan art terapiya. Nitkografiya bilan shug'ullanish uchun siz turli xil to'plamlardan foydalanishingiz mumkin. Nitkografiya bilan shug'ullanayotganda, bolalar dantellar yoki iplar yordamida rasm chizishadi.

Raqs - Raqs - bu alohida ehtiyojli bolalar uchun terapiyaning ajralmas qismidir. Ular zarur jismoniy faoliyatni ta'minlaydi va vosita ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu art-terapiyaning rivojlanish va davolashda foydali ekanligini tasdiqlovchi ilmiy asoslangan usullardir. Ota-onalar har doim to'g'ri dars rejasini tuzishda yordam beradigan mutaxassislardan yordam so'rashlari mumkin, chunki har bir bolaning o'z qobiliyati va qiziqishlari bor.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida art-terapiyani qo'llash - Art-terapiya – bu san'at vositalari (rasm chizish, loydan yasash, qo'g'irchoq yasash, qo'shiq aytish, raqs, teatr o'yinlari va boshqalar) orqali bolaning ichki dunyosini ochib berish, hissiy kechinmalarini ifodalash va psixologik muammolarini yengishga yordam beruvchi usuldir.

1. Art-terapiyaning maqsadi:

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Hissiy taranglikni kamaytirish.

Bolaning o'zini erkin ifoda etishiga sharoit yaratish.

Nutq, tafakkur va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlash.

O'ziga bo'lgan ishonchni oshirish.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'llash shakllari:

Rasm-terapiya – bo'yoqlar, rangli qalamlar, qum yoki suvda chizish orqali his-tuyg'ularni ifodalash.

Musiqqa-terapiya – qo'shiq aytish, musiqa tinglash, musiqaga raqs tushish orqali ruhiy holatni yaxshilash.

Drama-terapiya – ertak yoki sahna ko‘rinishlari orqali bola o‘zini qahramon o‘rnida tasavvur qiladi.

Loy va plastilin terapiyasi – narsalarni yasash orqali mayda motorikani rivojlantirish va stressni kamaytirish.

Qog‘oz san‘ati (origami, kollaj) – e‘tibor, xotira va sabrni kuchaytiradi.

3. Afzalliklari:

Bolada ijodkorlik va tasavvur kuchayadi.

Muloqot qilish va guruhda ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Psixologik muammolarni aniqlash va ularni yumshatishda samarali.

Bolaning emosional barqarorligini oshiradi.

4. Amaliy misollar:

Ertak qahramonini chizdirib, keyin uni sahnalashtirish.

Musiqqa qo‘yib, bolalarga kayfiyatiga mos ranglar bilan chizdirish.

Plastilindan “o‘z kayfiyatini” yasash.

Guruh bo‘lib umumiy “baxtli rasm” yaratish.

Savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun art-terapiya maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar bilan ishlashda muhim hisoblanadi?
2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida art-terapiya texnikalari qanday shakllarda qo‘llaniladi?
3. Art-terapiyaning qaysi turlari (chizish, loy bilan ishlash, kollaj, mandala va h.k.) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samaraliroq?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son” Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.
3. O‘zbekiston Respublika Maktabgacha ta‘lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘i. – T., 2023

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq terapiyasini qo'llash

Reja:

1. Qo'g'irchoq terapiyasini amalga oshiradagi funktsiyalar
2. Qo'g'irchoq teatr turlari
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq terapiyasini qo'llash

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: art terapiya, musiqa terapiyasi, imagoterapiya, qo'g'irchoqterapiya, dramaterapiya, kollaj, izoterapiya, kineziterapiya.

Mustaqillikka erishgan ilk kunlarimizdan boshlab mamlakatimizda yoshlarimizni jismonan baquvvat, sog'lom, ma'naviyatli bo'lishi uchun yoshlarga oid davlat siyosati olib borildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish joyizki, Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan ham sog'lom avlodni tarbiyalashga, ma'naviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli shaxsni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ma'naviy ma'rifiy islohotlarda teatr san'atini izchil ravnaq toptirish, ijodkorlar mehnatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, yurtdoshlarimizni ezgulikka chorlaydigan badiiy asarlar yaratish, ayniqsa professional qo'g'irchoq teatrini rivojlantirish masalasi ustuvor maqsad qilib olingan. Buning isbotini 2017-2021- yillarda mamlakatni rivojlantirish dasturi bo'lgan "Xarakatlar strategiyasi" va "Besh muhim tashabbus"da ko'rishimiz mumkin. Art terapiyaning maqsadiga kelsak, ular juda xilma-xildir: o'z-o'zini bilish, o'z-o'zini ifodalash, shaxsning ichki integratsiyasi, tashqi haqiqat bilan integratsiya, shaxsiy tajribani kengaytirish. Spontan modellashtirish yoki rasm chizish art terapiyaning asosiy vositalari bo'lib, ular muzey ishlarida ham qo'llaniladi Tasviriyy ijod - fantaziya va voqelikning sintezini ta'minlovchi eng yaxshi vosita bo'lib, kattalar yoki bolalarda bunga san'at yordamisiz erishishi qiyin. Psixoterapiyaning bu sohasidagi ikkinchi muhim tushuncha sublimatsiyadir. Ongsiz instinktlar va tushunchalarni san'at orqali ifodalashdan iborat. Qo'g'irchoq terapiyasi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi va

sevimli qahramon (ertaklar, multfilmlar, o'yinchoqlar) tasviri bilan identifikatsiya qilishga asoslanadi. Bu usul turli xulq-atvor buzilishlari, qo'rquvlar, kommunikativ sohani rivojlantirishdagi qiyinchiliklar va boshqalar uchun qo'llaniladi. Qo'g'irchoq terapiyasi texnologiyasi bola uchun biror belgi yordamida travmatik vaziyat bilan bog'liq "o'yin" hikoya tarzida amalga oshiriladi. O'yin davomida hikoyaning dramaturgiyasini bola o'z qo'liga olishi va u qahramonga hamdardlik bildirib, u bilan muammoni aniqlashini ta'minlash zarur. Hikoya ochilar ekan, bolaning hissiy zo'riqishi ortishi kerak. Shuning uchun syujet oxiridagi ziddiyatning "yuzaga chiqishi" bilan, maksimal darajaga yetishi bilan, zo'ravon hissiy reaksiyalar (yig'isig'i, kulish) bilan almashtirilib, zo'riqish chiqarish bilan "o'sib boruvchi" asosga quriladi. "Spektakl" ni tugatgach bola o'zini yengil his qilishi kerak. Qo'g'irchoq terapiyasi usuli uchta asosiy tushunchaga asoslanadi: "o'yin" – "qo'g'irchoq" – "qo'girchoq teatri". O'yin - bu bola va kattalar uchun nutq shakli. Bu his-tuyg'ularni ifodalash, munosabatlarni o'rganish va o'zini anglash vositasi. Bolalar o'yini bola uchun mazmunli va ahamiyatlidir, chunki o'yin orqali ularga so'z topish qiyin bo'lgan joylar mavjud bo'ladi. Bolalar o'yinchoqlardan aytib berish, uyaladigan narsalarni qilish va ko'ngli qolgan his-tuyg'ularni ifodalash foydalanish mumkin. Hijolat qilmasdan yoki travmatizatsiya qilmasdan, bu dunyoga kirishga imkon beradi va bolaning manfaatlarini o'qituvchining tuzatish vazifalari bilan birlashtiradi. Qo'g'irchoq terapiyasida tuzatuvchi harakatlarning asosiy usuli bola va kattalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning oraliq obykti sifatida ishlatiladi. Qo'g'irchoqni qo'liga qo'yib, bola unga eng yaxshi his-tuyg'ularini quvonch bilan "o'tkazadi", muammolar va qo'rquvlarni unutadi, o'zida yashirin zaxiralarni topadi. Qo'g'irchoq terapiyasini amalga oshiradigan quyidagi funktsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

kommunikativ - emotsional aloqani o'rnatish, bolalarni jamoaga birlashtirish;

dam olish - hissiy stressni yengillashtirish;

ta'lim-hayotiy vaziyatlarning o'yin modellarida shaxsning namoyon bo'lishmi psixokorreksiya qilish;

rivojlanayotgan - aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira, diqqat, idrok va boshqalar), vosita mahoratlari va hokazo. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning teatr faoliyatlarini tashkil etish uchun joyni tayyorlashi va bezashi bolalarda bu faoliyatga nisbatan doimiy qiziqishni shakllantirishi muhim. Qo'g'irchoq o'yini xalq og'zaki ijodiga asoslangan san'at hisoblanib dastlab uning yozma matni bo'lmagan. U uzoq yillar kuzatish, mashq qilish, yodlash, malaka hosil qilish orqali muayyan syujetlar vosita va uslublar bilan otadan-o'g'ilga, ustozdan shogirdga o'tib kelavergan. Qo'g'irchoqbozlar qo'yilgan tomoshalar orqali jamiyatdagi illatlar: zo'ravanlik, poraxo'rlik, tekintomoq amaldorlarni qattiq tanqid qilganlar hamda zahmatkash xalqqa kulgi va zavq bag'ishlaganlar.

“Fonus hayol” bir qator afzalliklari: teatri asbob-uskunalarining oddiyligi, ko'rsatishning oson va qulayligi tufayli keng tarqalmoqda. Bunday teatr bolalarni estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. “Fonus hayol” teatrida ish hammaga topiladi birining ishi ikkinchisining ish natijasiga bog'liq bo'ladi. Dekoratsiyalar kartondan yasaladi. Ularni qo'lda chizish, nusxa qog'oz yoki kal'kadan o'tkazish, yoki andoza asosida qirqish mumkin. Dekoratsiyalarga tabiiy ko'rinish berish mumkin. Agarda uy derazasiga qizil qog'oz yopishtirilsa ekranda u yorug'roq ko'rinadi yoki cho'pdan qilinadigan daraxt tanasiga kartondan shoxlar va ularga yupqa qog'ozdan barglar yopishtirilsa ular xilpiraydi ekranda esa barglar go'yo shamolda qimirlayotgandek ko'rinadi. Agarda shartli tarzda dengizni ifodalovchi kun rangini ifodalab uning ustidan kema yurgizilsa ekranda to'lqinlar o'sha suzib ketayotgan kemani ko'rish mumkin bo'ladi. Teatr personajlari kartondan tayyorlanib, qora rangga bo'yaladi. Ularni harakatga keltirish ham mumkin.

Stol teatri. Stol teatrining bir necha turlari mavjud. Bu teatrlardagi aktyorlar jismlarni qo'l bilan tagliklar sim magnit orqali turlicha harakatga keltiradi. Shakllarning tuzilishi ham turlichadir. Ish ertak yoki masal tanlashdan boshlanadi. So'ngra unga mos personajlar tayyorlanadi. Jonivorlar shakllarini bolalar rasmiy ertak kitoblardan kal'kaga ko'chirishlari mumkin.

Qo'lqob qo'g'irchoqlar (barmoqsiz qo'lqob). Eski qo'lqobcha, qo'lqob qo'g'irchoqlarni yasash uchun ashyo bo'la oladi. Qo'lqob qo'g'irchoqning bosh

qismi, katta barmoq esa, burun bo'lib xizmat qiladi. Qo'lqobni to'liq hayvonga aylantirib olish ham mumkin, bunda katta barmoq dum vazifasini o'taydi. Qo'lqob qo'g'irchoq tanasi bo'lishi, unga bosh va boshqa detallarni biriktirish ham mumkin. Qo'lqob topilmasa, unda to'qilgan eski buyum yoki matodan foydalanamiz. Bunda beshta barmoq o'rnini bichish shart emas, turli detallar unga tikib qo'yiladi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, 6-7 yoshli bolalarga teatr qo'yishdan maqsad bolalar ongiga milliy urf-odatlarimizni, an'analarimizni singdirishda ularga shu aziz vatan barchamizniki ekanligini uqtirish, har tomonlama ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda, tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqea hodisalarni, o'zining odobidagi ahloqiy kamchiliklarini, tabiatni asrab avaylash, unga mehr uyg'otishda qo'g'irchoq teatrining ahamiyati kattadir. Chunki teatrdagi tomoshabinlar tomoshalarni faqat ko'rib, tinglabgina qolmay balki unda mustaqil ishtirok etadi. Bolalar qo'g'irchoq teatrini ko'rganlaridan so'ng, qahramonlarning harakati, ahloqi, odobini, birgalikda muhokama qilish bola qalbida ezgulikka, hayrli ishlar qilishga, odamlarga yaxshilik qilishga intilish tuyg'usini tarbiyalaydi.

Qo'g'irchoq terapiya - bolalar, o'spirinlar va ularning oilalariga psixologik yordam ko'rsatish usuli bo'lib, bolalar psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan qo'g'irchoq teatri orqali ularning xatti-harakatlarini to'g'rilashga qaratilgan terapiya usuli. I.Medvedeva va L.Shishova tomonidan asos solingan. Ushbu usul bolalardagi og'riqli tajribalarni yo'q qilishga, ularning ruhiy salomatligini mustahkamlashga, ijtimoiy moslashuvni yaxshilashga, o'z-o'zini anglashni rivojlantirishga, jamoaviy ijodiy faoliyat sharoitida nizolarni hal qilishga yordam berish uchun mo'ljallangan. Ushbu usulga muvofiq, bolaning sevimli fe'l-atvori va uning travmatik holati bilan bog'liq voqea yuz qiyofalarida o'ynaydi. Qo'g'irchoq terapiyada turli xil qo'g'irchoqlar qo'llanadi: bitta personajlardan tortib teatr qo'g'irchoqlarining ko'p turlari vakillariga (qo'g'irchoqlar, tayoq qo'g'irchoqlari, barmoq qo'g'irchoqlari, mushukchalar, samolyot qo'g'irchoqlari, o'sish qo'g'irchoqlari va boshqalar). Qo'g'irchoq teatri o'yinlari, uning turlaridan biri sifatida, maktabgacha yoshdagi bolani adabiy yoki xalq asarining axloqiy mazmunini anglash va jamoaviy xarakterga ega bo'lgan o'yinda ishtirok etish jarayonida ijtimoiylashtirishning

samarali vositasi bo'lib, uni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. sheriklik hissi va ijobiy o'zaro ta'sir qilish usullarini o'zlashtirish. Qo'g'irchoq teatri faoliyati bolaning nutqining ifodaliligini shakllantirish, intellektual va badiiy-estetik tarbiya bilan bog'liq ko'plab pedagogik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Qo'g'irchoq teatrilashtirilgan o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati ham juda katta. Bolalar bir-biriga hurmatni rivojlantiradilar. Ular muloqotdagi qiyinchiliklarni yengish, o'z-o'zidan shubhalanish bilan bog'liq quvonchni o'rganadilar. Shubhasiz, teatr faoliyati bolalarni ijodiy shaxs bo'lishga, yangilikni idrok etishga, improvizatsiya qilish qobiliyatiga o'rgatadi. Bolalarning teatr o'yinlariga bo'lgan ishtiyoqi, ularning ichki qulayligi, bo'shligi, kattalar va bola o'rtasidagi oson, avtoritar bo'lmagan aloqa, deyarli darhol yo'qolib ketadigan "men qila olmayman" kompleksi - bularning barchasi hayratda qoldiradi va o'ziga jalb qiladi. Qo'g'irchoq teatri o'yinida hissiy rivojlanish amalga oshiriladi: bolalar qahramonlarning his-tuyg'ulari, kayfiyatlari bilan tanishadilar. Ular o'zlarining tashqi ifodalash usullarini o'zlashtiradilar, u yoki bu kayfiyatning sabablarini tushunadilar. Teatr faoliyati maktabgacha ta'limning eng mashhur va qiziqarli yo'nalishlaridan biridir. Pedagogik jozibadorlik nuqtai nazaridan, teatrning universalligi, o'yin xarakteri va ijtimoiy yo'nalishi haqida gapirish mumkin. O'yinning barcha turlaridan teatrlashtirilgan o'yin odamning hissiy holatini yuz ifodalari, imo ishoralar, intonatsiya orqali tan olish, turli vaziyatlarda o'zini boshqasining o'rniga qo'yish qobiliyatini rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatadi. yordam berishning tegishli usullarini toping. Qo'g'irchoq teatri faoliyati tuyg'ular, tajribalar va hissiy kashfiyotlar rivojlanishining bitmas-tuganmas manbai, ma'naviy boylik bilan tanishish usulidir. Natijada, bola dunyoni aqli va qalbi bilan o'rganadi, yaxshilik va yomonlikka munosabatini bildiradi; muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq quvonchni o'rganadi, o'z-o'zidan shubhalanadi. Pedagogik tadqiqotlarda teatr faoliyati bolani estetik tarbiyalash, uning badiiy qobiliyatlari, ijodkorligining sharti sifatida qaraladi. Adabiyotlarni tahlil qilish maktabgacha yoshdagi bolalarning teatr harakatlarini idrok etish xususiyatlarini, qahramonlar bilan ochiq aloqa va his-tuyg'ularni almashish, individual o'zini o'zi ifoda etish zarurati, bolaning o'zini

ko'rsatish istagini ajratib ko'rsatishga imkon berdi. Sevimli qahramon. Asosiy muammo maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar teatrlari uchun stsenariylarni ishlab chiqish va tasvir yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Axloqiy rivojlanish asoslari teatrlashtirilgan o'yin orqali o'tadi. Nutqni rivojlantirish uchun teatrlashtirilgan o'yinning ahamiyati ham muhimdir: Dialog va monologlarni takomillashtirish, nutqning ifodaliligini o'zlashtirish. Qo'g'irchoq teatri faoliyati tengdoshlari bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, adabiyotga, xalq ijodiyotiga qiziqish uyg'otadi. Va nihoyat, teatrlashtirilgan o'yin bolaning o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi anglash vositasidir. Qo'g'irchoq teatri bolalarning didini shakllantiruvchi eng yorqin emotsional vositalardan biridir. U bolaning tasavvuriga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi: so'z, harakat, pantomima, musiqa va boshqalar. Qo'g'irchoq teatri o'yinlarida ishtirok etganda, bolalarda odamlar, hayvonlar, o'simliklar hayotidagi voqealar haqida g'oyalar shakllanadi, bu ularga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, teatrlashtirilgan o'yin bolada o'z ona madaniyati, adabiyoti va teatriga doimiy qiziqish uyg'otadi. Qo'g'irchoq teatrlashtirilgan o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati ham juda katta. Bolalar bir-biriga hurmatni rivojlantiradilar. Ular muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, o'z-o'zidan shubhalanish bilan bog'liq quvonchni o'rganadilar. Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan xulosa qilishimiz mumkinki, teatr san'ati maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, u intellektual va badiiy, estetik, axloqiy tarbiya va shaxsni ijtimoiylashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga imkon beradi. **Qo'g'irchoq teatri darslarining turlari va mazmuniga quyidagilar kiradi:**

- e'tiborni, kuzatuvchanlikni, jasoratni, topqirlikni, ijodkorlikka tayyorlikni rivojlantiruvchi umumiy rivojlantiruvchi o'yinlar; vosita qobiliyatini rivojlantirish, plastik improvizatsiyani o'z ichiga olgan ritmoplastik mashqlar;
- kognitiv va ijtimoiy-shaxsiy sohani shakllantirishga qaratilgan psixogimnastika tadqiqotlari;

- hamma narsa fantastika bo'lgan sahna sharoitida bolalarni harakatga tayyorlaydigan maxsus teatrlashtirilgan o'yinlar, tasavvur va fantaziyaning rivojlantiradi;
- nutq madaniyati va texnikasi, nafas olishni, diktsiyaning, intonatsiyaning va nutqning ifodalashning boshqa vositalarini takomillashtirish bo'yicha vazifalar;
- teatr san'ati haqida suhbatlar va viktorinalar; etyudlar va o'yinlar teatr qo'g'irchoqlarini nazorat qilish, qo'l mushaklarini rivojlantirish, chidamlilik, sabr-toqat.

Qo'g'irchoq teatri san'ati orqali uning ifodali tili bilan tanishishga hissa qo'shadi, bu esa shaxsning axloqiy asoslarini, g'oyalarini, harakatlarini idrok etish, tushunish va talqin qilish ko'nikmalarini shakllantirishga zamin yaratadi; o'zaro muloqot qilish, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Ushbu yondashuvga muvofiq, dastur quyidagi rivojlanish yo'nalishlarida bolalarning shaxsiyati, motivatsiyasi va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlaydi: ijtimoiy-kommunikativ, kognitiv, nutq, badiiyestetik va jismoniy. Shu bilan birga, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dunyoning yaxlit rasmini shakllantirish bilan bog'liq holda maktabgacha ta'lim tashkiloti ish amaliyotida mavjud bo'lgan bir qator qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatish kerak: o'qituvchilarning dunyoning yaxlit tasvirining ishlab chiqilgan mazmunining dolzarb muammosini hal qilish zarurligini tushunish va tizimli va izchil ishning yo'qligi, bu ko'pincha vaziyatga bog'liq, pedagogik jihatdan noo'rin; o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar o'rtasida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantirishda teatr faoliyatining an'anaviy turlaridan foydalanish va katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning zamonaviy xususiyatlari va manfaatlarini, ularning mustaqillik va tashabbuskorlik istagini hisobga olmaydigan samarasiz tashkilot o'rtasida. Faoliyat, uning teatr o'yinlarida qoniqish, shuningdek, eng teatr faoliyatining salohiyati va imkoniyatlarini rivojlantirish; zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalarning integrativ faoliyatga, xususan, teatr faoliyatiga qiziqish ortib borayotganligi va uning pedagogik jarayonda tizimsiz qo'llanilishi, o'qituvchilar va ota onalarning uni amalga oshirishga tayyor emasligi o'rtasida. Ko'rsatilgan qarama-qarshiliklar va ularni hal qilish zarurati ilmiy muammoning

dolzarbligini, teatr faoliyatida katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar dunyosining yaxlit rasmini shakllantirish nuqtai nazaridan yangi pedagogik yechimlarni izlashni belgilaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida teatr faoliyati bolaning ijodiy salohiyatini ochib berish, shaxsning ijodiy yo'nalishini tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyatdir. Bolalar atrofidagi dunyoda qiziqarli g'oyalarni payqash, ularni o'zida mujassamlashtirgan, qahramonning o'zlarining badiiy qiyofasini yaratishni o'rganadilar, ijodiy tasavvurni, assotsiativ fikrlashni, g'ayrioddiy daqiqalarni ko'rish qobiliyatini rivojlantiradi.

Qo'g'irchoq teatri har qanday qahramon nomidan bilvosita ko'plab muammoli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradi, bu uyatchanlik, o'ziga ishonchsizlik, uyatchanlikni yengishga yordam beradi. Misol: qo'rqqoq bolaga ayiq roli beriladi va u rolga qayta kirib, kuchli, jasur xarakter qiyofasini oladi va o'zini boshqacha his qiladi. Shuningdek, u jamoat oldida chiqishni va xarakterli harakat qilishni, qo'rqqoqlik va qattiq qo'llikni yengishni biladi. Bola o'zini boshqacha his qila boshlaydi, harakat qiladi, gapiradi. Guruhda o'qituvchi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi kerak. Qo'g'irchoq teatrida spektaklni erkin va erkin ushlab turish qobiliyatini rivojlantirish uchun ijodkorlikni rag'batlantirish. Mimika, ifodali harakatlar va intonatsiyalar yordamida improvizatsiyani rag'batlantirish. Bolalarni teatr madaniyati bilan tanishtirish (teatr janrlari, qo'g'irchoq teatrlarining har xil turlari bilan tanishish). Chorshanba - bolaning shaxsiyatini rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri. Mavzu-fazoviy muhit nafaqat bolalarning birgalikdagi teatr faoliyatini ta'minlashi, balki har bir bolaning mustaqil ijodi uchun asos, uning o'zini o'zi tarbiyalashning o'ziga xos shakli bo'lishi kerak. Buning uchun har bir yosh guruhida teatr zonasi yoki ertak burchagi jihozlanishi kerak. Niqob yoki boshqa atributlarni kiygan bola o'zini ko'zgu oldida ma'lum bir rolda tasavvur qilsa, u g'oyani rivojlantira boshlaydi. Shubhasiz, teatr faoliyati bolalarni yangilikni idrok eta oladigan, improvizatsiya qilish qobiliyatiga ega ijodiy shaxs bo'lishga o'rgatadi. Jamiyatimizga shunday fazilatli, zamonaviy vaziyatga dadil kirib boradigan, muammoni ijodiy, oldindan tayyorgarliksiz

o'zlashtira oladigan, to'g'ri yechim topilmaguncha, xato qilishga jur'at eta oladigan inson kerak

Savol va topshiriqlar:

1. Qo'g'irchoq terapiyasi nima va uning asosiy maqsadi nimadan iborat?
2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan ishlashda qo'g'irchoq terapiyasining ahamiyati nimada?
3. Qo'g'irchoq terapiyasi bolalarning emotsional, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'g'irchoq terapiyasining qanday shakllari (drama, sahnalashtirish, erkin o'yin) qo'llaniladi?
5. Qo'g'irchoq terapiyasi yordamida bolalardagi qo'rquv, tajovuzkorlik, ishonchsizlik kabi psixologik muammolarni aniqlash va kamaytirish mumkinmi?
6. Pedagog va psixologlar qo'g'irchoq terapiyasi elementlarini o'quv-tarbiyaviy jarayonga qanday kiritishlari mumkin?
7. Qo'g'irchoq terapiyasi orqali bolaning ichki dunyosini qanday aniqlash va tushunish mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i. – T., 2023
4. Yo'ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.
6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.
7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.
8. Xalilova N. Art-terapiya: amaliy psixologiyada qo'llanilishi, maqola, O'zbekiston Psixologiya jurnali, 2022.

Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rang bilan davolash terapiyasidan foydalanish

Reja:

1. Rang bolalarning hissiy va intellektual rivojlanishi uchun kuchli hissiy rivojlanish davri sifatida.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda rangli terapiya
3. Rang terapiyasining nazariy asoslari

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: rang, rangli assotsiatsiyalar, hissiy ta'sir, ranglar psixologiyasi, brending, rang, ruhiyat, psixologik ta'sir, bolalar tarbiyasi, rangni idrok etish grafikasi, neoplazma, promaksimal rivojlanish zonasi

Ranglar dunyosining sir-sinoati, ularga yashiringan turli ramzlar va ruhiy olamga bog'liqlik alomatlari har doim insonlarni qiziqtirib kelgan. Ranglar bilan bog'liq tajriba va ilmiy izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar esa ranglarning sehrli olami haqidagi ma'lumotlari bilan barchaning e'tibori va qiziqishini tortganlar. Inson tabiatan rassomdir. U o'z hayotini doimo biror tarzda go'zal qilishga intiladi. Rang nafis tasviriy san'atning jonidir. Badiy asarning hissiy va ma'naviy ta'sirchanligini oshirishda rangning roli nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Ranglar haqida fikr yuritishdan oldin ayrim manbalarga e'tibor qaratish lozim: yorug'likning nurlanish quvvati, foton(yorug'lik zarrasi), ko'z va ko'rish darajalari, ko'z tuzilishi, rangli ko'rish, ko'rish tuyg'usining paydo bo'lishi, ranglarning vazminligi, garmoniyasi, tozaligi, fazoviy xususiyati hamda asosiy, axromatik, oraliq ranglar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim. Men ranglar bilan bog'liq faoliyat sohaslaridan rassomlar, dizaynerlar, interyer dizaynerlari, me'morlar, stilistlarning ishlarini ko'zdan kechirar ekanman, ular qanday fikrda ekanliklari va his-tuyg'ularni bizga yetkazmoqchi bo'lishayotganini anglashga harakat qilaman, ularning yordami bilan hayotimizni qanday yaxshilashimiz mumkinligini o'rganaman. Insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va o'zini ifoda etish uchun rangdan qanday foydalanish lozimligini o'rganish lozim. Ranglarning inson ruhiyatiga o'ziga xos ravishda ta'sir qilishi tan olingan haqiqatdir. Bizni o'rab turgan

ranglar olami ruhiyatimizga va ruhiy holatimizga bevosita ta'sir qiladi. Ranglar ta'sir qilish vaqti va shiddatiga qarab ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Mutaxassislar xulosasiga ko'ra, inson ko'zi milliondan ziyod ranglarni ajrata olar ekan. Ranglarning inson ruhiyatiga ta'sir qilishiga oid juda ko'p baxs-munozarali qarashlar mavjud. Ruhshunoslar har bir rangni qabul qilishda insonga o'ziga xos yondashadilar. Ya'ni bitta rangni har kim har xil qabul qiladi.

Qizil rang. Agar men to'q qizil rang bilan bezatilgan xonaga kirsam, darhol o'z xislarim kuchayib borishini his qilaman va atrofimda nimalar bo'layotganiga ko'proq ahamiyat qarata boshlayman. Buning aynan teskarisini **yashil va oq rangli** xonaga kirganimda his qilaman. Bunday rangli xonalarda menga xotirjamlik hissi keladi va o'zimni erkin his qilaman. Mashhur psixolog professor Angela Raytning tadqiqotlariga ko'ra qizil rang jismoniy rangdir va jasorat, kuch, iliqlik, energiya va hayajonni bildiradi. Salbiy tomonida esa tajovuzkor va e'tiborni jalb qiluvchi ko'rinishi mumkin. Siz moshina haydab ketayabsiz va svetaforning qizil chirog'ini yoki qizil rangli to'xtash yo'l belgisini ko'rdingiz, nima qilasiz? Ko'chalarda o't o'chirish va tez yordam moshinalarini necha marotaba o'tib ketganini ko'rgansiz va shu vaqtda tomir urishingiz tezlashganini sezganmisiz? Qizil ogohlantiruvchi vosita bo'lib, bizni favqulotda vaziyatlarda tezkor harakat qilishimiz uchun juda samaralidir. Eng to'g'ri vaziyat raqobatchilarni kuchsizlantirish. AQSHda o'tkazilgan bir tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, qizil rangli formada o'ynaydigan futbol jamoalari raqib jamoaga qaraganda muvaffaqiyatliroq o'yin ko'rsatishgan ekan. Mutaxassislarning fikriga ko'ra qizil rang kishiga ko'proq ishonch bag'ishlaydi. Ularni ko'rgan odam qizil kiyimli shaxsni ustuvor deb biladi va bu ularning ishlashiga salbiy ta'sir qiladi. Xotirjamlikni saqlash zarurdir. Qizil rang ogohlantiruvchi rang sifatida yurak urishi va qon bosimining ko'tarilishiga yordam beradi. Agar siz yuqori darajadagi yig'ilish kabi stressli vaziyatga tushib qolsangiz qizil rang kiyish sizni tabiiy bahslaringiz va tortishuvlaringizda raqibingizga nisbatan salbiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. **Moviy rang.** Bilasizmi, erkaklar ham ayollar ham moviy rangni o'zlarining sevimli rangi deb hisoblashar ekan. Vashington universiteti professorlari tadqiqotlariga ko'ra moviy rang odatda,

erkaklarga xos rang deb qaralsa ham bu juda ko'pchilik avzal ko'radigan rang hisoblanar ekan. Siz nima uchun ba'zi taniqli kompaniyalar ko'k rangni o'zlarining dominant rangi sifatida ishlatishlariga qiziqib ko'rganmisiz? Moviy bizni aqlimizga ta'sir qiluvchi va ishonch, samaradorlik, hotirjamlik, mantiq va fikrlash bilan bog'loq rangdir. Dunyodagi eng mashxur rang ko'k. Ruhni tinchlantiradi, aniq fikr va konsentretsiyani rag'batlantiradi. Qizildan farqli o'laroq ko'k bu oynning rangi, lekin siz hech qachon ko'k rangga bo'yalgan va jismonan soviq his qilgan xonaga kirganmisiz? Ommabob bo'lishga qaramay, ko'kni begonaroq va hissiyotsiz deb hisoblash mumkin. Eng to'g'ri vaziyat samaradorlik. Tinchlantiruvchi rang-ko'k, tafakkurni yangi g'oyalar bilan ochib berishga yordam beradi va diqqatni jamlashga undaydi. Ehtimol shuning uchun ko'p idoralar o'z xodimlarini ish joyida qoldirish uchun o'zlarining offislariga ko'k ranglarni tanlaydilar. Moviy ishonch va xavfsizlikni uyg'otadi. Shuning uchun bu rangga ishonadigan ko'plab tashkilotlar mavjud. Tadqiqotchilar moviy nur uyqu garmoni-melatoninni kamaytirish uchun eng kuchli to'lqin uzunligiga ega ekanlikini aniqladilar. **Sariq rang.** Sariq hissiy rang bo'lib, uning ijobiy ta'siri optimizm, o'ziga bo'lgan ishonch, ichki kuch va ijodkorlikni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Biroq, sariq rang psixologik jihatdan eng kuchli rangdir. Agar noto'g'ri ohang ishlatilgan bo'lsa, u aqlsizlik, qo'rquv, hissiy mo'rtlik va tushkunlikka olib kelishi mumkin. Sariq rang bilan mashg'ulot kuzatmalarini tanlab, o'zingizni energiya bilan taminlang. Siz bu rangdagi mashg'ulot buyumlari bilan tezroq yugurishingiz va o'zingizni yaxshi his qilishingiz mumkin. Sariq rang sport zallari va jismoniy mashqlar bajariladigan xonalar dizaynida eng o'rinli ranglardan hisoblanadi. Eng to'g'ri kelmaydigan vaziyat sariq va qizil rangni birga ishlatish. Ko'pincha qizil sariq ranglar bilan birlashtirib baxt va quvonch hissini uyg'otadi. Shuning uchun ikkala rangning kombinatsiyasi bizning mazali taom iste'mol qilishimizga undaydi. Sariq shuningdek, kunduzi ko'rish uchun eng oson rangdir. Agarda sizning biznessingiz tez ovqatlanish joylari bilan bir hilda ko'rinib qolishini hohlamasangiz bu rangni juda ehtiyotkorlik bilan ishlatishni tavfsiya etamiz. **Yashil rang.** Muvozanat rangi sifatida qaraladi va uyg'unlik, muozanat, dam olish, hotirjamlik va tinchlikni yaratadi. Yashil rang

yoshartirish va tinchlantirish uchun tabiiy tanlovdir. Shuningdek, tabiyat va tabiiylik, soflik bilan ham bog'langan. Oziq-ovqat do'koni ochmoqchi bo'lganlar uchun bu rangning to'g'ri tanlovlaridan biri hisoblanadi. Yashil yangilanish va tiklanish ramzi bo'lishi mumkin. Ammo, yashil rangning zerikarli va qiziq emas deb qabul qilinishi ham mumkin. Bu shuningdek, pul, ochko'zlik va rashk bilan bog'liq rang. Shuningdek ko'plab ranglar odamlarda har xil taassurotlarni uyg'otadi va biznessingizga albatta, o'z ta'sirini o'tkazadi. **Binafsha rang.** Bu rang nafislik, nostalgiya, ekskuzivlik va qirollik xususiyatlarini taklif etadi. Bu qimmatbaxo zargarlik buyumlarini sotadigan ba'zi kishilar uchun mukammal rang hisoblanadi. **Pushti rang.** Bu rangning quyuq soyalari energiyaga boy hisoblansa, yengil ranglari esa romantik tuyg'ularni namoyish etadi. **Apelsin rang.** Bu rang quvnoq, do'stona va qiziqarli hissi tufayli yoshlar va o'smir yoshdagilar uchun samarali bo'lishi mumkin. **Qora rang.** Qora jiddiy yoki klassik kompaniyalar targ'ib qiladi. Ushbu rangda nafislik va ekskuziflik ham mavjud. Qimmat mahsulotlar bilan ishlashda foydalanish mumkin. **Kul rang.** Bu haqiqatdan ham juda zerikarli rang hisoblanadi. Bu psixologik jihatdan neytral va uni ishlatish ishonchsizlikni namoyish etadi. Bundan tashqari ushbu rang og'ir bosimni keltirib chiqaradi. Bazi taniqli brendlar rangni shu qadar oqilona ishlatadilarki, shu bilan ularni logotipining rangi bilan osongina tanib olishi mumkin. Endi siz, ma'lum bir ranglar bilan bog'liq hislar, psixologik ta'sirlarni va ularning korporativ brendda muhim rol o'ynashini bilib oldingiz. Endi esa rang tanlashdagi to'g'ri tanlov bilan odamlarning brendingizga nisbatan qanday tanlovda bo'lishiga ta'sir o'tkazishini sinab ko'rishingiz mumkin. Ranglar psixologiyasi marketing va brending sohalarida ham keng qo'llaniladi. Marketologlar rangni mahsulotlarni xarid qilish jarayonida muhim ta'sir kuchiga ega ekanligini uqtiradilar. Logotiplar esa mijozni jalb qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi, bunda muayyan kompaniyaga tegishli mahsulotning individualligi bilan o'ziga jalb qilish xususiyatiga ega ekanligi e'tirof etiladi. Chunki logotiplar aniq ranglar ifodasiga ega bo'ladi. Ranglar do'konlar, supermarketlar, shaxobchalarning peshtaxtalarini bezashda muhim hisoblanib, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qizil rangli peshtaxta xaridorlarni jalb qilsa, ko'k rang inson tabiatiga ijobiy ta'sir

ko'rsatadi. Qizil va sariq ranglarning birgalikda ishlatilishi ochlik hissini qo'zg'atishi sababli restoranlarni bezashda aynan shu ranglarga murojaat qilinadi. McDonald's, Burger King hamda In-N-Out Burger kabi taomlanish shahobchalarining muvaffaqiyatli o'sishi shu asosda yuzaga kelganligini tan olish kerak. Ushbu hodisa „ketchup va xontal“ nazariyasi deb ataladi. Nafaqat marketing ranglar psixologiyasiga oid tamoyillardan foydalanadi, balki, tibbiyotda, sport va dizayn kabi sohalarda ham ranglarga tez-tez murojaat qilinadi. Tibbiyotda bemorlarni aynan ranglar orqali davolash usullari mavjud bo'lib, bu borada qadimdan olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Shunday bo'lsada insonlar o'zlariga ranglarni ta'sir etish darajasini bilmaganliklari uchun ham hozirgi kunda ko'plab insonlarda kayfiyatning o'zgaruvchanligi, tushkunlik, holsizlik, energianing yetishmayotganligidan va hatto yurak, qon tomir kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Shifokorlar ranglar psixologiyasini bilishlari va bu borada bemorlarga tahliliy ko'z bilan qaray olishlari maqsadga muvofiq bo'lar edi nazarimda. Hozirgi kunda jadallik bilan taraqqiy etayotgan yurtimizda ko'plab osmono'par, zamonaviy binolar qad ko'tarmoqda. Arxitektor va dizaynerlar bu sohada yetakchilik qilib kelishmoqda. Qurilayotgan binoning fasad qismidan tortib, xonaning intriyer dizaynini qanday bo'lishi ham albatta, mutaxassis dizaynerlarga ishonib topshiriladi. Bu sohada mutaxassis bo'lsalarda, ammo rang psixologiyasini o'rganmaganliklari tufayli qator kamchiliklarga yo'l qo'yishmoqda. Xonalarga noto'g'ri rang tanlash oqibatida insonlarda ko'z toliqishi, asabiylik, holsizlik, charchoq hissining paydo bo'lishi kabi bir qancha salbiy holatlarni keltirib chiqarayotganini ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytish joizki, biz turmush tarzimizni umumiy aytganda borliqni ranglar ishtirokisiz tassavvur qila olmaymiz. Ijtimoiy hayot tarzimizda ranglardan maqsadli foydalanar ekanmiz va kundalik hayot tarzimizda ham ranglar boshqarishini anglaganimizda ularning mohiyatiga to'g'ri baho bergan bo'lar edik.

Rang - bu inson tanasiga doimo ta'sir qiladigan kuchli energiya. Odamlar rangning hayotlarida qanday ro'l o'ynashi, ularning jismoniy, ruhiy va ruhiy holatiga qanday jiddiy ta'sir ko'rsatishi haqida kam o'ylashadi. Ammo tug'ilishdan

boshlab, bulutli kunda bulutlar ortidan quyosh chiqishi bilanoq, kayfiyat qanday yaxshilanishini hamma biladi. Barcha tirik mavjudotlar quyosh ostida paydo bo'lib, o'sadi. Rang uzoq vaqtdan beri insonga foydali yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus ma'noga ega. Ba'zi ranglar ko'zni quvontiradi, tinchlantiradi, zulm qiladi, salbiy sabab bo'ladi hissiyotlar. Har bir rang insonga boshqacha ta'sir qiladi, kiyadiselektiv xarakter. Har bir inson hayotidagi rangning ma'nosini bilishi zarur, chunki u kayfiyatiga, his tuyg'ularga, fikrlarga ta'sir qiladi. Bolaning hissiy va jismoniy farovonligi uni o'rab turgan narsaga bog'liq. Bu nafaqat mavzuni rivojlantirgan muhit, balki biz ham kattalarmiz. Shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun biz barcha sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Uzoq muddatli kuzatuvlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, rang inson tanasiga ta'siri jihatidan juda katta ahamiyatga ega. Rang bolalarning hissiy va intellektual rivojlanishi uchun kuchli hissiy rivojlanish davri. Axir, bolalar o'z tabiatiga ko'ra dunyomizning ko'plab ranglarga ko'proq moyil bo'lib, ayniqsa, bunga muhtojdirlar. Shu sababli, bola uchun rang har qanday tanqidiy vaziyatlarda maxsus "sehrli tayoq"dir. Bularning barchasi bizni ishimizda rang terapiyasi usulidan foydalanishga undadi. Rangli terapiya - bu ma'lum bir ranglar yordamida bolaning psixoemotsional holatini to'g'irlash usuli. Bu turli xil to'lqin uzunlikdagi fotonlarning bolaning ma'lum bir rangning ta'siri tufayli, asabiylashish, haddan tashqari faollik va hatto boshlang'ich bolaning tajovuzkorligini davolashda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Rang terapiyasining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi va zamonaviy davrlarda u tibbiyot sifatida rasman tan olingan. Rangli terapiya qadimgi misrda ishlatilgan: ichimlik tayyorlanadigan meva bilan bir xil rangdagi qimmatbaxo toshlar mevali ichimlik tayyorlanadigan meva bilan bir xil rangdagi qimmatbaxo toshlar mevali ichimlik bilan idishga qo'shilgan. Shunday qilib ular kasalliklarni davoladilar. Zamonaviy ilm-fan bilan davolovchi xususiyatlarini tasdiqladi. Gyote birinchi bo'lib ranglarning inson ruhiyatiga ijobiy va salbiy ta'sirini kashf etdi va shu bilan zamonaviy rang terapiyasining asoslarini yaratdi. U ta'kidlangan: "Ranglar qalbgga ta'sir qiladi: ular his-tuyg'ularini uyg'otishi, bizni tinchlantiradigan va hayajonlantiradigan va hayajonlantiradigan his-tuyg'ular va fikrlarni uyg'otishi,

qayg'u va quvonchni keltirib chiqarishi mumkin". V. Bekterev shunday degan: "Mohirlik bilan tanlangan ranglar gamuti asab tizimiga ba'zi iksirlardan ko'ra yaxshiroq ta'sir qilishi mumkin". Endi ranglarning insonning psixofiziologik holatiga ta'sir haqidagi butun ilmiy nazariya mavjud. Psixodiagnostikada insonning portretini yaratishga, uning haqiqiy psixofiziologik holatini aniqlashga va hokazolarga imkon beradigan "rang usullari" mavjud. "Menga eng yaxshi ko'rgan ranglaringizni ko'rsating - va men sizga kimligingizni aytib beraman" dedi mashhur shvetsariyalik shifokor va psixologik Maks Luscher, taniqli rang shaxsiyat testini ishlab chiqishda. Bolalar uchun rang terapiyasi, avvalambor, ularning sevimli ranglarni aniqlashni, so'ngra iloji boricha uni o'rab turgan joyni shu rang bilan to'ldirishni o'z ichiga oladi va bolalar odatda qanday ranglarni tanlaydilar? Ular yorqin to'yingan ranglarni tanlaydilar - qizil, sariq, yashil. Bu shuni ko'rsatadiki, bolalar odatdagidek rivojlanmoqda, ular yangi, yorqin narsalarga qiziqishadi, ular dinamik va qiziquvchan. Ammo sevimli oq yoki qora ranglar bolaning o'zini tortib olganini va yolg'izlikni afzal ko'rinishini aytish mumkin. Rangli terapiya bolani bolalik va quvonchning baxtli yorqin dunyosiga qaytarishga qaratilgan. Bolalar juda sezgir va ta'sirchan, ular o'zlariga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Bundan kelib chiqadiki, baquvvat, faol, tez qaror qabul qiladigan bolalar bir xil bolalar bilan muloqot qilishadi. Va xotirjam, muvozanatni, o'ychan, lekin shubhaga moyil bolalar do'st tanlashda xuddi shunday qilishadi. Rang o'ziga jalb qilishi va qaytarishi, xotirjamlik va qulaylik tuyg'usini yoki hayajonlantirishi va bezovta qilishi mumkin. Ranglar insonning mantig'iga emas, balki his-tuyg'ularga murojaat qiladi. Men har bir rang ongsiz assosiatsiyalarni keltrib chiqarishni aniqladim. Shuningdek, rang-barang muhit yaratdi, odamlar o'rtasidagi muloqotni tinchlantiradi va yaxshilaydi. Rang insonning holatiga sezilarli ta'sir qiladi. Shuningdek, ushbu mavzuni o'rgatishning nuqtalaridan biri shundaki, rang insonning muhim narsaga va o'ziga bo'lgan hissiy (shaxsiy-semantik) munosabatini tabiiy ravishda ifodalashga qodir. Rang hissiy munosabatlar va bizning ruhiy holatimizni o'zgartirish va bu o'zgarishni bildirish uchun rangning xususiyati salbiy tomonga ega. Agar biz kimnidir (yoki o'zimizni) rang bilan

belgilasak, biz u bilan ushbu ob'ekt bizni qanday ruhiy holatga olib kelishini bildiramiz. Rang inson ruhiyatiga ta'sir qiluvchi kuchli vositadir. Rangning kuchli vositadir. Rangning kuchli asosan ongimizning himoya mexanizmlarini "aylanib o'tish" va ongsiz darajada harakat qilish qobiliyatidir. Shuning uchun bu qobiliyatda u psixologik manipulyatsiya uchun juda jozibali vositaga aylanadi. Shunga ko'ra, zamonaviy inson atrofdagi dunyoda yaxshiroq harakat qilish uchun rang uning tanasi va ruhiyatiga qanday ta'sir qilishini bilishi va tushunishi kerak. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning 70 foizidan ko'prog'i yorqin ranglardan xush ko'rishar ekan. Masalan: pushti rang, sabzi rang. Biroq yorqin ranglar turkumiga kirmasa ham MTT xonalarida yashil rangga urg'u berish lozim. Chunki bu rang asabni tinchlantiradi, ko'zni toliqtirmaydi va umuman olganda ijobiy xususiyatlari ko'p. Ayiqsa, doska, parta, stol, stul, shkaf kabi jihozlar, devordagi stend, plakatlar yashil rangda bo'lsa foydadan holi emas. Ko'p hollarda bolalarning mashg'ulotini a'lo darajada o'zlashtirishi xona muhitga bog'liq bo'ladi. Chunki, nafaqat bolajonlar balki, biz kattalar ham sharoit va rang ta'sirlariga tez moslashamiz va kayfiyatimiz xona yoki ish kabinetimizning sharoitiga qarab o'zgarib turishini ongli ravishda bilamiz. Bu faqatgina yashil rang bilan chegaralanib qolish degani emas, albatta. Bola ichki dunyosini yanada go'zallashtirish maqsadida boshqa ranglardan ham o'z o'rnida foydalanish kerak. Ranglar va ularning xususiyatlari to'g'risida qancha ko'p fikrlar yuritsak, faqat foydali tomoni bilan chegaralanib qolamiz. Ammo ranglar inson tafakkuriga qarab Haddan ortiq to'q ranglar inson kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ayniqsa qizil rang e'tiborni tortishi barobarida markaziy asab tizimiga ham ta'sir etadi. Qora rang esa inson ichki dunyosini torayishiga, jizzaki bo'lib qolishga, hamda boladagi qobiliyatlar bir qolipda rivojlanmay qolishi ehtimolini beradi. Aminmizki, bolajonlarga ta'lim tarbiya berishda turli tuman ranglar jilosidan foydalanishimiz lozim. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida ularning rassomligini, ijodkorligi munosib taqdirlashimiz, hamisha ularni poklikka, go'zallikka chorlashimiz darkor. Yoshlikdanoq ular dunyoni eng chiroyli va nafis ranglarda tasavvur qilishsin. Zero bolajonlarni kichik yoshdanoq beg'uborlikka

oshno etib tarbiyalasak, kelajakda ulardan ijodkor qalb sohiblari yetishib chiqishi shubhasizdir .

Bola uchun dunyo ulkan, rang-barang, hissiyotli va eng muhimi turli ranglar kombinatsiyasi ko'rinishida ko'rinadi. Ota-onalar va tarbiyachilar ko'pincha kundalik hayotning bolaga ta'sirini baholay olmaydi. Yangi odamlar, rang-barang kitoblar, ko'p qirrali tabiat, klassik san'at asarlari. Bola juda sezgir va u atrofidagi dunyoni juda qiziquvchanlik bilan tushunadi. Shuning uchun ham bilish va ijodiy faoliyatni uyg'unlashtirishga o'rgatish imkoniyati mavjud. Rang bolaning his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi, badiiy faoliyat jarayonida ishtirok etadi, badiiy didning shakllanishiga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham go'zalik va rang tushunchasi tuyg'usini shakllantirish muhimdir. Rang estetikani rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismidir. Bolalarni ranglarni idrok etishga o'rgatish muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bulib, ularda psixologik, pedagogik va uslubiy nuqtai nazardan masalalar ko'rib chiqiladi. Bolalarning individual psixofiziologik farqlari sharoitida bolalar o'rtasida ranglarni idrok etish va ko'paytirishni shakllantirishning pedagogik asoslari yetarlicha o'rganilmagan. Bu qo'shimcha uslubiy tavsiyalardan foydalanish orqali bolalarda rang idrokini shakllantirish muammosining dolzarbligini tushuntiradi. Rasm chizish bolalarning sevimli mashg'ulotidir. Ular mustaqil ravishda qalam yoki bo'yoqlarni olib, dunyoni bevosita idrok etishni faollashtiradilar. Bolalar birinchi marta atrofdagi dunyoning ko'plab hodisalarini ko'rishadi. Bu ularning chizilgan narsaning noqulay, ammo juda yorqin o'ziga xos ifodasini tushuntiradi. Bu holdagi rang idroki individualdir. Bolalarning idroki kattalarnikidan farq qiladi, chunki bolalarning ko'rish apparati to'liq shakllanmagan, shuning uchun psixologik, fiziologik va estetik baholash aralashib, axloqiy bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. Rang-rang tasvir tilini ifodalashning asosiy vositasi. Uni o'zlashtirish bolaning umuman madaniyat, xususan, tasviriy sanat bilan tanishtirish jarayonining boshlanishi hisoblanadi. Rang tili bolalar uchun shakl, chiziqlar hajmdan ko'ra ko'proq tushuniladi. Bola atrofdagi dunyoni, ijtimoiy me'yorlarni va madaniyatni o'rgangan holda, ma'lum rang standartlarini o'zlashtirilishi va ko'rgan va qo'l tekizadigan hamma narsani tizimga kiritishi kerak. Rang meyorlarini tanlash

qanchalik aniq bo'lsa (yashil archalar, ko'k osmon, sariq quyosh, qizil gul va boshqalar), bola o'sib ulg'aygan sayin "bolalar idroki" doirasi shuncha kengayib boradi. Va aksincha ranglar kombinatsiyasining kengligini va o'zgaruvchanligini tanlash imkoniyatini oshiradi, idrokning analizator xususiyatlarini ingichka qiladi. Bo'yoqlar bilan ishlash, bo'yoq ranglarini atrof-muhit va tabiat obyektlari bilan taqqoslash, yangi rang olish uchun bo'yoqlarni aralashtirib yangi rang olish-bular bolalar uchun yoqimli mashg'ulotlardir. Talabalar atrofdagi dunyoning rang-barangligini shaxsiy idrok etish prizmasi bilan his eta olsalar, rasm bilan ishlash ularga ma'naviy boy bo'lishga, tasavvurlarni rivojlantirishga va yosh rassomning dunyosini ko'ra olish qobiliyatiga ega bo'lishga imkon beradi. Rangni idrok etishning fiziologik jihatidan uchun nerv signalini hosil qiluvchi inson qorachig'ining orqa tomonidagi ikki xil fotoretseptorlar javob beradi: tayochchalar va konuslar. Shu bilan birga, tayochchalar qora va oqning kontrasti nuriga sezgir, ayni paytda ko'k, yashil, qizil ranglarni idrok etadigan konuslar rangni idrok etish uchun javobgardir. Har qanday rang uchun mas'ul bo'lgan bir yoki ikkita konusning yuqligi rangni kurishni buzilishiga olib keladi. Hayotning ikkinchi yilidagi bolalar tomonidan idrok etilgan birinchi xususiyat bu ob'ektning shakli, undan keyin –hajmi va faqat ikki yoshga to'lganda rangidir. Ob'ektning shakli va rangi bo'yicha tasniflash qobiliyati hayotning ikkinchi yilning ikkinchini yarmida ko'pchilik bolalarda shakllanadi. Bundan tashqari, 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar taqlid qilish qobiliyatini nomoyon etadilar, bu esa mustaqil ijodiy faoliyat uchun promaksimal rivojlanish zonasini yaratadi. Bu yoshdan boshlab bolaning shaxsiy rivojlanishida idrok rivojlanishining roli ortadi. Idrok rivojlanishining yana bir yo'nalishi ijtimoiy ta'sirlarning natijasi bo'lgan va nutq orqali amalga oshiriladigan har xil turdagi neoplazmalar paydo bo'lishida ifodalanadi. Bularga geometrik figuralarning ijtimoiy idrok etuvchi standartlarini, ranglar spektrini va temprli musiqiy miqyosni o'zlashtirish kiradi. Maktabgacha yoshdagi muhim neoplazma idrokning eng yuqori ijtimoiylashtirilgan shakli –kuzatish bo'lib, uni amalga oshirishning muayyan usullarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bola kognitiv faoliyat sub'yekti sifatida harakat qila boshlashi maqsadga muvofiqdir. Sezgi funksiyalaridagi yoshga bog'liq

o'zgarishlar turli xil sezuvchanlik ko'rsatkichlarining intensiv dinamikasida ifodalanadi. Qiyosiy yosh rejasida o'rganilgan barcha turlar uchun sezuvchanlik hayotning ushbu davrida tezlashtirilgan va bir vaqtning o'zida sezgirlikning noteks o'sishi, ayniqsa differentsial bilan farqlanadi. Tasviriy san'atning kognitiv funksiyasi va rangtasvir orqali atrofdagi dunyoni bilish mexanizmlarining ilmiy tavsifi V. P. Zinchenko, S. E. Ignatieva, A. I. Ikkonikova, N. V. Sokolnikova, B. C. Kuzina, L. G. Medvedov, N. K. Shabanova, T.Y. Shipikolova, B.P. Yusov asarlarida o'z aksini topgan. Sakulina rasm chizish jarayoni bolalarda predmetlarni oldingi idrok etish bilan bevosita bog'liqligini, bu bolalarning visual idrok va g'oyalari xususiyatlariga bevosita bog'liqligini ifodalaydi. Nataliya Sigareva maktabgacha yoshdagi bolalarda rang idrokni shakllantirishdidaktik va tarbiyaviy o'yinlardir. Komeniskiyning so'zlariga ko'ra, rang estetik idrokni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bolalar va bola uchun ob'yektning belgilaridan biri sifatida harakat qilishi mumkin. Uning qarashlariga F. Ferebel to'liq qo'shilgan. E. A.Flerinaning so'zlariga ko'ra, 3-4 yoshda bola ranglarni 5-6 xilini bilishi, farqlashi va nomlashi zarurati bor. Inson hayotining ko'p jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan rangni idrok etish, shaxsiyat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, atrofimizdagi dunyoni to'liqroq va kengroq bilishga, undagi estetik tamoyil rivojlantirishga imkon beradi. Rangni idrok etishni o'rganish jarayoni bosqichma- bosqich ketma-ket qurilgan. Birinchi bosqichda bolalarda xromatik va axromatik ranglar haqidagi g'oyalar paydo bo'ladi. Ikkinchi bosqichda maktabgacha yoshdagi bolalar asosiy va aralash ranglar bilan tanishadilar, issiq va sovvuq ranglar, ranglarning kontrasti haqida bilib oladilar. Uchinchi bosqichda bolalar hodisalarga, qahramonga munosabatni ifodalash, his-tuyg'ularni, ichki holatlarni yetkazish uchun rangdan foydalanishni o'rganadilar. Rangni idrok etishni rivojlantirishda ta'lim muommolarini hal qilishda asosiy rolni og'zaki tushuntirishni sezilarli darajada to'ldiradigan ko'rgazmali material o'ynaydi. O'yinlar juda muhim rol o'ynaydi, ular olingan bilimni takrorlash va mustahkamlash vazifasini bajaradi. O'yinlar butun guruh bilan yoki kichik guruhda o'tkaziladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, borliqdagi narsa-hodisalar bolalar ongida akslanishi natijasida unda

ma'lum bir kayfiyat uyg'otishi, psixologik ta'sir qilishi mumkin. Shu ma'noda ranglarning turli jilvasi bolalar uni qabul qilganda mavjud hissiyot bilan sintezlashib, psixologik holatni boshqarish xususiyatiga ega. Shunday ekan, ranglarning sirli xususyatlarini anglash va ulardan oqilona foydalanish samaradorlikka erishishning muhim shartidir.

Savol va topshiriqlar:

1. Rang terapiyasi (kolor-terapiya) nima va uning ilmiy asoslari nimalardan iborat?
2. Rang terapiyasi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va emotsional rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?
3. Qanday ranglar bolalarda tinchlanish, faollik, quvonch yoki xavotirni kamaytirish kabi holatlarga sabab bo'ladi?
4. Rang terapiyasining qaysi usullari (erkin bo'yash, mavzuli rasm, rang tanlash testi) bolalar bilan ishlashda samaraliroq?
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida rang terapiyasi qaysi shakllarda (individual, guruhli, mashg'ulot tarzida) o'tkaziladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i. – T., 2023
4. Yo'ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.
6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.
7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.

Mavzu: Bilish jarayoni korreksiyasi va taraqqiyoti.

Reja:

1. Bilish jarayoni rivojlanishi.
2. Bilish jarayonlarini korreksiyalash va rivojlantirish tamoyillari
3. Bilish jarayoni taraqqiyoti

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: rang, rangli assotsiatsiyalar, hissiy ta'sir, ranglar psixologiyasi, brending, rang, ruhiyat, psixologik ta'sir, bolalar tarbiyasi, rangni idrok etish grafikasi, neoplazma, promaksimal rivojlanish zonasi

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o'quvchilarning qobilyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning otasi, farzandini unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi. Hozirgi vaqtga kelib dunyo aholisining soni yildan - yilga ortib bormoqda. Tug'ilgan bolalarning aksariyatida esa turli xil nuqsonlar kuzatilmoqda. Ushbu holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan bir qancha omillar mavjud. Jumladan, ekologik holatning yomonlashuvi, turmush qurishda yo'l qo'yilgan xatolar va sog'lom turmush tarziga amal qilmaslik natijasida yuzaga kelmoqda. Lekin hozirgi vaqtga kelib davlatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar ushbu turdagi shaxslarga ham keng yo'l ochdi. Maxsus maktablar hamda inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayoni davlat standartlariga javob bera oladigan darajada shakllanib bormoqda. Odatda inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzulish tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, ularning bevosita yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzluksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, singari bilish jarayonlari yordamida

asta-sekin anglashinish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi.

Bilish jarayonlarini korrektsiyalash va rivojlantirish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Faollik tamoyili. Bu tamoyil ko'proq eksperimental psixologiya asosida quyidagi g'oyaga bo'ysunadi: Inson eshitganlarining 10% ini, ko'rganlarining 50% ini, aytib berganlarining 70% ini va nihoyat o'zi qilganlarining 90% ini o'zlashtiradi.
2. Ijodiylik tamoyili. Bu tamoyilning asosiy mohiyati shundan iboratki, trening davomida ishtirokchilar guruhi psixologiyada aniq bo'lgan, kashf etib ulgurilgan g'oyalar, qonuniyatlarni topadilar, kashf qiladilar, eng asosiysi esa o'zlarining shaxsiy resurslarini, imkoniyat va sifatlarini anglab yetadilar.
3. Xulq-atvor obyektivlashishi (anglab yetilishi) tamoyili. Mashqlar davomida ishtirokchilar xulq-atvori impulsivlikdan obyektivlik darajasiga o'tadi va trening davomida o'zgarishlar kiritish imkonini beradi. Xulq-atvor obyektivligining universal vositasi sifatida aks aloqa hisoblanadi. Guruhdagi aks aloqani yuzaga kelishini ta'minlash trenerning mas'uliyatidir.
4. Sheriklik (Subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyili. Sheriklik, yoki subyekt-subyektlik muloqoti boshqalar manfaati, ular hissiyotlari, his-tuyg'ulari, qayg'ulari, boshqa insonning shaxsiy qadr-qimmatini deb tan olinadi. Buning qodlanilishi guruhda ishonch, ochiqlik iqlimini yaratadi.

Yuqoridagi tamoyillardan tashqari, treningning samarali borishi ma'lum bir jihatdan trenerning spetsifik prinsiplariga ham bog'diqdir. Trener har doim trening o'tkazishga kirishishdan avval o'ziga:

- Men qanday maqsadga erishmoqchiman?
- Men nima uchun shu maqsadga erishmoqchiman?
- Men qanday vositalar bilan unga erishmoqchiman? kabi savollarini berishi lozim.

Bu savollarga javobni trenerga guruh bilan ishlash davomida diagnostik tadqiqotlar ochib beradi. Bolaning sensomotor sohada rivojlanish darajasi haqida uning atrofidagi turli predmetlar, jumladan, o'yinchoqlar bilan harakat qilish xususiyatlari

darak berib turadi. O'yinchoqdan diagnostik qurol sifatida foydalanish uning tevarak-atrofidagi hodisalarni bilishga intilishi va faollik darajasi hamda predmetlardan foydalanishda amaliy ko'nikmalarning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Kattaroq bolalarni tekshirishda konkret psixologik metodikalardan foydalanish mumkin. Chunki xuddi shu davrdan boshlab, so'zli topshiriqlarni bajarish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni tushuna boshlaydi, unda zarur shaxsiy sifatlar shakllangan, bilishga qiziqish rivojlangan, u kattalar bilan birga eksperimental psixologik tadqiqotlarda nisbatan uzoqroq ishtirok etish holatida bo'ladi. Odatda inson ongi uni qurshab turgan tevarak-atrof haqidagi bilimlar majmuasidan iborat bo'lib, uning tuzilishi tarkibiga shunday bilish jarayonlari kiradiki, ularning bevosita yordami bilan shaxs o'z axborotlari ko'lamini uzliksiz ravishda boyitib boradi. Insondagi bilimlar sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol singari bilish jarayonlari yordamida asta-sekin anglashinish darajasiga ko'tariladi, keyinchalik esa muayyan turkumlarning tarkibiga kiradi. Kichik maktab yoshida diqqatni rivojlantirish Diqqatda shaxsning faoliyati va uning obyektiv voqelikdagi predmet va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishi o'z aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon bo'ladi: Diqqatsiz maqsadga muvofiq ish yuritish mumkin emas. Har qanday masalani yoki har qanday hayotiy muammoni yechish kishidan mazkur masalaning mohiyatiga, harakat uslubiga diqqatni to'plash va qaratishni talab qiladi. Inson psixik faoliyatida diqqat alohida o'rinni egallaydi. Diqqat o'zi mustaqil psixik jarayon bo'lmasada, inson psixik faoliyatining barcha sohalarida ishtirok etadi. Diqqat ongning zarur obyektga yo'naltirilishi va qaratilishida, ayni paytda boshqa narsalarga chalg'imaslikda ifodalanadi. Diqqat bir qancha xususiyatlarga ega, bular - diqqatning hajmi yoki ko'lami, diqqatning taqsimlanishi, to'planishi, barqarorligi va uning bir obyektidan boshqa obyektga yoki bir faoliyatdan boshqa faoliyatga o'tkazilishidir. Diqqatning xususiyatlarini o'rganish va rivojlantirish uchun bir qancha eksperimental metodlardan foydalaniladi. Quyida diqqatni rivojlantirish usullari bilan tanishamiz.

1-mashq. "Kim chaqqon?"

1. O'quvchilarga so'zlarda ko'p uchraydigan bir xil unli harflarni o'rganish buyuriladi. Bunda xatolari, qoldirilgan harflar hisoblanadi. Shu bilan birga ular rag'batlantiriladi.

2. Diqqatni ko'chirish qobiliyatini rivojlantirish uchun so'zdagi unli harflarning birini gorizontal, ikkinchisini vertikal holda ko'chirish buyuriladi. Asta-sekin mashqlar murakkablashadi. Maqsad - mashqlarni avtomat tarzda bajarish, berilgan vaqt 15 minutdan 30 minutgachadir. Xulosa: Bilish jarayonlari korreksiyasi va taraqqiyoti hozirgi kunda juda ham muhim o'rin egallab kelmoqda. Chunki, har bir bolaning bilish jarayoni rivojlangan bo'lishi kerak. Ammo, zamon shiddat bilan rivojlanar ekan, texnologiya insoniyat imkoniyatlarini yanada osonlashtirib, kengaytirmoqda. Yangi texnologiya, ta'limiy pedagogik texnologiyalar bolalarning imkoniyatlari darajasida shart-sharoitlar yaratib, barcha qatori ehtiyojlarini rivojlantirmoqda. Shuningdek, har bir ota-ona bolasining embrionlik va tug'ruqdan so'ng toki voyaga yetguniga qadar e'tibor qaratib borishi ham shular jumlasidandir.

Bilish jarayoni korreksiyasi — bu insonning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va nutq kabi bilish jarayonlaridagi qiyinchiliklarni aniqlash va ularni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik faoliyatdir. U ko'pincha maktabgacha ta'lim, maktabda o'qish jarayonida hamda maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi.

Maqsadi: - Bilish jarayonlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish. Diqqat, xotira, tafakkur va idrokni kuchaytirish. O'quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga yordam berish. Mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish.

Asosiy yo'nalishlari: - Diqqatni rivojlantirish – konsentratsiya, barqarorlik va taqsimlash mashqlari. Xotirani rivojlantirish – eslab qolish, qayta hikoya qilish, assotsiativ mashqlar. Idrokni rivojlantirish – shakl, rang, tovushni ajratish mashqlari. Tafakkurni rivojlantirish – mantiqiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar yechimi. Nutqni rivojlantirish – so'z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmani to'g'rilash. Tasavvurni rivojlantirish – rasm chizish, hikoya tuzish, o'yin metodlari. Qo'llaniladigan metodlar: - Didaktik o'yinlar, Logopedik mashqlar, Psixologik treninglar, Art-terapiya (rasm, loy, qo'g'irchoqlar yordamida), Multimediyadan

foydalanish. Misol: Agar bolada diqqat tez chalg'ishi kuzatilsa, unga "ortiqcha predmetni topish", "rasmga qarab farqlarni aytish", "ko'rganini eslab aytish" kabi mashqlar beriladi.

Bilish jarayoni taraqqiyoti – bu insonning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur va nutq kabi psixik jarayonlari yoshga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi jarayonidir.

Asosiy bosqichlari:

1. Maktabgacha yosh (3–6 yosh). Idrok va sezgilar kuchli rivojlanadi. O'yin faoliyati orqali bilishga qiziqish kuchayadi. Xotira ixtiyorsiz, bola ko'proq taassurotlar orqali eslab qoladi. Tasavvur boy, ertak va o'yinlarda keng namoyon bo'ladi.

2. Kichik maktab yoshi (7–10 yosh) Diqqat barqarorlashadi, ixtiyoriy xotira rivojlanadi. Mantiqiy tafakkur boshlanadi, sabab-oqibat bog'lanishini tushunadi. O'quv faoliyati asosiy bilish manbai bo'ladi. Nutq grammatik jihatdan to'g'rilashadi, yozma nutq paydo bo'ladi.

3. O'smirlik davri (11–15 yosh) Mustaqil fikrlash, tahlil va umumlashtirish qobiliyati rivojlanadi. Abstrakt tafakkur shakllanadi. O'z fikrini asoslash va baholash malakalari kuchayadi. Diqqatni boshqarish ko'nikmalari shakllanadi.

4. Yoshlar davri (16–20 yosh). Mantiqiy va ijodiy tafakkur yuqori darajada rivojlanadi. Mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy fikrlash kuchayadi. Xotira ixtiyoriy bo'lib, ko'proq mantiqiy bog'lanishlar asosida ishlaydi. Bilish faoliyati ilmiy va kasbiy yo'nalishga ega bo'ladi.

5. Kattalik davri (20 yoshdan keyin). Bilish jarayonlari barqarorlashadi, tajribaga tayanadi. Tafakkur amaliy va kasbiy yo'naltirilgan bo'ladi. Diqqat va xotira professional faoliyat bilan bog'liq holda rivojlanadi.

Taraqqiyot omillari: - Tabiiy omillar – nerv tizimi, sezgi organlari, irsiyat. Ijtimoiy omillar – tarbiya, ta'lim, muhit, muloqot. Faoliyat – o'yin, o'qish, mehnat, ijod.

Har bir yosh davri psixik taraqqiyotning maxsus bosqichidir va bola taraqqiyotining ma'lum bosqichida shaxs strukturasiidagi o'ziga xosliklar majmuini tashkil etadigan o'zgarishlar to'plami bilan xarakterlanadi. L.S.Vigotskiy yoshni taraqqiyotning

ma'lum davri deb qaragan. Uning fikricha 1 yosh davrdan boshqasiga o'tganda ilgari yosh davrida mavjud bo'lmagan yangi narsa paydo bo'ladi, taraqqiyotning borishi o'zgaradi va qayta quriladi. Yosh xususiyatlari ko'p sharoitlar majmui bilan belgilanadi. Ularga xayotning ma'lum bosqichida bolaga quyiladigan talablar sistemasi ham, munosabatlar ham, u egallaydigan faoliyat va bilimlar tipi ham bu bilimlarni o'zlashtirish usullari ham kiradi. Yoshning xususiyatini belgilaydigan sharoitlar mazmuniga bola jismoniy taraqqiyotining xar xil tomonlari xususiyatlari ham kiradi. Shunday qilib, yosh davri xayot sharoitlari va taraqqiyotning ma'lum davrida bolaga quyiladigan talablar xususiyatlari va uning atrofdagilar bilan munosabatlari, bola shaxsi psixologik tuzilishidagi taraqqiyot darajasi bilan uning tafakkuri va bilimlari taraqqiyoti darajasi hamda ma'lum fiziologik xususiyatlar majmui bilan xarakterlanadi. Yosh davrini atrofdagilarga munosabat taraqqiyot darajasi bilan bilimlar, usullar, qobiliyat taraqqiyoti darajasi o'rtasidagi aloqa belgilaydi. D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, taraqqiyot jarayonining bu 2 turli tomonlar o'rtasidagi munosabatning o'zgarishi keyingi yosh davrlarda muxim ichki asosni tashkil etadi. Masalan, go'daklik davrida bolaning tashqi muxit bilan aloqasi uning kattalar bilan munosabati orqali amalga oshiriladi. Bola xuddi shunday munosabatlar sistemasi sifatida ma'lum malakalarni egallaydi. Unda tasavvurlarning sodda bosqichlari shakllanadi. Kattalar bilan muloqat usullari kengayadi, nutqi rivojlanadi va boshqalar. Bularning bari bolaning mustaqil xarakat qilish imkoniyatlarining kengayishi uchun asos yaratadi. So'ngra atrofdagilar bilan munosabat usullari ham o'zgaradi. Bu esa psixik taraqqiyotning keyingi borishi sharoitini o'zgartiradi. Bunday vaziyat o'smirlik davrida ham vujudga keladi. Bunda oldingi taraqqiyot yutuqlari majmui bola xayot sharoitlari o'zgarishi bolaning atrofdagilar bilan munosabat usullarining o'zgarishiga olib keladi. Psixologlar tomonidan yosh davrlarning tabaqalashlarning nazariy masalalari ishlab chiqilgan. Ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta xissa bo'lib qo'shiladi, amaliy va nazariy muammolarning xal qilishda keng qo'llanilmoqda. Keyingi yillarda bolalar va maktab o'quvchilarining jismoniy va psixik rivojlanishida akseleratsiya (lotincha – “tezlanish”) xodisasi ro'y bermoqda. Olimlar akseleratsiya xodisasining ham biologik ham ijtimoiy sabablarini ko'rsatmoqda. 1. Biologik

sabablari oz miqdordagi ionlashgan nurlarning va radio to'lqinlarining ta'siri qishloq xo'jaligi va meditsinada o'sish va rivojlanishni, stimullashtiruvchi biologik faol moddalarning qo'llanilishi, inson ozuqasida hayvon oqsil moddalari miqdorining oshishi. 2. Ijtimoiy sabablari-hayot tipining kuchayishi, hayot tonusining ortishi, televideniya, radio, kino orqali bolaning o'smirlik chog'idan boshlab miyasiga yig'iladigan g'oya ko'p miqdordagi informatsiyalar, ma'lumot oqimining ta'siridan iboratdir. Faoliyati davomida shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo yetadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir. V.M.Karimova (2010)ning yozishicha, ongning muhim aks yettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlariga: idrok, sezgi, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar kiradi. Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof-muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular o'stida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq-atvorini rejalashtirishga imkon beradi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? 3-7 yoshgacha bo'lgan

davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari bo'lishini inobatga olgan xolda 3 davrga (3-4yosh) kichik maktabgacha davri, (4-5yosh)kichik maktabgacha yoshi, o'rta maktabgacha davr(o'rta maktabgacha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta maktabgacha yoshlilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o'tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va xodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat ko'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog'i kerak Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatinining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan maktabgacha yoshidagi bola tabiatining asosiy qonuni bo'lmish serharakatligini ortiqcha cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinib turibdi. Kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabat orqali bola axloq normalari, kishilarni anglash, shuningdek, ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi. Maktabgacha yoshidagi bola endi o'z gavdasini juda yaxshi boshqara boshlaydi. Uning harakati muvofiqlashtirilgan xolda bo'ladi. Bu davrda bolaning nutqi jadal rivojlana boshlaydi. U yangiliklarni egallashga nisbatan o'zi bilganlarini mustahkamlashga ehtiyoj sezadi. O'zi bilgan ertagini qayta-qayta eshitish va bundan zerikmaslik shu davrdagi bolalarga xos xususiyatdir. Maktabgacha yoshidagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosabatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarining mavjudligidir. Bu davrda bolalarda hamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Maktabgacha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsani yangilik sifatida ko'rib, uni har tomonlama bilib olishga

intilishidir. Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'lik bo'lgan murakkab psixik xodisa desa bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yindir. Maktabgacha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Maktabgacha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Maktabgacha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofda o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan o'zining kuchi ham yetmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. 3-7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yoshi davri hisoblanadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Bilish jarayoni (idrok, xotira, tafakkur, diqqat va tasavvur) nima va ularning asosiy xususiyatlari qanday?
2. Bilish jarayonlari shaxsning rivojlanishida qanday rol o'ynaydi?
3. Bilish jarayonlaridagi buzilishlar yoki sust rivojlanish sabablari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son" Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'i. – T., 2023
4. Yo'ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.

Mavzu: Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin terapiyasidan foydalanish usullari

Reja:

1. O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanishi.
2. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir.
3. O'yin terapiyasining asosiy usullari

Tayanch tushunchalar: o'yin, nutq, qoida, harakat, ijtimoiy ta'sir, munosabat, didaktik o'yin, harakatli o'yin.

O'yin bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokoi xullas hamisha hammaning o'rniga o'zi gapiradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish — ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija

beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi". O'yin tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'yin bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik bola ulg'aygan sari o'zgarib boradi. Kichik guruhda o'yin ta'lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg'ulotlarda ta'limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o'zlarida maktabdagi o'qishga ishtiyoq uyg'onib qoladi. Ammo bolalar uchun o'yinning qadri yo'qolmaydi, balki mazmuni o'zgaradi. Endi bolalarni ko'proq fikriy faollikni talab etuvchi o'yinlar, sport tarzidagi (musobaqa jihatlari bor) o'yinlar qiziqтира boshlaydi. O'yin bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasidir. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, malaka va ko'nikmalari harakat usullarini, axloq normalari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladilar. O'yinda bolaning o'z tengdoshlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi. Bolalarning o'yinda birlashishlari bir necha bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich bolalarning "yonma-yon" o'yinining shakllanib borishidir. Bu ilk yoshli va kichik guruh bolalariga xosdir. Bunday o'yinda bolalar o'rtog'ining o'yiniga qiziqish bilan qaraydilar, birga o'ynab, "yonma-yon" o'tirganlaridan xursand bo'ladilar. Bu yoshdagi bolalarning o'yini kattalar rahbarligida ularning xulqiga ta'sir etish orqali tashkil etiladi. Ikkinchi bosqichda bolalar o'yin orqali mexanik ravishda birlasha boshlaydilar. Bunday birlashishlar qisqa muddatli bo'ladi. Bu davrga kelib bolalardan kimning qaysi o'yinga qiziqishi aniq bo'la boshlaydi, bir xil bolalar didaktik o'yinga qiziqsalar, ikkinchilari harakatli o'yinni yoqtiradilar, uchinchilariga ijodiy o'yinlar ma'qulroq bo'ladi va h.k. Tarbiyachining vazifasi bolalarni u yoki bu o'yin bilan uzoqroq o'ynashga o'rgatishdir. Uchinchi bosqichda o'ynovchi bolalar guruhi bir-biriga do'stona munosabat va o'zaro yoqtirish orqali birlashadilar. Birga o'ynovchilar soni ko'p bo'lmasada, bolalar qiziqib o'ynaydilar. Bu davrga kelib bir-birlariga baho berish umumiy talabi yuzaga keladi. Bu bosqichda tarbiyachi bolalarning o'yinda birlashishlarining axloqiy asosini yuzaga keltirishi, ularda o'zaro yordam, o'rtoqlik, do'stlik munosabatlarini shakllantirishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarning uyushgan, qiziqarli va mazmunli hayotini ta'minlash uchun yosh

guruhlarida rang-barang o'yinlardan foydalanish zarur. Ijodiy o'yinlar qoidalarining ichki, yashirin tabiati bolaga harakat qilishi uchun katta erkinlik yaratadi; uning o'ynayotgan jamoa oldidagi vazifasi tayyor qoidali o'yinlar mazmuniga nisbatan noaniqroq bo'ladi. Bu o'ynovchiga suyuqetni osonlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha rollar kiritish imkonini beradi. Ijodiy o'yinlar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va ularga ulkan ta'sir ko'rsatadi, biroq bolalar hayotini tashkil qilishda faqat shu o'yinlardan foydalanish xato bo'lur edi. Bolalarning qoidali o'yinlarni egallashlari katta tashkiliy ahamiyatga ega. Qoidalar harakatlarning muayyan normalarini so'ng esa bolalarning bir-biriga bo'lgan munosabatini belgilaydi, bolaga o'zini va o'zi bilan birga o'ynayotganlarni nazorat qilish imkonini beradi. Qoidalarni bajarishdagi mustaqillik o'yinda bolalarni maqsadga muvofiq tarbiyalash jarayonida shakllantiriladi. Bola o'ynayotganda bolalar jamoasi bilan muayyan munosabatda bo'ladi. O'yinning ijtimoiy ta'siri, u uyg'otadigan hislar unda tarkib topadigan munosabatlarda mujassamlashgan bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin terapiyasidan foydalanish usullari - O'yin terapiyasi – bu bolalarning hissiy holati, bilish jarayonlari va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda psixologik muammolarini bartaraf etishda qo'llaniladigan samarali usuldir. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin tabiiy faoliyat bo'lgani uchun u orqali tarbiyaviy va korreksion maqsadga erishish osonroq bo'ladi.

O'yin terapiyasining asosiy usullari -

1. Rol o'yinlari (syujetli o'yinlar) Bola turli rollarni ijro etadi: “shifokor–bemor”, “o'qituvchi–o'quvchi”, “ona–bola”. Bu usul bolaning tasavvurini, muloqotini va ijtimoiy tajribasini rivojlantiradi.
2. Qoidali o'yinlar - “Kim tez topadi?”, “Xotira kartalari”, “Ortiqchasini top” kabi qoidali o'yinlar. Diqqat, xotira, tafakkur va irodaviy sifatlarni mustahkamlaydi.
3. Didaktik o'yinlar - Rang, shakl, sonlarni farqlash, so'z boyligini oshirish uchun qo'llaniladi. Masalan: “Rangini top”, “Qaysi hayvon?”, “Nimani eshitding?”.
4. Harakatli o'yinlar - “Quvlashmachoq”, “Halqa ichiga kir”, “Topib kel” kabi jismoniy o'yinlar. Bolalarda faollik, chaqqonlik, jamoada ishlash malakalarini rivojlantiradi.

5. Art-o'yin terapiyasi - Rasm chizish, loydan narsalar yasash, qo'g'irchoqlar bilan o'ynash. Bola his-tuyg'ularini ifoda etadi, qo'rquv va stressdan xalos bo'ladi.
6. Psixokorreksion o'yinlar - Maxsus mashqlar orqali diqqatni jamlash, qo'rquvni yengish, o'zini baholashni yaxshilash. Masalan: "Sehrli quti" (bolaning xohish va istaklarini ifoda qilish), "Sehrli ko'zgu" (o'zini ijobiy tasavvur qilish).
7. Kukla terapiyasi (qo'g'irchoq o'yinlari) - Bola qo'g'irchoq orqali o'z hislarini ifodalaydi. Bu usul tortinchoq yoki qo'rquvchan bolalar uchun juda samarali.

O'yin terapiyasining foydasi: - Bilish jarayonlarini (xotira, diqqat, tafakkur, nutq) rivojlantiradi. Bolaning ijtimoiylashuvini ta'minlaydi. Hissiy tanglikni kamaytiradi. Mustaqillik va ijodkorlikni kuchaytiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. O'yin terapiyasi nima va u maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda qanday ahamiyatga ega?
2. O'yin terapiyasining asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda o'yin terapiyasining qanday usullari (erkin o'yin, rol o'yin, strukturalashtirilgan o'yin) qo'llaniladi?
4. O'yin terapiyasi bolalarning emotsional, ijtimoiy va aqliy rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025
4. Yo'ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

Mavzu: Biblioterapiya. Logoterapiya

Reja:

1. Biblioterapiyaning maqsadi.
2. Logoterapiya
3. Biblioterapiya turlari

Tayanch tushunchalar: biblioterapiya, psixologiya, kitob, mutolaa, kutubxona, ruhiyat, ma'naviyat, tafakkur

Kitob - insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga bo'lgan muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qonqoniga singib ketgan. Kitob, nafaqat, inson tafakkurini, ma'naviyatini oshirishga yordam beradi, balki uning aqliy faoliyatini, ruhiyatini va xarakterini ham ijobiy tomonga o'zgarishiga katta ko'mak beradi. Ma'lumki, tibbiyotda inson salomatligini davolashda bir qator davolash usullari mavjud. Tibbiyotda dori va muolajalar yordamida bemor davolansa, psixoterapiya sohasida esa so'z va ruhiy holat orqali davolanadi. Mutolaa - miya uchun eng yaxshi mashq. Bu mashg'ulot miyaga qabul qilingan axborotning saqlanishini ta'minlaydigan asab tolalarini ko'paytiradi. Odatda kitobni ma'naviyatni boyituvchi, bilimni oshirib, fikrlash, dunyoqarashni o'stiruvchi vosita deb bilamiz. O'z navbatida xorijlik olimlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, mutolaa inson salomatligi uchun ham foydali mashg'ulot ekan. Odamlarning bir qismida eshitishdan ko'ra ko'rish orqali qabul qilish ko'proq rivojlangan. Shuning uchun og'zaki nutqdan ko'ra yozma so'zning ta'siri kuchliroq ko'rsatishi kasalliklarni davolashda va profilaktikasida adabiyotni qo'llash asoslaridan biridir. Shifokorlar va kutubxonachilar bu muammodan yaxshi xabardorlar, chunki psixoterapiyaning eng ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri bu - biblioterapiyadir. **“Biblioterapiya” so'zi grek tilidan olingan bo'lib, “biblion-kitob”, “terapiya -davolash”, ya'ni “kitob bilan davolash” degan ma'noni**

anglatadi. Aslida bu atama qadim zamonlardan beri qo'llanib kelinmoqda. Yani kutubxonachilik fanida bu yangi atama emas. Biblioterapiya. Qadimiy manbalarga, taxminan, 1200-1300 yillar avval Qohiradagi ko'plab mahalliy kasalxonalarda Qur'oni Karim kitobidan tibbiy davolash vositasi sifatida keng foydalanilgan. Chunki Islom dinining muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni Karimning oyatlarini eshitgan har bir kishi o'zida o'zgacha ruhiy xotirjamlik, ma'naviy yetuklikni his qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kitoblar ko'p yillar davomida odamlar uchun davolash vositasi bo'lib kelgan. Biroq, "kitob o'qish orqali davolash" birinchi marta amerikalik Benjamin Rush tomonidan tavsiya etilgan. Biblioterapiyaning eng muhim afzalliklaridan biri kitobni o'qigan odam o'zini to'liq qabul qila boshlaydi. Vaqt o'tishi bilan u odamning o'ziga bo'lgan ishonch hissi ortadi. Biblioterapiya - tibbiy terapiyaning istiqbolli yo'nalishi bo'lib, uni ishlab chiqish hamda bemorlarning manfaati uchun qo'llash zarur va muhimdir. Biblioterapiya to'g'ri odam bilan kerakli kitobni o'z vaqtida uchrashtirishdir. Ya'ni biblioterapiya uchun kitob tanlashda davolanayotgan insonning psixologik holati juda muhim hisoblanadi. Kitobni o'qiyotganda hissiy holatiga ko'ra inson muammolarga ijodiy yondashishni o'rganadi, ya'ni bu odamga muammalardan chiqishning boshqa yo'llari ham borligini rsatadi. O'z hayotidagi o'xshashliklarni, farqlarni asar qahramoni hayoti bilan solishtiradi. Fikr-mulohaza yuritadi. Kitob bilan davolash individual va guruhli shaklda amalga oshirilishi mumkin. Individual davolashda bemorlarning kitob o'qishi, biblioterapevt tomonidan tuzilgan o'qilgan materialning keyingi tahlili bo'yicha amalga oshiriladi. Guruhli davolashda har qanday psixoterapevtik guruhlar yaralishida hisobga olinadigan talablardan tashqari, guruh a'zolarining o'qiy olish darajasiga va kitobxonlik qiziqishlariga ko'ra tanlash zarurdir. Kitob bilan davolashni 5-8 bemordan iborat guruhlarda o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Guruhli mashqlar davomida o'qish uchun, hajm jihatdan uncha katta bo'lmagan asarlar tanlanadi. So'ng munozara yuzaga keladi, uning natijasida guruhdagi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar tizimi aniq ko'rinadi, o'qilganning asosida yetik xulosalar qilinadi. Shuningdek, guruh a'zolarining badiiy adabiyotga munosabatlari aniqlanadi, va kam o'qiydiganlarda o'qishga qiziqish uyg'onadi.

Suhbatlar maxsus moslamaga yozib olinadi va guruhni yetakchisi - psixoterapevt tomonidan tahlil qilinadi. Davolash metodikasining mohiyati, adabiyotlarning individual ro'yxatini tuzish bilan amalga oshiriladigan maxsus adabiyot tanlovidir. Tanlovning asosiy qoidasi shundaki, kitob qahramoni, o'zining baxtsizligini yoki kasalligini boshqalarning yordamisiz yengib o'tishi kerak. Bemor uchun o'qishning individual rejasini shifokor va kutubxonachi tuzishadi. U olti-sakkiz kitobdan iborat bo'ladi, hamda faqat kasalxonada bo'ladigan vaqti uchungina emas, balki muolajadan keyingi moslashuv uchun. Kitob tanlashda kasallikning xarakterini o'rganish bilan bir qatorda, bemorning intellektual darajasini, qiziqishlarini ham o'rganish lozim. Biblioterapiya bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi qanday sifatlarga va kasbiy mahorat darajasiga ega bolishi lozim? U bemorlar bilan muloqot qilishni bilishi, ularning so'rovlariga qiyinchiliksiz javob bera olishlari kerak. Kutubxonachining kitobxon bilan suhbat davomida, uning nutqi o'rtacha baland ovozda aniq yumshoq va mayin ohangda bo'lishi lozim. Suhbatni olib borayotgan kishi bosim o'tkazishga, majburlashga, buyruq berishga haqqi yo'q. Kutubxonachiga minnatdorlik bildirilganda, "hech qisi yo'q", "tashvishlanmang" kabi javob beradi. Ammo minnatdorlik so'zlarini javobsiz qoldirish mumkin emas. Turli davr va xalqlarning mashhur odamlari - Pushkin, Gyugo, A.Tolstoy va Rubakin - kitobning odamga ta'siriga turlicha munosabat bildirishgan. Ularda kitobga va o'qishga muhabbat hissi bo'lgan, ularni qalblariga amr berguvchi, ma'naviy qadriyatlar himoyachisi deb bilganlar. Bu biblioterapiyaning asoslaridan biri hisoblanadi. A.Moruaning so'zlariga ko'ra, kitob insonning o'z ustida tik turishga imkon beradi. U boshqa xalqlarga yo'l ochadi. N.Rerix kitobni sevishga chorlagan, bu haqida V.Shklovskiyning aytishicha, kitobga bo'lgan haqiqiy muhabbat - bu olamni bilishga va o'rganishga muhabbatdir. Afsuski, bugun vrach-psixoterpevtlar ba'zi klinikalardagina biblioterapiyadan foydalanadilar. Tibbiy muassasalar vrachlari, psixologlari, kutubxonachilari bo'lgan mutaxassislar yetishmasligi sababli bu sohada ancha oqsoqliklar yuzaga kelgan. Keyinchalik esa biblioterapiya sohasini rivojlantirish uchun bir qator ishlar amalga oshirildi. Kanadada biblioterapiya uchun vrach va kutubxonachilar tayyorlanadi.

ostida ritmik harakatlar bajarish orqali estetik idrok va ijodiy qobiliyat yuksaladi. Bolalarda musiqaga mehr uyg'otish uchun, avvalo, ular tinglayotgan asarni sevishi kerak. Bu esa faqat yuksak badiiy-estetik qiymatga ega asarlar orqali ta'minlanadi. Mahoratli ijrochidan eshitilgan musiqiy asar bolada chuqur taassurot, hissiyot va fikr-mulohazalarni uyg'otadi. Qo'shiqning tinglovchiga ta'siri asarning qanday ijro etilgani, sozanda yoki xonandaning mahorati bilan chambarchas bog'liq. Biroq bu holatning o'zi yetarli emas. Tinglovchi asarning muallifi, yaratilgan davri, shakli, turi, o'lchovi, ritmi kabi xususiyatlar haqida yetarli bilimga ega bo'lsa, asarning mazmunini to'la anglab, u orqali hissiy va ongli yuksalishga erishadi. Milliy musiqamizni to'g'ri idrok etishga tayyorlash maktabgacha ta'limdagi eng muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonni amalga oshirish musiqa rahbarining zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Musiqa tinglatishdan avval bolalar bilan qisqacha suhbat o'tkazish, asarning mazmuni, xarakteri va muallifi haqida ma'lumot berish zarur.

E. Gorskaya ta'kidlaganidek, tinglashdan avvalgi suhbat bolani psixologik tayyorlaydi. Asarning janri, yaratilish tarixi, g'oyaviy yo'nalishi haqida berilgan izoh tinglovchining asarni to'laqonli idrok etishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bolalarga musiqiy asarlar orqasida ma'lum voqeliklar, his-tuyg'ular va fikrlar mavjudligini tushuntirish ularning hayotiy tajribasiga asoslanishi lozim. Musiqiy tarbiyada bolalarni nafaqat ijro etishga, balki musiqani emotsional va ruhan anglashga ham o'rgatish kerak. Odatda bolalar musiqani qo'shiq kuylash orqali eshitadilar, ammo bu etarli emas. Musiqa rahbari bolalarni murakkabroq kuy va asarlarni tinglashga tayyorlashi kerak. Bu esa rahbarning ijrochilik qobiliyatiga bog'liq. Agar rahbar bunday salohiyatga ega bo'lmasa, u holda zamonaviy texnik vositalar – audiofayllar, musiqiy markazlar, kompyuterlar yordamida bolalarning emotsional holatini uyg'otishi mumkin. Biroq magnitofon orqali tinglatilgan asarga qaraganda rahbarning o'zi ijro etgan asar bolalarda kuchliroq ta'sir uyg'otadi. Zamonaviy pedagogika fanida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida musiqa terapiyasi o'quvchilarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita sifatida tan olinmoqda. Xususan, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ushbu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nafaqat kasbiy mahoratni, balki

pedagogik sezgirlikni ham oshiradi. Musiqa terapiyasining stressni kamaytirish, diqqatni jamlash, hamkorlik va empatiya rivojiga ta'siri fan va amaliyotda keng tasdiqlangan. Musiqa terapiyasi inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi eng qadimiy vositalardan biri hisoblanadi. Uning pedagogik kontekstdagi qo'llanilishi esa XX asrning o'rtalaridan boshlab jadal rivojlandi. Dastlab AQSH, Germaniya, Avstriya, Finlyandiya kabi davlatlarda maxsus musiqa-terapevtik markazlar tashkil etilib, bolalar va o'smirlar ruhiyatini barqarorlashtirishda qo'llanilgan. O'zbekiston pedagogik amaliyotida esa musiqa ko'proq estetik va madaniy tarbiyaning vositasi sifatida qaralgan bo'lsada, so'nggi yillarda uning terapiya vositasi sifatidagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatga integratsiyalanmoqda. Musiqa terapiyasining mohiyati — musiqaning tovush, ritm, melodiya, tempo kabi komponentlari orqali insonning hissiy, psixologik va ijtimoiy muammolarini bartaraf etishdan iboratdir. Pedagogik nuqtai nazardan bu, o'quvchilar va o'qituvchilarning o'zaro munosabatini mustahkamlash, emotsional zo'riqlashlarni yumshatish, stress holatini yengillashtirish va dars jarayonini yanada sarmazmun qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar davomida aniqlanishicha:

- Pedagogik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarning 73 foizi musiqa terapiyasining psixologik jihatlaridan bexabar.
- Amaliy mashg'ulotlarda musiqa terapiyasiga oid metodik qo'llanmalarning yetishmasligi mavjud.
- Musiqa orqali bolalarda muloqot, xotira, ijtimoiy munosabat va o'zini ifoda qilish ko'nikmalari rivojlanishi mumkinligi aniqlangan.
- Pedagogik amaliyotda musiqa terapiyasi elementlaridan foydalanish bo'yicha maxsus modul kurslar joriy etilsa, o'quv jarayoni samaradorligi oshadi. Pedagog kadrlar tayyorlashda musiqa terapiyasini o'rgatish bir necha sabablarga ko'ra muhimdir. Avvalo, musiqa inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi vosita bo'lib, uning terapevtik kuchi ta'lim-tarbiya jarayonida beqiyosdir. Ikkinchidan, o'qituvchining o'zi ham dars jarayonida psixo-emotsional holatni boshqara olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Bu esa musiqa terapiyasini nafaqat o'quvchilar, balki pedagoglarning o'zlari uchun ham zarur bo'lgan yo'nalish ekanligini

ko'rsatadi. Musiqa terapiyasining innovatsion pedagogik texnologiyalarga integratsiyalashuvi orqali:

- bolalar bilan ish olib borishda stressga bardoshlilik oshadi,
- individual yondashuv imkoniyatlari kengayadi,
- darslar emotsional jihatdan boyitiladi. Musiqa terapiyasi inson psixikasiga musiqaning ohang, ritm, tempo, dinamikasi va mazmuni orqali ta'sir o'tkazishga asoslangan davolovchi hamda rivojlantiruvchi faoliyat turidir. Ushbu yondashuv tarixiy jihatdan qadimiy ildizlarga ega bo'lib, miloddan avvalgi Misr, Hindiston, Gretsiya va Xitoy madaniyatlarida musiqa orqali ruhiy kasalliklarni davolash holatlari qayd etilgan. Zamonaviy musiqa terapiyasi esa psixologiya, neyrofiziologiya va pedagogikaning integratsiyasiga asoslanadi. Pedagogika fanida musiqa terapiyasi — bu o'quvchi (yoki talaba)ning psixologik va emotsional holatini barqarorlashtirish, ijodiy salohiyatini ochish, shaxslararo munosabatlarni yengillashtirish va ta'limga ijobiy motivatsiyani kuchaytirish vositasidir. Bu pedagogik yondashuv ayniqsa:

- maktabgacha yoshdagi bolalar;
- nogironligi bo'lgan bolalar;
- emotsional buzilishlar (stress, qo'rquv, tashvish) bilan yashayotgan o'quvchilar uchun foydalidir. Pedagog kadrlar tayyorlashda musiqa terapiyasiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ta'lim tizimining zamonaviy talablaridan biridir. Musiqa orqali o'rgatish, histuyg'ularni boshqarish va emotsional muvozanatni saqlashni o'rgatish pedagog shaxsining kasbiy barkamolligini ta'minlaydi. Shu boisdan, oliy pedagogik ta'lim dasturlariga musiqa terapiyasi asoslari, amaliy mashg'ulotlar, kuzatuv va tahlil topshiriqlari kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Musiqa terapiyasi pedagog kadrlarni tayyorlashda zarur bo'lgan emotsional, kommunikativ, estetik kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yo'nalishning oliy ta'lim dasturlariga integratsiyalashuvi zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahoratini yuksaltiradi. Chet el tajribasi va milliy musiqiy meros asosida o'quv kurslari, maxsus modullar va amaliy mashg'ulotlar tizimini yaratish lozim. Musiqa terapiyasi asosida dars va tarbiyaviy ishlarda ijobiy

emotsional muhit shakllantiriladi, bu esa o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'limda musiqa terapiyasi - Musiqa terapiyasi – bu musiqaning turli shakllaridan (tinglash, kuylash, raqsga tushish, cholg'u asboblariida chalish) foydalanib, bolalarning ruhiy-emotsional holatini yaxshilash, bilish jarayonlarini rivojlantirish va ijtimoiy ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan korreksion va tarbiyaviy usuldir.**Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa terapiyasining maqsadlari.** Hissiy zo'riqish va stressni kamaytirish.Nutq, xotira, diqqat va tafakkurni rivojlantirish.Ijodiy qobiliyat va tasavvurni kuchaytirish.O'zini ifoda etish, ijtimoiylashuv va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.Bolalarda musiqaga mehr uyg'otish, estetik didni rivojlantirish.

Musiqa terapiyasi usullari - Musiqa tinglash terapiyasi.Bolalar turli asarlarni tinglaydi (klassik, xalq kuy-qo'shiqlari, tabiat tovushlari).Tinchlantirish, diqqatni jamlash va tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi.Kuylash (vokal terapiya)Bolalar qo'shiqlarni birgalikda kuylaydi.Nutq apparatini rivojlantiradi, nafas olishni me'yorga keltiradi, jamoaviylikni mustahkamlaydi.Ritmoterapiya.Qo'l chertish, baraban, doira, qo'ng'iroqchalar yordamida ritmik mashqlar.Motorika, diqqat va koordinatsiyani rivojlantiradi.Harakatli musiqa terapiyasi (musiqaga raqs va o'yin)Musiqa ostida harakatlar, raqs, pantomima.Hissiy ifoda, tana erkinligi va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi.Improvizatsion musiqa terapiyasi. Bola o'z xohishicha musiqiy tovushlar chiqaradi, oddiy cholg'ular chaladi.Ijodkorlik va o'zini erkin ifodalashni kuchaytiradi.

Musiqa terapiyasining afzalliklari - Bolada ijobiy kayfiyatni shakllantiradi.Stress, qo'rquv va tajovuzkorlikni kamaytiradi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishni uyg'unlashtiradi.Guruhda muloqot va do'stona munosabatlarni mustahkamlaydi. Masalan: agar bola tortinchoq bo'lsa, unga kichik baraban yoki qo'ng'iroq berilib, musiqaga mos urish topshirig'i beriladi. Shu orqali bola asta-sekin o'zini ifoda etishni o'rganadi.

Savol va topshiriqlar:

1. Musiqa terapiyasi nima va uning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy vazifalari qanday?
2. Maktabgacha ta'limda musiqa terapiyasining psixologik va pedagogik ahamiyati nimada?
3. Musiqa terapiyasi bolalarning emotsional holatini qanday yaxshilaydi?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqa terapiyasi nutq, motorika va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday ta'sir qiladi?
5. Qanday musiqa terapiyasi usullari (ritmik mashqlar, vokal, musiqa tinglash) maktabgacha ta'lim muassasalarida samaraliroq?
6. Musiqa terapiyasini maktabgacha ta'lim muassasalarida qanday shakllarda tashkil etish mumkin?
7. Musiqa terapiyasi yordamida bolaning stress va bezovtalik darajasini kamaytirish mumkinmi?
8. Tarbiyachi va psixologlarning musiqa terapiyasini samarali qo'llash uchun qanday malaka va bilimlarga ega bo'lishi zarur?
9. Maktabgacha ta'limda musiqa terapiyasining boshqa terapiya turlari bilan integratsiyasi qanday amalga oshiriladi?
10. Maktabgacha ta'limda musiqa terapiyasining samaradorligini baholash uchun qanday diagnostik vositalar mavjud?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025
4. Yo'ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

Mavzu: Bolalarning tasviriy san'ati.

Reja:

1. Maktabgacha ta'limda bolalarning tasviriy san'ati
2. Bolani turli xil noan'anaviy rasm chizish texnikasi
3. Iplar yordamoda rasm chizish

Tayanch tushunchalar: Tasviriy san'at, metodika, didaktika, bilim, badiiy-estetik ta'lim, malaka, metod, dars, estetika, tafakkur, ko'rgazmali o'qitish, badiiy tarbiya, ijodiy tafakkur.

Tasviriy faoliyat - bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyatdir. Tasviriy faoliyat bolalarning voqelik haqidagi tasavurlarining kengayishi va mustahkamlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Taniqli psixolog V.M.Teplov idrokning alohida xarakterini quyidagi tasvir bilan bog'liq holda ta'kidlab o'tadi: "tasviriy san'atda tasvir masalasi kuchli idrok qilishni talab etadi. Qurilgan narsaning tasvir masalasini yecha turib, bola har doim narsalarni yangicha tomondan anchagina tezroq, kuchliroq va aniqroq qurishni o'rganib boradi" O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga yangi vazifalar qo'yildi. Bu esa hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat turlarini, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, fazoviy tasavvurni, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish va yaratuvchanlikni oshirish.

Rasm chizish dunyoni bilish va estetik idrok bilimlarini rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir, chunki u bolaning mustaqil, amaliy va ijodiy faoliyati bilan bog'liq. Faoliyat faoliyati bolalarning ijodiy qobiliyatlari, tasavvurlari, kuzatuvchanligi, badiiy tafakkuri va xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Tasvirning yangi usullaridan foydalanish bolaning rasm chizish qobiliyatini

diversifikatsiya qilishga, materiallarning visual imkoniyatlarini o'rganishga qiziqishni uyg'otishga va natijada umuman vizual faoliyatga qiziqishni oshirishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bolalarning ijodiy qobiliyatlari, tasavvurlari, kuzatishlari, badiiy fikrlashlari va xotiralarini rivojlantirishga yordam berishi, tasvirda yangi usullaridan foydalanish bolaning chizish qobiliyatini, umuman tasviriy faoliyatga qiziqishni oshirish imkonini beradi. Noan'anaviy tasviriy faoliyat texnikasi o'quvchilarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishga, aqliy jarayonlarni tuzatishga yordam beradi. An'anaviy bo'lmagan rasm chizish texnikasining yangiligi va o'ziga xos xususiyati shundaki, ular innovatsion xususiyatga ega. Ish tizimida bolalar badiiy ijodini rivojlantirishning noan'anaviy usullari qo'llaniladi. An'anaviy bo'lmagan rasm chizish uchun tabiiy va keraksiz uy qurilishi vositalaridan foydalaniladi. An'anaviy bo'lmagan rasm chizish bolalarga juda ko'p ijobiy his-tuyg'ularni beradi, ularga tanish bo'lgan uy-ro'zg'or buyumlarini asl badiiy materiallar sifatida ishlatish imkoniyatini ochib beradi va oldindan aytib bo'lmaydiganligi bilan ajablantiradi. Bolani turli xil noan'anaviy rasm chizish texnikasi va materiallar bilan tanishtirish umumiy didaktikani qurish tamoyillariga asoslanadi:

- Mavsumiylik printsiplari: ma'lum bir vaqtda ushbu hududning tabiiy va iqlimiy xususiyatlarini hisobga olgan holda kognitiv tarkibni qurish.
- Tizimlilik va izchillik printsiplari: muammolarni shakllantirish. "Oddiydan murakkabgacha", "noaniqlikdan aniqlikgacha".
- Badiiy ta'limning rivojlanish printsiplari.
- Tabiatga muvofiqlik printsiplari: yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda bolalarni badiiy va ijodiy rivojlantirish vazifalari.
- Har bir bolaga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- Bolalarni o'qitish va badiiy rivojlantirishda faollik, nazorat, individual yondashuv, materialning mavjudligi, uning takrorlanishi, dasturiy materialni oddiydan murakkabgacha qurish, vizualizatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarda, shu jumladan bolalar bog'chalarida intellektual vajodiy moyillikni aniqlash va rivojlantirish kerak. O'quv o'yinlari va fantaziya usullari to'plami (ertak,

hikoyalarni o'ylab topish) va ijodiy tasavvurni rivojlantirish samaralidir. Tasavvurni o'rganish bo'yicha O.M.Dyachenkoning tadqiqotlarida quyidagi xususiyatlarni aniqlagan:

- 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar borliqning ma'lum bir elementiga asoslanib yangi tasvirni yaratadilar, shu bilan birga borliqning ushbu elementi yangi tasvirning markaziy qismiga aylanadi.

- 4-5 yoshida, samarali tasavvur darajasining pasayishi sezilarli bo'lib, bolalarning normalar, qoidalar va faoliyat namunalari o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan bog'liqdir.

- 6-7 yoshli bolalar tasvirni hosil qilishning yangi turidan foydalanishni boshlaydilar: borliq elementlari yangi obrazda ikkinchi darajali o'rinni egallaydi, bu esa yechimlarning o'ziga xosligi va samaradorligini ta'minlaydi. Ijodkorlik (iqtidorning asosi) bolada tug'ilishdan boshlab paydo bo'ladi va u o'sib ulg'aygan sari rivojlanadi. Turli xil bolalarning ijodiy salohiyati ham turlicha bo'ladi. Ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy sharti bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdir. 6

- 7 yoshgacha yuqori darajadagi ijodkorlikka ega bolalarda shaxsning eng muhim xususiyatlari deyarli shakllangan bo'lsa, o'rtacha va past darajadagi ijodkorlik bilan

- shaxsiy fazilatlarining rivojlanishining o'rtacha va past darajasi shakllangan. Noan'anaviy texnologiyalardan foydalanish tajribasi muvaffaqiyatga erishishga, maktabgacha yoshdagi bolaning noan'anaviy texnologiyalardan foydalangan holda ijodiy vazifani bajarishga bo'lgan samimiy qiziqishiga asoslangan majburlashlarsiz o'rganish g'oyasiga asoslanadi. An'anaviy bo'lmagan texnikalarni o'qitishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagog bolalarga ma'lum tarkibni yetkazish, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun qanday usul va usullardan foydalanishiga bog'liq. "Badiiy ijod" ta'lim faoliyatini tashkil etishga turli xil yondashuvlar, bolalarda rasm chizish istagini uyg'otadi, bolalar yanada xotirjam, ishonchli bo'lib qoladilar, ular xayolot, ijodiy tasavvur, fikrlash, qiziqishni rivojlantiradilar. G'ayri oddiy materiallar va original texnikalar bolalarni o'ziga jalb qiladi, chunki bu yerda "mumkin emas" degan taqiq yo'q, siz xohlagan narsasi bilan, xohlagan narsani chizishlari mumkin. Bolalar ijobiy his-tuyg'ularni his qilishadi va

hissiyotlarga ko'ra, siz bolaning kayfiyatini, uni xursand qiladigan, xafa qiladigan narsalarni baholab borishingiz mumkin bo'ladi. Ushbu mavzu yuzasidan noan'anaviy rasm chizish texnikasiga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Qattiq yarim quruq cho'tka bilan;

Barmoqlar bilan chizish;

Kaftlar bilan rasmchizish;

Po'kaklishtaplar orqali bosib chizish;

G'ijimlangan qog'ozni bosib chiqarish;

Mumqalamlari akvarel;

Sham akvarel;

Naycha bilan blotografiya (naycha yordamida puflash orqali);

Sachratish(cho'tka, kistochkalarni);

Barg izlari (turli shakldagi burglar akvarel bo'yog'I bilan);

Muhrlar(turli shakl, suratli muhrlar);

Tuz bilan rasm chizish;

Sovun pufakchalari bilan rasmchizish;

Iplar yordamida rasm chizish va yana bir qanchasini kiritishimiz mumkin. Har kuni bola atrof – olamdagi yangi narsalarni kashf etadi. U bu kashfiyotni yaqinlari bilan baham ko'rishga intiladi. Bola ko'rgan narsalar, uni hayajonlantirgan narsalar, uning o'yin jarayonida, nutqida, rasmida aks etadi. Bolalarda rasm chizishga qiziqish erta yoshdayoq paydo bo'ladi. Uyda ota-onalar, katta yoshdagilar qalam, ruchka bilan qanday harakat qilishlarini ko'rib, bolalar ham ularni qog'ozga tushirishga harakat qilishadi. Bolalikda rasm chizish bolaning shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishiga va birinchi navbatda uning estetik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshda bolani go'zallikni tushuna olish darajasiga keltirish, go'zallikni o'zi yaratish qobiliyatini shakllantirish, estetik tuyg'ularni (shakl, rang, kompozitsiya hissi) tarbiyalash muhimdir. Har bir o'qituvchi texnologiyani yaratuvchisidir. Ijodkorliksiz texnologiyani yaratishmumkin emas. Texnologik darajada ishlashni o'rgangan o'qituvchi uchun uning rivojlanayotgan holatidagi kognitiv jarayon har doim asosiy qo'llanma bo'lib qoladi. Hamma narsa bizning

qo'limizda, shuning uchun ularni shunchaki, o'z holiga tashlab bo'lmaydi. Shuning uchun bolani turli xil vizual texnologiyalar bilan tanishtirish kerak. Har bir texnologiya o'ziga xos rang uyg'unligi va yo'liga ega, ularning har biri alohida asar yaratish usuli sifatida ham, asarning asl qismi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Hamma bolalarga cho'tka yoki qalamga egalik qilish huquqi berilmaydi, kimdir chiziqlarni ifoda etishda qiynaladi, kimdir rang sxemasining xilma-xilligini tushunmaydi yoki qabul qilmaydi. Bolalar o'z ishini qobiliyatli bolalar bilan taqqoslashda qiyinchiliklarni boshdan kechirmasdan, ruhiga yaqin texnologiyani tanlashiga imkon berish lozim. Bolalarni majburlash emas, balki bolalarga yordam berishni balki taklif qilish kerak. Bola o'zligini topishiga yordam berish uchun unga o'zini ifoda etishning iloji boricha turli usullarini taklif qilish kerak. Axir, har qanday visual texnologiya bolaga o'ylash, izlash, sinash kabi imkoniyatlarni beradi.

Maktabgacha ta'limda bolalarning tasviriy san'ati

Tasviriy san'at – bu bolalarning o'z hissiyotlarini, tasavvurlarini, dunyoqarashini turli badiiy vositalar orqali ifodalash jarayonidir. U maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni, estetik didni, nozik psixomotor harakatlarni va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Tasviriy san'atning asosiy turlari - Rasm chizish – qalam, bo'yoq, flomaster yordamida. Bo'yash – ranglarni uyg'unlashtirish va his-tuyg'ularni ifodalash. Applikatsiya – qog'ozni kesish, yopishtirish orqali obraz yaratish. Haykaltaroshlik (lepka) – plastilin, loy, xamir bilan ishlash. Dekorativ san'at – naqshlar, bezaklar chizish.

Bolalarning tasviriy san'atdan oladigan foydasi - Mayda motorikani rivojlantiradi. Diqqat va xotirani kuchaytiradi. Ijodkorlik va fantaziyaning kengaytiradi. Estetik didni shakllantiradi. O'zini erkin ifoda etish va emotsiyalarni boshqarishni o'rgatadi. Jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshda tasviriy san'atni o'rgatish bosqichlari

Kichik guruh (3–4 yosh) – oddiy chiziqlar, doiralar, ranglarni tanish.

O'rta guruh (4–5 yosh) – sodda predmetlar, hayvon va odam shakllari.

Katta guruh (5–6 yosh) – syujetli rasm, applikatsiya, kompozitsiya.

Tayyorgarlik guruhi (6–7 yosh) – mustaqil ijodiy ishlar, oddiy dekorativ san’at namunalari.

Tarbiyachining vazifalari - Bolalarni san’atga qiziqtirish. Rang, shakl va kompozitsiyani tushuntirish. Erkin ijod qilish uchun sharoit yaratish. Har bir bolaning individual qobiliyatini qo’llab-quvvatlash. Asarlarni ko’rgazma va bayramlarda namoyish etish. Masalan: bolalar “Mening oilam” mavzusida rasm chizganda, ular nafaqat chizishni, balki o’z his-tuyg’ularini ifoda qilishni ham o’rganadilar.

Savol va topshiriqlar:

1. Tasviriy san’at nima va u bolalar tarbiyasi va rivojlanishida qanday rol o’ynaydi?
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati bosqichlari qanday kechadi?
3. Bolalar tasviriy san’at orqali o’z emotsiyalari va tasavvurlarini qanday ifodalaydi?
4. Tasviriy san’at bolaning estetik, emotsional va ijodiy rivojlanishiga qanday ta’sir qiladi?
5. Qanday tasviriy faoliyat turlari (chizish, bo’yash, yelimlash, loy bilan ishlash) bolalarda ijodkorlikni rivojlantiradi?
6. Tarbiyachi bolalarning tasviriy san’atga bo’lgan qiziqishini qanday rag’batlantirishi mumkin?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son”Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.
3. O‘zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug‘i. – T., 2025
4. Yo‘ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.

Mavzu: Art- terapiya uslubining chegaralari

Reja:

1. Art-terapiya imkoniyatlari
2. Art-terapiya uslubining chegaralari
3. Art-terapiyaning qo'llash shartlari.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar: Psixokorreksiya, ijodiy ifoda, terapevtik chegaralar, konfidensiallik, diagnostik vosita sifatida art-terapiya, art-terapevtik vositalar, emotsional xavfsizlik

Art-terapiya uslubi, o'ziga xos cheklovlariga ega bo'lsada, ko'pgina psixologik muammolarni hal qilishda samarali. Asosiy cheklovlaridan biri shundaki, bu usuldan faqat psixologik yordam zarur bo'lgan hollardagina foydalaniladi, chunki u professional tibbiy davolash o'rnini bosolmaydi. Shuningdek, san'atni sevmaslik, ijodiy qobiliyatning yo'qligi yoki bemorning o'zini ifoda qilish istagi bo'lmasligi ushbu usulni qo'llashni cheklashi mumkin.

Art-terapiya uslubining chegaralari:

- **Tibbiy davolash o'rnini bosmaydi:** Art-terapiya ko'pincha psixologik muammolarni hal qilishda qo'llaniladi, ammo u jiddiy ruhiy kasalliklar yoki jismoniy holatlarni davolash o'rnini bosa olmaydi.
- **Shaxsiy xohish-istak talab qilinadi:** Ushbu terapiya uslubini qo'llash uchun bemorning o'zi san'at bilan shug'ullanishga tayyor bo'lishi va o'zini ijod orqali ifodalashga qiziqqan bo'lishi kerak.
- **Ijodiy qobiliyat talab etilmaydi:** Bir talay odamlar san'at bilan ishlashda ijodiy qobiliyatga ega emasligidan cho'chishadi. Biroq, bu art-terapiya uslubining qo'llanilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak, chunki ushbu uslubda ijodiy qobiliyat muhim rol o'ynamaydi.
- **Professional yordam zarur:** Art-terapiya uslubini qo'llash faqat tajribali va malakali psixologlar tomonidan amalga oshirilishi kerak.
- **Qo'llanilishi mumkin bo'lmagan holatlar:** Ba'zi holatlarda (masalan, og'ir ruhiy buzilishlar) art-terapiya uslubi bemorga zarar yetkazishi mumkin. Bunga yo'l

qo'ymaslik uchun bemorning sog'lig'i va ruhiy holati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lish lozim.

Art-terapiya uslubi ko'pgina psixologik muammolarni hal qilishda samali bo'ladi, ammo uni qo'llashda cheklovlar mavjud. Ushbu uslubni qo'llashdan oldin, psixolog bilan maslahatlashish lozim. Turli uslublarga boy bo'lgan art-terapiya ruh va tanani tinchlantirish, turli alomatlarini yengillashtirish, bartaraf etish va yo'q qilish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'pchilik odamlar uchun u vaqtni naf bilan o'tkazish, stress ta'sirini kamaytirish va quvvatni tiklash imkonini beruvchi sevimli mashg'ulot hamdir. Art-terapiya – bu psixoterapiyaning tasviriy san'at va ijodiy faoliyatga asoslangan, ixtisoslashtirilgan shaklidir. Bu inson ongi va ong osti orasidagi, aql va ruh o'rtasidagi bog'lovchi zanjir sanalmish usul. Art-terapiya samaradorligining mohiyati shundaki, insonning aksariyat muammolari yuzaki ong darajasida emas, balki chuqur ong osti darajasidan kelib chiqadi.

Art-terapiya imkoniyatlari:

- Xulq-atvorni tuzatish – tajovuzkorlik va boshqa salbiy his-tuyg'ularning chiqishiga maqbul yo'l berish
- Ongsiz ravishda kechadigan ichki nizolar va tashvishlarni aniqlash va yumshatish – muvozanatga erishish
- Stressning salbiy oqibatlarini kamaytirish
- O'z-o'ziga hurmatni oshirish (aybdorlik va o'ziga achinish hissidan xalos bo'lish)
- Odamlar bilan munosabatlarni yaxshilash (muloqot ko'nikmalarini tuzatish)
- Ijobiy fikrlashni shakllantirish
- O'zini bo'sh qo'yish va relaksasiya

Art-terapiya usulining noyob ahamiyati shundaki, inson korreksiya jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Art-terapiya qo'llanilayotgan insondan san'at sohasida tajribasi bo'lishi talab qilinmaydi. Art-terapiya inson san'at orqali o'ziga yordam berishni o'rganishiga qaratilgan. Nazardan tashqarida salbiy his-tuyg'ulardan so'ng, u ruhida "buyurtma bermoqda", uning ichki shtati yaxshilanmoqda. San'at terapiyasi uchun ba'zi maxsus moliyaviy investitsiyalar talab qilinmaydi, psixolog bilan bir necha soat muzokaralar talab qilinmaydi. Biror

kishi faqat u yaxshi ish tutib, uni engillashtirishga olib keladi. Bolalar va kattalar uchun san'at terapiyasi Shunday qilib, san'at terapiyasi nima? U sulmatsiya usuliga asoslanadi. Sublimatsiya - bu ichki kuchlanishni olib tashlash uchun o'z energiyasini bir kishidan boshqasiga yo'naltirish qobiliyati. "Art terapiyasi" "Artni davolash" deb tarjima qilingan. Har bir kishida ijodiy qobiliyatlarning ustunliklari mavjud, ularning barchasi turli yo'llar bilan ifodalanadi. Kimdir yaxshi narsani tortadi va kimdir buni o'rganishni orzu qiladi. Texnikning shubhasiz afzalliklaridan biri kattalar va bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Ba'zi odamlar, vaqt allaqachon yo'qolganligini hisobga olsak, ba'zi odamlar o'zlarining ijodiy boshlanishini ifoda etish uchun uyatchan. Bu borada bolalar ko'proq ochiq - ular boshqalar uchun qanday munosabatda bo'lishlarini o'ylamasdan, ular xohlagan narsani qilishdan xursand bo'lishadi. Nega ichki noqulaylik bilan shug'ullanishingizga ishonch hosil qiling? Yuqorida aytganda, baland ovozli fikrlar va qo'rquvlar, nafaqat bizning ruhiyatimiz va ruhimiz azob-uqubatlari, balki tanamiz ham. Shunday qilib, psixosomatik kasalliklar va nevrotik kasallik paydo bo'ladi. Ichkarida to'plangan qog'ozda butun salbiyni chetlab o'tish, odam tozalashga yordam beradi. Bu terapiya usuli faqat chizilganligini anglatadimi? Umuman yo'q. San'at terapiyasining yo'nalishlari San'atdagi yo'nalishlar mavjud. Ularning asosiysi nasr yoki she'rlar, raqslar, rostlash, qo'g'irchoqlar va hunarmandchilik, kvilinglarni yig'ish bo'yicha mustaqil asarlarning mustaqil inshosidir. Hatto oddiy chizish turli usullarda ham amalga oshirilishi mumkin. Ularning eng o'ziga xos o'ziga xosligi tuz, yalpoq qog'oz, sovun pufakchalari chizilgan. Arracapiya jiddiy ruhiy kasalliklar va kasalliklardan davolanmaydi, ammo bu yashirin qo'rquv va komplekslarni "tortib olishga" yordam beradi va uyg'unlik va xotirjamlikka yordam beradi. San'at terapiyasidan foydalanish uchun ko'rsatmalar Badiiy texnikaga kim kerak? Foydalanish uchun ko'rsatmalar quyidagicha:

- yaqin kishining yo'qolganidan keyin hissiy tiklanish;
- fobiyalar, qo'rquv, obsesif fikrlar;
- o'ziga past baho berish;
- depressiv davlatlar;

- surunkali stress, nevroz;
- xavotirni oshirish;
- uyqu buzilishi;
- bolalar va o'smirlardagi maktabdagi tez-tez to'qnashuvlar. Boshqacha qilib aytganda, o'qishlar ro'yxati odamni xavfli va psixologik yomon his qiladigan davlatlarni o'z ichiga oladi. San'at terapiyasiga qarshi bo'lgan holatlar, og'ir tushkunliklar, ongning buzilishi, Manik davlatlar. Terapiya mashg'ulotlari yakka tartibda amalga oshirilishi mumkin, ammo bemor guruh darslariga tashrif buyurishi mumkin. Ba'zilar butun oilaning sessiyalariga kelishni afzal ko'rishadi. Bu oila a'zolarining yaqinlashuviga va ular o'rtasidagi o'zaro tushunishni shakllantirishga yordam beradi. San'at terapevtik markazlari psixiatrik klinikalar, bolalar ijodiyoti markazlari, turli xil ijtimoiy markazlar bilan mavjud. Psixologiyada badiiy terapiya SHning his-tuyg'ulari va tashvishlarini rivojlantirishga qaratilgan, iste'dodni rivojlantirish, ijodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun bemorning e'tiborini rivojlantirish uchun o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan qobiliyat. Biror kishi o'z ishining mevalarini ko'rganda, u kayfiyatni yaxshiladi va o'zini o'zi baholaydi. Bundan tashqari, badiiy terapiya klinik psixoterapiya paytida yordamchi texnik sifatida qarash mumkin. Bolalar uchun badiiy terapiya usullari Bolalar uchun badiiy terapiya bolalar tomonidan qiziqarli va hayajonli o'yin sifatida qabul qilinadi. Yosh bemorlar bilan ishlaydigan psixoterapevtlar bola bilan aloqa o'rnatish va unga ishonch deb bilish naqadar muhimligini bilishadi. Sinflar davomida chaqaloqning ijodiy salohiyati oshkor bo'ladi, ular ijodiy fikrlash uchun mas'ul bo'lgan miyaning maydonlarini rivojlantiradilar. Bolalar bilan ishlashda, chizishdan tashqari, bunday usullardan foydalanish mumkin: Shuningdek, bolalar bilan haykaltarosh bo'lishi mumkin, o'z-o'zidan yaratilgan qo'g'irchoqlarni singdirilishi, qiz do'stidan bo'yash uchun hunarmandchilik qiling. Bularning barchasi, shuningdek, "san'atni davolash" shakllari. Natijani qanchalik tez ko'rishingiz mumkin Agar siz namunaviy psixoterapiyaning standart usullariga murojaat qilishingiz mumkinligini, modellashtirish, chizish yoki raqsga tushish uchun bir necha soat sarflashingiz kerakligini ko'pchilik tushunishmaydi - masalan, malakali psixoterapevt bilan

suhbatlashish. Gap shundaki, san'at terapiyasi ichki tutilishni imkon beradi. O'zingizning ishingiz natijalarini boshqalar bilan taqqoslash juda muhimdir. Agar har bir rasm yoki raqs - bu ruh bilan va toza yurakdan ajralib turadi. Birinchi bir necha sessiyalardan keyin bitta kishi osonroq bo'ladi, boshqalari bir necha oy kerak bo'ladi. Art terapiya yangi tomondan o'zini ochish imkoniyatini beradi. Ehtimol, odam o'zining iste'dodini har qanday san'atga shubha qilmagandir. Ayniqsa, ularning ijodiy salohiyati kichik bolalarni ochib beradi. Bundan tashqari, insonning seansi paytida hech narsa chalg'itmasligi juda muhimdir. U o'zini ishg'ol qilish, dolzarb muammolardan chalg'itib, uning his-tuyg'ulariga e'tibor qaratadi. Bu unga yolg'iz his-tuyg'ulari bilan qolish imkoniyatini beradi. Yaqinda san'at terapiyasi yaqinda, Yigirmanchi asrning birinchi uchdan bir qismida va bugungi kunda san'at terapiyasi texnologiyalari faol rivojlanmoqda. "San'at" so'zi ijodkorlikni anglatadi, shuning uchun aslida san'at terapiyasi ijod bilan davolash deb atash mumkin. Psixologik tuzatish usuli sifatida ijodiy davolanish bolalarni, kattalar va keksa odamlarni davolashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi va asosiy usullar sifatida chizma, modellash, to'quv, raqs yoki inshoni ishlatishdan foydalanishadi. Haqiqiy san'at terapiyasi nima va nega bu kerak? "Tibbiy ijodkor" darslari juda keng qo'llaniladi va turli xil holatlarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar uchun badiiy terapiya, bolalar, homilador ayollar uchun keng qo'llaniladi. U psixologik maslahatlarda, psixoterapevtik davolanish bilan, reabilitatsiya paytida, jarohatlar paytida jismoniy va psixologik tabiat. San'atni davolash usullari stressni olib tashlash, depressiya, befarq, fobiyalarga qarshi kurash uchun juda samarali. Zamonaviy san'at terapiyasining turli xil texnikasi o'zlarini chuqurroq bilish, kayfiyatni yaxshilash, ruhiy holatni uyg'unlashtirish, ong va jonni tinchlantirishga yordam beradi. Qanday maqsadlar yoki zamonaviy san'at terapiyasining boshqa turlari uchun har doim natijada har doim natija beradi va o'ziga xos ahamiyatga ega emas, nojo'ya yon ta'sirga ega emas. Art texnologiyasining ulkan farqsisi, shuningdek, davolanish uchun shaxs aloqa o'rnatishga majbur emas, balki u aloqa orqali emas, balki tasvirlarda "I" ni tasvirlaydi. Va juda ko'p odamlar uchun stressli holat juda muhimdir. Bunday davolash odamdan hech qanday qarshilik

ko'rsatmaydi, u har doim ixtiyoriy va to'liq xavfsizdir. Artepetemitik maqsadlar turli xil ijod turlarini qo'llashi mumkin. Ushbu uslubning rivojlanayotgan va kuchayishi uning chegaralarini kengaytirmoqda va agar ilgari san'at-terapevtik mashqlar asosan vizual san'atga bog'liq bo'lsa, unda terapevtik san'atning "vositalari" juda xilma-xildir. Art texnologiyasi sifatida bunday san'at turlari qo'llaniladi:

- Chizish, rasm chizish.
- Lrak, haykaltarosh.
- To'qish, mandala.
- Sarlavhalar vagon.
- Fotosurat.
- Modellashtirish.
- Tikuv, to'qish, tikish.
- Raqs terapiyasi.
- Qo'shiqchilik (musiqiy terapiya).
- Musiqiy asbob chalish.
- O'yin, pantomime.
- Nasr yoki she'rlar yozish.
- Yarim ertaklarni (Talenteraper) yozish. Maqsadlar Art Cound mutaxassisi psixologik va hissiy holat, o'z-o'zini ifoda etish, qo'rquv, bezovtalik, tushkunlik, tushkunlik, tushkunlik, tushkunlik, hayot ohangi va kayfiyatni ko'tarish. Va bu haqiqatan ham ishlaydi! U qanday ishlaydi Psixologiyada san'at terapevtik mashqlari turli xil holatlarda yordam beradi va ko'plab psixologlar hatto maktablarda umumlashtirish bo'yicha badiiy terapiyani joriy etish, ayniqsa psixologik muammolar mavjud. Texnik kontrendikatsiyaga ega emas, bu oddiy, yoqimli va bu guruh terapiyasi yoki boshqa psixologik usullar bilan sodir bo'ladigan tarzda qarshilik ko'rsatmaydi. Qarshilik shunchaki o'sib bo'lmaydi, chunki ijodkorlik ishlari har doim juda ko'p zavq keltiradi, badiiy terapiya darslari maktabgacha yoshdagi bolalarga va maktab bolalari uchun haqiqiy quvonchdir! San'at terapiyasi shunchaki ishlaydi: agar biz qisqacha gaplashsak, qo'rquv,

kuchlanish yoki boshqa his-tuyg'ularning salbiy energiyaga aylanadi. Birinchidan, odam yaqinroq bo'lgan san'at turini topish kerak, bu uning salbiy his-tuyg'ulari, qo'rquv yoki xijolat tortmaydi. Masalan, bir kishi uyatchan va siqilgan o'yin yoki aktyor o'yinni joriy etmasligi kerak, chizish yoki modellashtirishdan boshlash kerak. O'smirlar uchun agressivlik, aralash texnika mos keladi - rasmlar asablarni tinchlantiradi va havaskor teatrda o'yinni boshqalarga ijobiy munosabatda bo'lishga yordam beradi. Psixolog yo'nalishni tanlashi kerak, ammo bu jarayon va natijalarni tomosha qilib mustaqil ravishda amalga oshirilishi mumkin. San'at terapiyasi uchun asos sifatida ijod turi har doim qabul qilinadi, buning uchun maxsus ko'nikmalar yo'q va har kim mutlaqo yordam bera olmaydi. Birinchi bosqichda eng muhim narsa boshlash. Boshlash, uskunalar va yo'nalishni tanlash, shunchaki bir muncha vaqt dars berishingiz kerak va bu. Agar u chizilgan bo'lsa - siz shunchaki bo'yoqlarni va durangni olishingiz kerak, bu muhim emas - nima va qanday. Odam "o'chiriladi" va rangli chiziqlar, dog'lar, naqshlar, noaniq shakllarni o'ziga xos emas. Ushbu jarayonda bola yoki kattalar dam olishlari, asab tizimi asta-sekin normallashtiriladi. Birinchi bosqichda juda muhim, shunchaki ijodsiz, ba'zi natijaga erishishga urinmasdan, lekin jarayondan zavqlaning. Ko'pincha bu eng qiyin bosqich, chunki bolaligimizdan beri bizda faqat qobiliyatli odamlar ijodkorlik bilan shug'ullanishadi va agar siz qanday qilib qanday tortishishni bilmasangiz - men urinmayman. San'at psixologiyasi bu savolga nazar tashlashga yordam beradi va bu jarayon san'atshunoslarda emas, balki ham muhimdir. Sinflarning yoqimli tomoni ta'siri o'zini o'zi qadrlashning oshishi. Odam o'zini Ustlatlaquni yoki meditatsion deb hisoblashni to'xtatadi, kuchayishsiz, qo'rqmasdan tushunarsiz yoki mahkum bo'lishdan qo'rqishni o'rganadi. Keyingi bosqichda ichki muammolar bilan ishlash boshlanadi. Biror kishi mavhum yoki beton shaklda bezovtalanadigan (qo'rquv, muammo) nima ekanligini (qo'rquv, muammo) tasvirlashga taklif qilinadi. Agar shunday bo'lsa, aytaylik, aytaylik, qum yoki loyni terapiya, rasm, rasm - siz muammoni tasavvur qilish, cheklash yoki qo'rquvni tasavvur qilishingiz, ranglardagi vaziyatni tasvirlashingiz mumkin. Masalan, bu individual emas, balki individual emas, balki - aytaylik, aytaylik, harakatlantiruvchi ko'nikmalar, keyin

muammoni rollarda o'ynashi mumkin. Bu juda muhim bosqichdir, buning uchun siz ehtiyotkorlik bilan kelishingiz kerak. Biror kishi vaziyatni yon tomondan ko'rish va boshida suvsiz bo'lmasligi kerak. Keyin yakuniy bosqich muammoni hal qilishdir. Aytaylik, bolalar ijodiyoti terapiyasi sessiyasi paytida bola qo'rquvni qo'zg'atdi - uning ustiga qichqiradigan katta it, katta o'tkir tishlarni ko'rsatadigan katta it. Endi bola itni "mag'lub etish" ga taklif qilinadi, uni tug'mang. Buni qanday qilish kerak - bola o'zi o'rnidan turadi, lekin u unga yordam berishi mumkin. Siz it pushti qanotlarini bo'yashingiz mumkin va u bilan keling, qichqiriq emas, balki qo'shiq kuylashingiz mumkin. Qo'rquv qarama-qarshi tomonni va qo'rqinchli va kulgili bo'lishiga ishonch hosil qiling. Qo'rquvga qarshi kurashish (yoki boshqa muammoga qarshi kurash agressiv emasligi juda muhim - bola itni uradi yoki biron bir zarar etkazadi, chunki bu yondashuv yordam bermaydi, lekin muammoni yanada kuchaytiradi . Bolalar, kattalar va o'spirinlar guruhlari bilan ishlashdagi bunday bunday usullar juda samarali, ammo har xil vaqtni talab qilishi mumkin. Bitta muammo uchun bir necha saboqlar boshqa yil va undan ko'proq vaqt davomida etarli. Biror kishining psixologiyasi ichki muammo hal qilinishi mumkin, ammo bir muncha vaqt o'tgach, bu usullar har doim odamning iltimosiga binoan qo'llanilishi mumkin. Ayniqsa, jarayon yoqimli, yorug'lik va hech qanday qiyin narsani talab qilmaydi! Bolalar, o'smirlar va kattalar uchun ishlatiladigan san'at terapiyasi shunchaki ijod shaklida bo'lishi mumkin. Rangli qalamlar va bo'yoqlar bilan chizish asabiy stress holati, stress va befarqlik holatini engishga yordam beradi. Teatrda o'yin kabi group texnikalari, raqs, tajovuzkorlik, tajovuz, murakkablik, murakkablik, noaniqlikga qarshi kurash uchun juda mos keladi. San'at terapiyasining har qanday yo'nalishi uchun eng muhim shart - bu badiiy ob'ektning badiiy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy ahamiyatga ega bo'lgan va natijaga e'tibor qaratmaslikdir. Sublimatsiya - bu hayajonli vaziyatni engishga yordam beradigan asosiy mexanizm. Buning sababi shundaki, inson o'z kuchini o'z-o'zini ifoda etishdan qo'rqib yo'naltiradi va terapevtik ta'sir yuzaga keladi. Ijodiy energiya yordamida odam qo'rquv, xavotirni yoki tajovuzni boshqa fazilatlarga aylantiradi, bu muammoning mohiyatiga nisbatan ichki aloqasini

o'zgartiradi va o'zini o'zgartiradi. Bu ongsiz ravishda, chuqur psixologik darajada sodir bo'ladi, ammo ta'siri aniq.

Art-terapiya uslubining chegaralari - Art-terapiya — bu ijodiy jarayon orqali shaxsning ichki dunyosini ochishga, emotsional muammolarini yengillashtirishga qaratilgan psixoterapiya turi. Lekin uning ham chegaralari va qo'llash imkoniyatlari mavjud.

Art-terapiyaning chegaralari - Diagnostik chegaralar - Art-terapiya mustaqil diagnostika vositasi bo'la olmaydi. U boshqa psixodiagnostik metodlar bilan birgalikda qo'llanadi.

Klinik chegaralar - Og'ir psixiatrik kasalliklarda (psixoz, shizofreniya) faqat qo'shimcha usul sifatida ishlatiladi. Asosiy davolash o'rnini bosa olmaydi.

Amaliy chegaralar - Har bir bola yoki kattada ijodiy qobiliyat turlicha rivojlangan bo'lgani uchun, natija ham individual bo'ladi. Terapevtning professional tayyorgarligi va to'g'ri metod tanlashi juda muhim.

Etik chegaralar - Insonning shaxsiy tajribalarini ochishda majburlash mumkin emas. Terapevt ijodiy mahsulotlarni faqat maslahat va davolash maqsadida tahlil qilishi kerak.

Vaqt va makon chegaralari - Bir martalik mashg'ulotlar ko'proq yengillik beradi, lekin samarali psixokorreksiya uchun muntazamlilik zarur. O'yin va ijodiy jarayon uchun qulay, xavfsiz muhit bo'lishi shart. Art-terapiya stressni kamaytirish, emotsional muvozanatni tiklash, ijodkorlikni rivojlantirish uchun samarali bo'lsa-da, murakkab klinik kasalliklarda mustaqil davo bo'la olmaydi. U boshqa psixologik va tibbiy usullar bilan qo'shib qo'llanganda eng yaxshi natija beradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Art-terapiya qanday hollarda samarali psixokorreksiya vositasi sifatida qo'llaniladi?
2. Art-terapiya uslubining chegaralari nimada namoyon bo'ladi?
3. Qanday holatlarda art-terapiya yetarli bo'lmaydi va boshqa yondashuvlar talab etiladi?
4. Art-terapiya chuqur psixologik travmalarni bartaraf eta oladimi?

5. Terapevtning malakasi art-terapiyaning samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Art-terapiya har qanday yosh toifasidagi shaxslarga bir xil darajada mos keladimi?
7. Mijoz (yoki bola) art-terapiyani rad etsa, qanday alternativ usullar qo'llanishi mumkin?
8. Art-terapiya usullarining noto'g'ri qo'llanilishi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
9. Art-terapiyaning chegaralarini aniqlashda qanday etik me'yorlar hisobga olinadi?
10. Art-terapiyani boshqa psixoterapevtik usullar (masalan, kognitiv terapiya, logoterapiya) bilan integratsiyalash qanday natija beradi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son" Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025
4. Yo'ldosheva M. Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.
6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.
7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.
8. Xalilova N. Art-terapiya: amaliy psixologiyada qo'llanilishi, maqola, O'zbekiston Psixologiya jurnali, 2022.

Mavzu: Art – terapiya texnikasining diagnostik salohiyati

Reja:

1. Diagnostikada art-terapiya afzalliklari va cheklovlari
2. Yosh xususiyatlari va art-terapiya
3. Tahlil va interpretatsiya usullari

Tayanch tushunchalar: Art-terapiya, san'at, qobiliyat, izoterapiya, dementia, rivojlanish.

Art terapiya (inglizcha: art-“san'at”–terapiya davolash) san'at va ijodkorlikdan foydalanishga asoslangan psixoterapiya va psixologik korreksiyaning yo'nalishlaridan biri. So'zning tor ma'nosida art-terapiya odatda mijozning psixo-emotsional holatiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan vizual art terapiyani anglatadi. Britaniyalik rassom Adrian Xill 1942 yilda “art terapiya” atamasini kiritgan. Sanatoriyda sil kasalligidan tuzalgan Xill tuzalish davrida rasm chizish va chizishning terapevtik afzalliklarini aniqladi. Uning yozishicha, artterapiyaning ahamiyati “ongni (shuningdek, barmoqlarni) to'liq jalb qilishda tez-tez inhibe qilingan bemorning ijodiy energiyasini bo'shatishda”, bu esa bemorga “o'z baxtsizliklariga qarshi kuchli himoyani yaratishga” imkon berdi. U bemor hamkasblariga badiiy ish taklif qildi. Bu uning art-terapiya ishini boshladi, bu 1945 yilda o'zining “Art kasallikka qarshi” kitobida yozib o'tilgan. Ikkinchi Jahon Urushidan keyin demobilizatsiya qilingan rassom Edvard Adamson, Xillning ishini Britaniyadagi uzoq muddatli ruhiy kasalxonalarga kengaytirish uchun Adrian Xillga qo'shildi. Adamson art-terapiyani qo'llash usullaridan biri bemorlarning his tuyg'ularini ular yaratgan san'atda tasvirlash edi. Ruhiy kasallik ongga qanday ta'sir qilishini chuqurroq tushunish uchun Adamsonning kolleksiyasi bemorlar o'zlarini san'at orqali qulay his qiladigan muhit yaratish usuli sifatida boshlandi. Keyinchalik bu san'at ruhiy salomatlik mutaxassislari tomonidan tahlil qilinadi. Britaniyada art terapiyaning boshqa dastlabki tarafdorlari orasida E. M. Liddiatt, Maykl Edwards, Diana Rafael-Xalliday va Rita Simons bor. Britaniya Art-Terapevtlar Assotsiatsiyasi

1964 yilda tashkil etiladi. Art-terapiyaning asosiy maqsadi o'zini namoyon qilish va o'zini o'zi bilish qobiliyatini rivojlantirish orqali ruhiy holatni uyg'unlashtirishdir. San'atdan terapevtik maqsadlarda foydalanishning ahamiyati shundaki, u turli xil his tuyg'ularni, sevgi, nafrat, xafagarchilik, g'azab, qo'rquv, quvonch va boshqalarni ramziy ravishda ifodalash va o'rganish uchun ishlatilishi mumkin. Artterapiya texnikasi insonning ichki meni mazmuni u chizgan rasm yoki haykaltaroshlik qilganda vizual tasvirlarida aks etadi, degan xulosaga asoslangan. 1969-yilda Amerikada Art terapiya uyishmasi tashkil etiladi. Art-terapiya milliy professional uyushmalari Braziliya, Kanada, Finlyandiya, Livan, Isroil, Yaponiya, Niderlandiya, Ruminiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya va Misr kabi ko'plab mamlakatlarda mavjud. Bu uyishmada mutaxassislar bemorlarning o'z idrokiga ishonishlariga va ijod maxsullarini mustaqil ravishda, shuningdek, guruh bilan birgalikda o'rganishlariga yordam beradi. Terapevtik maqsadlar birinchi o'rinda turadi, ijodiy maqsadlar ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi hamda psixoterapiyaning asosiy usullariga qo'shimcha sifatida qabul qilinadi. Art terapiya usullaridan biri transfer deb ataladi – bemor asta-sekin vizualizatsiya orqali ichki dunyosini bilishga o'tadi. Mashqlarning ba'zilar guruhda birgalikda ishlashni o'z ichiga olib, mutaxassis amalga oshirishga ko'maklashadi. Art terapiyaning maqsadlariga kelsak, ular juda xilma-xildir: o'zini bilish, o'z-o'zini ifodalash, shaxsning ichki integratsiyasi, tashqi haqiqat bilan integratsiya, shaxsiy tajribani kengaytirish. Spontan modellashtirish yoki rasm chizish art terapiyaning asosiy vositalari bo'lib, ular muzey ishlarida ham qo'llaniladi. Tasviriy ijod - fantaziya va voqelikning ta'minlovchi eng yaxshi vosita bo'lib, kattalar yoki bolalarda bunga san'at yordamisiz erishishi qiyin. Psixoterapiyaning bu sohasidagi ikkinchi muhim tushuncha sublimatsiyadir. O'ngsiz instinktlar va tushunchalarni san'at orqali ifodalashdan iborat:

- art terapiya turli his-tuyg'u va hissiyotlarni, asosan, ijtimoiy jihatdan maqbul tarzda ifodalash imkoniyatini beradi. Rangtasvir yoki modellashtirish - bu maqsad uchun eng xavfsiz va mos variantlardir;
- art terapiya davolash jarayonini tezlashtirish uchun qo'shimcha vosita sifatida ishlatiladi. Ichki his -tuyg'ular fikrlarini og'zaki psixoterapiya paytida suhbatga

qaraganda vizual tasvirlar orqali osonroq ifodalanadi. Noverbal shakllar barcha cheklovlarni va ongli senzurani olib tashlaydi;

- art terapiyada davolash jarayonida terpretatsiya va diagnostik ishlar uchun asos yaratiladi. Ish mazmuni va uslubi terapevtga bemor haqida ko'p ma'lumot olish imkonini beradi, bundan tashqari, bemor o'z ishini talqin qilish paytida ichki nizolar haqida gapirishi mumkin. Art terapiya yo'qotish, travma, qo'rquv va boshqalar kabi hayotdagi baxtsiz hodisalar bilan ifodalangan his-tuyg'ular va fikrlar bilan ishlash imkonini beradi. Ba'zan noverbal vositalar kuchli histuyg'ular va e'tiqodlarni ochib beradigan hamda aniqlashtiradigan yagona samaralidir usuldir Art terapiya his-tuyg'ularni, zehnlilikni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiladi;

- o'z-o'zini nazora qilish va ichki tartib hissini targ'ib qiladi va iste'dod va qobiliyatini oshkor qilishga vordam beradi. Bundan tashqari, art terapiyada quyidagi psixoterapevtik ta'sir omillari ta'kidlangan:

- badiiy ifoda omili - mijozning o'z asandagi his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va fikrlarni mujassamlashtirish, turli badiiy materiallar hamda badiiy tasvir bilan o'zaro aloqa qilish tajribasi;

- psixoterapiya munosabatlari omili - mijoz-terapevt-guruh munosabatlar dinamikasi (o'tkazuvchanlik va kontrtransferensiya), proyeksiya, shaxsiy tajriba tasiri talqin va og'zaki fikr-mulohazalar omili - materialni (ijod jarayoni va natijasi) hissiy darajadan anglash darajasiga, ma'nolarni shakllantirish darajasiga o'zgartirish, tarjima qilish. Art-terapiyaning uchta asosiy usuli mavjud. Birinchisi analitik art terapiya deb ataladi. Analitik art-terapiya analitik psixologiyadan va ko'proq hollarda psixoanalizdan kelib chiqadigan nazariyalarga asoslanadi. Analitik artterapiya mijoz, terapevt va san'at orqali ikkalasi o'rtasida uzatiladigan g'oyalarga qaratilgan. Art-terapiyadan foydalanishning yana bir usuli - bu badiiy psixoterapiya. Bu yondashuv ko'proq psixoterapevtlarga va ularning o'z mijozlarining san'at asarlarini og'zaki tahlil qilishlariga qaratilgan. Art-terapiyaga qarashning oxirgi usuli - bu terapiya sifatida san'at ob'ektivi. Terapiya sifatida san'at bilan shug'ullanadigan ba'zi art-terapevtlar mijozning san'at asarini og'zaki tahlil qilish muhim emas deb hisoblashadi, shuning uchun ular o'rniga san'atni yaratish

jarayoniga urg'u berishadi. Art-terapiyaga barcha yondashuvlarda art-terapevt mijozi his-tuyg'ularini tushunish va ifodalash uchun bo'yoq, qog'oz va qalam, loy, qum, mato yoki boshqa vositalardan foydalanadi. Art-terapiya odamlarga kognitiv va sensorli vosita funksiyasini, o'zo'zini hurmat qilish, o'zini o'zi anglash va hissiy barqarorlikni yaxshilashga yordam berish uchun ishlatilishi mumkin. Shuningdek, u nizolarni hal qilishda yordam berishi va qayg'uni kamaytirishi mumkin. Hozirgi art-terapiya ko'plab boshqa yondashuvlarni o'z ichiga oladi, masalan, shaxsga yo'naltirilgan, kognitiv, xulqatvor, gestalt, hikoya, Adlerian va oila. Art-terapiya tamoyillari insonparvarlik, ijodkorlik, hissiy ziddiyatlarni yarashtirish, o'z-o'zini anglashni rivojlantirish va shaxsiy o'sishni o'z ichiga oladi. Ruhiy salomatlikni davolash tarixida art terapiya (psixologiya va san'atni o'rganishni birlashtiradigan) hali ham nisbatan yangi sohadir. Ushbu turdagi noan'anaviy terapiya o'z-o'zini hurmat qilish va ongni rivojlantirish, kognitiv va vosita qobiliyatlarini yaxshilash, mojarolar yoki stresslarni hal qilish va bemorlarda chidamlilikni ilhomlantirish uchun ishlatiladi. U og'zaki psixoterapiya erisha olmaydigan muammolarni hal qilish uchun hissiy, kinestetik, pertseptiv va hissiy simvolizatsiyani taklif qiladi. Art-terapiya nisbatan yosh terapevtik intizom bo'lsada, uning ildizlari 18-asr oxirida psixiatrik bemorlarni "axloqiy davolashda" san'atdan foydalanishgan Art-terapiya kasb sifatida 20-asrning o'rtalarida ingliz tilida so'zlashadigan va Evropa mamlakatlarida mustaqil ravishda paydo bo'lgan. O'sha paytda san'at turli sabablarga ko'ra ishlatilgan: muloqot qilish, bolalarda ijodkorlikni rag'batlantirish va diniy kontekstlarda. O'z ishlari haqida hisobotlarni nashr etgan dastlabki art-terapevtlar estetika, psixiatriya, psixoanaliz, reabilitatsiya, erta bolalik ta'limi va badiiy ta'limning turli darajada ularning amaliyotiga ta'sirini tan oldilar. Art-terapiya kashshoflari Margaret Naumburg va Edit Kramer Xill bilan bir vaqtda mashq qila boshladilar. Pedagog Naumburgning ta'kidlashicha, "art-terapiya psixoanalitik yo'naltirilgan" va erkin badiiy ifoda "ramzli nutq shakliga aylanadi, bu terapiya jarayonida verbalizatsiyaning kuchayishiga olib keladi. Edit Kramer, rassom ijodiy jarayon, psixologik himoya va badiiy sifatning muhimligini ta'kidlab, sublimatsiyaga g'azab, tashvish yoki og'riqni o'z ichiga olgan shakllar

muvaffaqiyatli yaratilganda erishiladi” deb yozgan edi. Qo’shma Shtatlardagi terapiya Elinor Ulman, Robert "Bob" Ault va Judit Rubinni o’z ichiga oladi. Art-terapiyani bemor insonlar qo’llaganda tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, shifoxona xonasida faqat manzara suratini ko’rish narkotik og’riq qoldiruvchi vositalarga bo’lgan ehtiyojni va kasalxonada tiklanish vaqtini kamaytirgan. Bundan tashqari, shifoxonalarda san’atni ko’rish yoki yaratish hayotiy belgilarni barqarorlashtirishga, shifo jarayonini tezlashtirishga va bemorlarda optimizmni oshirishga yordam berdi. Saraton bilan og’rigan bemorlarga artterapiyaning afzalliklari haqida ko’plab tadqiqotlar o’tkazildi. Art-terapiya jarrohlik, radiatsiya va kimyoterapiya bilan og’rigan bemorlarni qo’llab-quvvatlash uchun foydali deb topildi. Qo’rquv, og’riq va ijtimoiy munosabatlarning o’zgarishi kabi saraton bilan bog’liq qiyinchiliklarga duch kelgan ayollar ishtirokidagi tadqiqotda quyidagilar aniqlandi, Tasviriy san’atning turli turlari bilan shug’ullanish (to’qimachilik, kartochkalar, kollaj, kulolchilik, akvarel, akril) bu ayollarga 4 ta asosiy yo’nalishda yordam berdi.

Birinchidan, bu ularga ijobiy hayotiy tajribalarga e’tibor qaratishga yordam berdi, ularning saraton kasalligi bilan doimiy mashg’ulligini engillashtirdi.

Ikkinchidan, bu ularga davomiylik, qiyinchilik va yutuqlarni namoyish qilish imkoniyatini berish orqali ularning o’ziga xosligi va o’ziga xosligini oshirdi.

Uchinchidan, bu ularga saraton kasalligiga qarshi bo’lgan ijtimoiy o’ziga xoslikni saqlab qolishga imkon berdi. Nihoyat, bu ularga o’z histuyg’ularini ramziy tarzda ifodalash imkonini berdi, ayniqsa kimyoterapiya paytida. Boshqa bir tadqiqot shuni ko’rsatdiki, ushbu turdagi tadbirlarda qatnashganlar qatnashmaganlarga qaraganda ertaroq shifo topgan. Hatto nisbatan qisqa muddatli art-terapiya aralashuvlari ham bemorlarning emotsional holati va alomatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ruhiy yoki jismoniy kasalliklari bo’lmagan sog’lom shaxslar ham art terapiya bilan davolanadi bu bemorlarda ko’pincha yuqori intensiv ishlar moliyaviy cheklovlar va boshqa shikast bo’lmagan shaxsiy muammolar kabi doimiy muammolar mavjud. Topilmalar shuni ko’rsatdiki, art terapiya bemorlarning kasblari bilan bog’liq stress va charchash darajasini pasaytiradi. Art terapevtlar o’z mijozlarining ehtiyojlariga mos keladigan materiallar va aralashuvlarni tanlaydilar va terapevtik maqsadlarga

erishish uchun seanslarni loyihalashtiradilar. Ular o'z mijozlariga tushunchani oshirish, stressni yengish, travmatik tajribalar orqali ishlash, kognitiv, xotira va neyrosensor qobiliyatlarini oshirish, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va o'zini ko'proq bajarishga erishish uchun ijodiy jarayondan foydalanishi mumkin. Art-terapevtning mijozlar bilan qilishni tanlagan faoliyati ularning ruhiy holati yoki yoshi kabi turli omillarga bog'liq. Art-terapevtlar bemorlar bilan ishlashda tarixiy san'at va ramzlarni qo'shish uchun Arxetipal ramzlarni tadqiq qilish arxivi kabi manbalardan rasmlardan foydalanishlari mumkin. Bolalar tomonidan qo'llaniladigan art-terapiya usuli tasvirlangan rasm. Art-terapiya turli xil sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin. Art-terapevtlar muassasa yoki mijozning ehtiyojlariga qarab art-terapiya maqsadlarini va ular art-terapiyani taqdim etish usullarini o'zgartirishi mumkin. Mijozning kuchli tomonlari va ehtiyojlarini baholashdan so'ng, art-terapiya individual yoki guruh formatida taklif qilinishi mumkin, unga ko'ra shaxsga ko'proq mos keladi. Art-terapevt doktor Ellen G. Xorovitz shunday deb yozgan edi: "Mening mas'uliyatlarim ishdan farq qiladi. Agar xususiy amaliyotdan farqli o'laroq, maslahatchi yoki agentlikda ishlagan bo'lsa, bu butunlay boshqacha bo'ladi. Xususiy amaliyotda bu yanada murakkab va keng qamrovli bo'ladi. Agar siz asosiy terapevt bo'lsangiz, u holda sizning mas'uliyatingiz shifokorlar, sudyalalar, oilalar a'zolari va ba'zan parvarishlashda muhim bo'lishi mumkin bo'lgan birlamchi tibbiy yordamni o'z ichiga oladi. shaxsning San'at terapevtlari va boshqa mutaxassislar hissiy, kognitiv va rivojlanish sharoitlarini baholash uchun san'atga asoslangan baholashdan foydalanadilar. Psixologik maqsadlar uchun birinchi chizma baholash 1906 yilda nemis psixiatri Fritz Mohr tomonidan yaratilgan. 1926-yilda tadqiqotchi Florens Gudenof bolalarning aql-zakovatini o'lchash uchun chizmachilik testini yaratdi, unda chizilgan rasimga ko'proq tafsilotlarni kiritgan bola qilmagan boladan ko'ra aqlliyoq bo'ladi, degan fikrni ilgari surdi. tadqiqotchilar, test aql bilan bog'liq bo'lgani kabi, shaxsiyat bilan ham bog'liq degan xulosaga kelishdi. 1940-yillarda yana bir qancha psixiatrik san'at baholari yaratilgan va hozir ham qo'llanilmoqda. Biroq, ko'plab san'at terapevtlari diagnostik testlardan qochishadi va ba'zi yozuvchilar terapevtlarning sharhlovchi taxminlarini asoslilikiga shubha

qilishadi. Quyida mashhur art-terapiya baholashlarining ba'zi misollari keltirilgan

Amaliy san'at turlari bo'yicha art terapiya metodlari: Plastik materiallar g'azab, tajovuz, qo'rquv, tashvish, izolyatsiya san'at yordamida davolash samarali vositasi hisoblanadi Individual ijodiy ish subyektning shaxsiy o'zligi va mustaqilligini saqlab qolish ehtiyojlarini qondiradi. Bu san'at davolash texnikasi barcha yosh guruhlari bilan ishlash uchun javob beradi. N. Matveyevaning ta'kidlashicha, plastilin va loy nafaqat ijodiy ifoda vositasi, balki mukammal psixoterapevtik vositadir. Plastilinning afzalliklari aniq: yaratilgan tasvirni qayta-qayta tuzatishingiz mumkin. Biroq plastilinning kamchiliklari aniq plastiklikda yotadi: tasvir muallifning istaklariga qarshi y'o'q qilinishi mumkin. Muzlatilgan gil tarkibi uzoq vaqt davomida o'z shaklini saqlab qoladi. Bundan tashqari, loy shakl bo'yalgan bo'lishi mumkin. Plastik materiallar bilan ishlash g'azab va tajovuzga javob berishni osonlashtiradi va shuning uchun haqiqiy hayotda zo'ravonlik harakatlari ehtimolini kamaytiradi. Plastilin yuzasida bo'ladigan shikastli vaziyatlarni boshdan kechirgan bolalar bilan ishlashda, ularning aqliy sezgirligini tiklash maqsadida qo'llaniladi. O'z his-tuyg'ularini shu tarzda ifoda etib, bola asta-sekin qo'rquvdan ozod bo'ladi va tajriba ruhiy travmaga aylanmaydi. Umuman, art terapiya faoliyati turli tasavvurni rivojlantirish oddiy ularni modellashtirish orqali narsalar dunyoni harakat qilish uchun yordam, ichki rejasida harakat qilish ishtirokchilarining qobiliyatini shakllantirish, motor ko'nikmalarini rivojlantirish, faoliyatni tartibga solish shakllanishiga hissa qo'shadi. Tasviriy faoliyat bilan birgalikda plastilin va gil bilan ishlash ta'limga oid, davolash, korreksiyaning ko'ngilochar, ijodiy jarayonga aylantirishga yordam beradi. So'z va ramzlar, jonli taassurotlar va o'z-o'zini tartibga solishning tabiiy mexanizmlarini boshlashi mumkin real his-tuyg'ularini jonlantiradi. Bezovtalik hissi (hissiy komponent), albatta, tashvish (motor komponent), shuningdek, bolaning fikrlari (ruhiy komponent) avval tabiatidagi o'zgarishlariga sabab bo'ladi. Shuning uchun ijobiy tasvirni chizish, xayol, yuz ifodalari, imo-ishoralar, harakatlar, o'zingiz va boshqalarga munosabat aks etadi zavq hissini sezishingiz mumkin. Bu potensial ijobiy mavzular bilan davolash maqsadlari uchun. ayniqsa, foydalidir. «Men yaxshi emasman»; «Mening eng

yoqimli (yorqin, mehribon, baxtli) bolalik taassurotlarim»; «Quvonch». Art terapiya metodlarining samaradorligi ko'p jihatdan ishtirokchilarning o'zlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalari, ulaming mashg'ulotlarga qatnay olish istagi, shuningdek, ishtirokchilarning samimiyligi va ochiqligi darajasi, shaxslararo munosabatlardagi ijobiy o'zgarishlar va boshqa belgilardan dalolat beradi. Umuman olganda, taqdim etilgan mashqlar juda ko'p qirralidir. Ular real hayotda inson xulq-atvori modelini aks ettiruvchi ko'zguga o'xshaydi.

RANGTASVIR BO'YICHA ART TERAPIYA METODLARI: Izoterapiya - art-terapiyaning eng mashxur va samarali usullaridan biridir. Bunda tasviriy san'atdan turli darajadagi ruhiy kasalliklarni davolash yoki shunchaki pedagogik maqsadlar uchun foydalaniladi. Izoterapiyada ko'pincha rasm chiziladi, lekin loydan turli shakllar yasash, loto suratga olish, narsalarga bezak berish ham unga tegishli. Ushbu uslub bolalar bilan ishlashda keng tarqalgan bo'lib, kattalar uchun ham samaralidir. Mashg'ulotlar ham individual, ham guruhli bo'lishi mumkin. Usui psixorreksiya, psixiatriya, terapiya, tibbiy psixologiya va ijtimoiy psixologiya amaliyotida keng qo'llaniladi. Izoterapiya - bu art terapiyaning eng keng tarqalgan va qo'llaniladigan turlaridan biridir. Tasviriy san'at yordamida davolash va turli xil muammolarni hal qilish juda mashxur hamda ko'pchilik uchun qulaydir. Inson (mijoz) o'zini, o'z fikrlarini, tajribalarini, hissiyotlari va hissiy tuyg'ularini - uning ichki dunyosida yashiringan barcha narsalarni - qog'oz yoki chiziqlar, shakllar va ranglar yordamida ifoda etishi mumkin. Chizish uchun turli xil materiallar qollam ladi: (guash, akvarel, akril va boshqalar). Izoterapiya - bu odamga salbiy hissiy tuyg'ularni yengishga yordam beradigan samarali usuldir. Uning samaradorligiga qaramay, izoterapiya alohida davolash usuli va psixologik yordam sifatida yarim asr oldin paydo bolgan. Izoterapiyaga bo'lgan talab shuni anglatadiki, bunday chizish jarayoni stressni yengillashtirish, tinchlanish va o'z faoliyatidan qoniqish his qilish imkoniyatini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun rasm chizish - bu o'zlarining yangi tajribalarini aks ettirish va tushunish uchun o'zlarini ifoda etish bilan tanishish usuli hisoblanadi. Bola bilan ishlashda izoterapiya bola va uning ichki dunyosi haqida juda ko'p ma'lumot beradi. u nimani o'ylaydi, nimani Ins

qiladi, nimadan qo'rqadi, kimni va nimani sevadi va hokazo. Bolalar o'zlarining rasmlari orqali boshqalar bilan solzma-so'z «suhbatlashadilar». Psixolog va kattalar bolani tezroq va osonroq tushinishlari va izoterapiya bilimlaridan foydalanib unga yordam berishlari mumkin. His-tuyg'ularingizni o'zingiz va boshqalar uchun xavfsiz tarzda ifoda eting. Izoterapiya psixologik tanglik, tajovuzkorlik, asabiylashish, muvozanatsizlik, hasad, qo'rquv va hokazolardan xalos bo'lishingiz kerak bo'lgan hollarda samarali bo'ladi. O'ziga past baho berish. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, odamlarning 70 % dan ko'proqi o'zini past baholash va o'ziga ishonmaslikdan aziyat chekmoqda Amaliy izoterapiya mashqlari orqali har kim o'z qadr-qimmatini sezilarli darajada oshirishi va o'ziga ishonishi mumkin. Bundan mshqari quyidagi muammolari bilan ishlashi mumkin. Xatti-harakatlar bilan muammolar, Munosabatlar muammolari yoki oilaviy muammolar, Surunkali stress va psixosomatik kasalliklar. Bundan tashqari izoterapiya mashg'ulotlari ijodiy salohiyatni ochib berishga yordam beradi va insonda yangi resurslar va imkoniyatlarni ochadi. Izoterapiya darslari ham individual konsultatsiyalarda, ham guruh mashg'ulotlarida, seminarlarda o'tkaziladi. Mijozning talabiga (yoki mashg'ulot mavzusiga) qarab, psixolog izoterapiya sohasidagi maxsus mashqlar va topshiriqlarni beradi. Barcha vazifalar bajarilgandan so'ng, ikkinchi muhim bosqichga - ong osti tortib olishga muvaffaq bo'lgan material va ma'lumotlarni tahlil qilish va tushunishga o'tadilar. Ushbu bosqichda mijozlar ko'pincha o'zlarining shaxsiy tushunchalarini izohlaydilar. Ushbu bosqichda mijozlar o'zlarining shaxsiy tushunchalariga ega bo'lib o'z muammolarini tushunib boshlashadi, bu esa ularga eng katta yordam qo'lini cho'zadi. Psixolog yordamida mijoz o'z muammolarini hal qilish yo'llarini ko'rishni va tushunishni boshlaydi, ba'zan esa rasmlarni yaratish jarayonida o'z muammolarini osonlik bilan hal qilishi ham mumkin. Izoterapiya mashg'ulotlaridan so'ng mijozlar o'zlarining chizilgan rasmlarini saqlashlari kerak bo'ladi. Izoterapiya bo'yicha bitta mashg'ulot yoki maslahat ham yangi ijobiy tajriba berishi va bilmagan odamga nimanidir ochib berishi mumkin. Izoterapiyaning boshqa psixoterapiya ishlaridan afzalliklari: deyarli har bir kishi (yoshidan qat'iy nazar) izoterapevtik ishda ishtirok etishi mumkin, bu undan hech qanday vizual yoki

badiiy mahorat talab qilmaydi. Izoterapiya bu asosan og'zaki bo'lmagan aloqa vositasidir. Bu, aymqsa, nutqi yaxshi bo'lmaganlar, o'z tajribalarini og'zaki tasvirlash qiyin boiganlar uchun juda qimmatlidir. Vizual faoliyat odamlarni yaqinlashtirishning kuchli vositasidir. Aloqalarni o'rnatish qiyin bo'lgan, o'zaro begonalashgan vaziyatlarda juda inuhimdir. Tasviriy san'at mahsulotlari insonning kayfiyati va fikrlarining obyektiv dalilidir, bu ularning holatini baholash, tegishli tadqiqotlar o'kazish uchun foydalanishga imkon beradi. Izoterapiya - bu o'zirn erkin ifoda etish vositasidir, insonning ichki dunyosiga ishonch, bag'rikenglik va e'tibor muhiti nazarda tutiladi. Izoterapiya ishlari ko'p hoilarda odamlarda ijobiy histuyg^ularrh uyg'otadi, befarqlik va tashabbus yetishmovchiligini yengishga, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Izoterapiya mashg'ulotlari quyidagi muhim pedagogik muammolarni hal qilishga imkon beradi. Ta'limiy Tuzatish Psixoterapevtik Diagnostik o'zaro munosabatlar bolalar to'g'ri muloqot, hamdardlik va lengdoshlari va kattalar bilan hurmatli munosabatlarni o'rganadigan tarzda quriladi. Bu shaxsning axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'qituvchi bilan ochiq, ishonchli, xayrixoh munosabatlar rivojlanadi. Ilgari deformatsiyaga uchragan bo'lishi mumkin boigan «men» imidji muvaffaqiyatli tuzatiladi, o'zini o'zi qadrlash yaxshilanadi, xattiliarakatlarnmg yetarli boMmagan shakllari yo'qoladi va boshqa odamlar bilan o'zaro aloqa usullari o'rnatiladi. Shaxsiyatning emotsional-irodaviy sohasini rivojlantirishda ba'zi oqishlar bilan ishlashda yaxshi natijalarga erishiladi. Sog'aytiruvchi effekt ijodiy faoliyat jarayonida hissiy iliqlik va xayrixohlik muhiti yaratilishi tufayli erishiladi. Psixologik qulavlik, xavfsizlik, quvonch, muvaffaqiyat hissi vujudga keladi. Nalijada hissiyotlarning davolovchi salohiyati safarbar qilinadi. Art terapiya bolaning rivojlanishi va individual xususiyatlari haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Bu uni mustaqil faoliyatda kuzatish, uning qiziqishlari va qadriyatlarini yaxshiroq bilish, ichki dunyosini ko'rish, shuningdek, maxsus tuzatishga to'g'ri keladigan muammolarm aniqlashning to'g'ri usuli. Sinflar davomida shaxslararo munosabatlarning tabiati va jamoadagi har binning haqiqiy mavqei, shuningdek, oilaviv vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari osongina namoyon bo'ladi. Izoterapiya

ko'p tomonlama diagnostika qobiliyatiga ega, uni proeksion testlar deb tasniflash mumkin. Izoterapiya 3 ta fan - psixologiya, psixiatriya va san'atshunoslikni o'z ichiga oladi. 1872-yilda ruhiy kasallarning ahvoli yomonlashganda ularda ushbu usulni qo'llashni boshlashdi. Ammo ahvollari barqarorlashishi bilan, bemorlar darhol bo'yashni to'xtatdilar. Psixiatr M. Simon va shifokor A. Arde usul asoschilari hisoblanadi. Xulosa: xulosa o'rnida shuni takidlash mumkinki art terapiyani bemor insonlarda va yosh bolalarda ham qo'llash ruhiy stressni kamaytiradi, o'ziga ishonch ortadi. Art-terapiya uyat va g'azab kabi travmadan kelib chiqqan his-tuyg'ularni yengillashtiradi. Shuningdek, bolalarni san'at asarlarida tanlov qilishga undash orqali travmadan omon qolganlarning imkoniyatlarini kengaytirish va nazorat qilish hissi oshirishi mumkin. Bu ularga o'z his-tuyg'ularini ramziy tarzda ifodalash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, art terapiya tadbirlarda qatnashganlar qatnashmaganlarga qaraganda ertaroq shifo topgan. Hatto nisbatan qisqa muddatli art-terapiya aralashuvlari ham bemorlarning emotsional holati va alomatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Qo'rquv, og'riq va ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi kabi saraton bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan ayollar ishtirokidagi tadqiqotda quyidagilar aniqlandi, Tasviriylar san'atning turli turlari bilan shug'ullanish (to'qimachilik, kartochkalar, kollaj, kulolchilik, akvarel, akril) bu ayollarga 4 ta asosiy yo'nalishda yordam berdi

Savol va topshiriqlar:

1. Art-terapiya nima va uning asosiy turlari qanday?
2. Art-terapiya texnikalari diagnostik jarayonda qanday qo'llaniladi?
3. Art-terapiya vositasida psixologik muammolarni aniqlash imkoniyatlari qanday?
4. Rassomlik, kollaj, loy (plastilin), ranglar bilan ishlash texnikalari qanday psixologik holatlarni ko'rsatadi?
5. Art-terapiya diagnostikasida yosh xususiyatlari (bolalar, o'smirlar, kattalar) qanday rol o'ynaydi?
6. Qanday mezonlar asosida art-terapiya ishlari tahlil qilinadi?

7. Art-terapiyaning diagnostik salohiyatini oshirish uchun qanday yondashuvlar samarali hisoblanadi?

8. Art-terapiya texnikalarining turlari va ularning umumiy tavsifi**

9. Art-terapiya texnikalarining diagnostik funksiyasi**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son”Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.

3. O‘zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug‘i. – T., 2025

4. Yo‘ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.

5. Saidov M,To‘ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.

7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.

8. Xalilova N. Art-terapiya: amaliy psixologiyada qo‘llanilishi, maqola, O‘zbekiston Psixologiya jurnali, 2022.

Seminar

mashg'ulotlar



1-Mavzu: Art-terapiyaning fan sifatida rivojlanishi

Reja:

1. Art-terapiyaning paydo bo'lishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari.
2. Art-terapiyaning asosiy yo'nalishlari va metodlari.
3. Art-terapiyaning zamonaviy jamiyatda qo'llanilishi.

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarda art-terapiyaning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, asosiy metodlari va bugungi kundagi ahamiyati haqida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Seminar mashg'ulot metodlari: Aqliy hujum, Klaster, Grafik organayzer, "Kichik guruhlarda ishlash" metodi

Vositalar: Darslik, ilmiy maqolalar, elektron doska, rangli markerlar, slaydlar, tarqatma materiallar.

Seminar mashg'uloti ssenariysi

1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)

O'qituvchi mashg'ulot maqsadi va vazifalarini tushuntiradi.

Savol: "San'at vositalari ruhiy holatga qanday ta'sir qiladi?"

2-bosqich. Guruhlarga bo'lish (5 daqiqa)

Talabalar 3–4 kishidan kichik guruhlarga ajratiladi.

3-bosqich. Guruhlarga topshiriqlar (20 daqiqa)

1-guruh: Art-terapiyaning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlarini izohlang (Freyd, Yung, Adrian Hill, XX asrdagi rivojlanish).

2-guruh: Art-terapiya metodlari: rasm terapiyasi, musiqa terapiyasi, raqs-harakat terapiyasi, drama-terapiya, qum terapiyasi va boshqalar.

3-guruh: Art-terapiyaning zamonaviy qo'llanish sohalari (psixologiya, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy soha, korporativ treninglar).

4-guruh (agar bo'lsa): Art-terapiya fan sifatida O'zbekistonda qo'llanilishi va istiqbollari.

4-bosqich. Guruh taqdimotlari (15 daqiqa)

Har bir guruh o'z ishlanmasini 3-4 daqiqa davomida taqdim qiladi.

5-bosqich. Muhokama va tahlil (10 daqiqa)

Guruhlararo savol-javob, umumiy xulosalar chiqariladi

6-bosqich. Baholash (5 daqiqa)

Baholash mezonlari:

Mavzuga moslik

Taqdimot sifati

Guruh ichidagi hamkorlik

Yaratijilik darajasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalliklari

1. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi.
2. Hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. Vaqtdan samarali foydalanish imkonini beradi.
4. O'zaro o'rganish va tajriba almashishga yordam beradi.

Kamchiliklari:

Kuchsiz talabalar guruh natijasini pasaytirishi mumkin.

Barcha guruhlarini nazorat qilish qiyinlashadi.

Guruh ichida raqobat yoki nizo bo'lishi mumkin.

Xulosa

Art-terapiya XX asr boshlaridan psixologiya va tibbiyotning muhim sohasi sifatida shakllangan bo'lib, bugungi kunda u nafaqat ruhiy kasalliklarni davolashda, balki ta'lim, tarbiya, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy sohada ham keng qo'llanmoqda.

1. “Art-terapiya” atamasini birinchi bo'lib kim qo'llagan?

- A) Sigmund Freyd
- B) Karl Gustav Yung
- C) Adrian Hill
- D) Maslou

2. Art-terapiyaning asosiy maqsadi nimadan iborat?

- A) San'at asarlarini yaratish
- B) Ruhiy muammolarni ifoda etish va davolash
- C) Chizmachilikni o'rgatish
- D) Madaniyatni rivojlantirish

3. Qaysi davrda art-terapiya fan sifatida shakllanib, assotsiatsiyalar tashkil etildi?

- A) XIX asrda
- B) 1930–1950-yillarda
- C) 1960–1980-yillarda
- D) XXI asrda

4. Musiqa terapiyasi qanday maqsadda qo'llaniladi?

- A) Stressni kamaytirish va emotsional yengillik berish uchun
- B) Qo'shiq kuylashni o'rgatish uchun
- C) Faqat bolalar bilan ishlash uchun
- D) Sport mashg'ulotlarida qo'llash uchun

5. Qum terapiyasi (sand-play) asosan kimlar bilan ishlashda samarali hisoblanadi?

- A) Keksalar bilan
- B) Bolalar bilan
- C) Musiqachilar bilan
- D) Sportchilar bilan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son" Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025

Seminar mashg'uloti ishlanmasi

2- Mavzu: Art-terapiyaning asosiy yo'nalishlari va turlari

Reja:

1. Art-terapiya tushunchasi va uning ahamiyati.
2. Art-terapiyaning asosiy yo'nalishlari.
3. Art-terapiyaning turlari va ularning qo'llanilish sohasi.

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga art-terapiyaning nazariy asoslari, yo'nalishlari va turlari haqida tushuncha berish.

Ularni mustaqil fikrlashga, o'z qarashlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

Amaliy misollar orqali art-terapiya metodlarining ahamiyatini ko'rsatish.

Metodlar:

Aqliy hujum, Klaster, Grafik organayzer

Davra suhbat (og'zaki va yozma shaklda)

Vositalar:

Darslik, O'MK, elektron doska, rangli markerlar, tarqatma qog'ozlar.

Mashg'ulotning borishi

1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)

O'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, reja va mashg'ulot tartibi bilan tanishtiradi

Savol: "San'at vositalarining qaysi biri sizni tinchlantiradi?"

2-bosqich. Aqliy hujum (5 daqiqa)

Savol: "Art-terapiya qanday kasalliklar yoki ruhiy holatlarda qo'llaniladi?"

Talabalar javoblari doskaga yozib boriladi.

3-bosqich. Guruhlarda ishlash (15 daqiqa)

1-guruh: Asosiy yo'nalishlar (psixanalitik, gumanistik, kognitiv, integrativ).

2-guruh: Asosiy turlar (izoterapiya, musiqaterapiya, raqs-terapiya, drama-terapiya).

3-guruh: Qo'shimcha turlar (qum terapiyasi, biblioterapiya, rang terapiyasi, qo'g'irchoq terapiyasi).

4-guruh: Amaliy qo'llanilish sohalari (ta'lim, tibbiyot, psixologiya, treninglar).

4-bosqich. **“Davra suhbatı”** metodi (20 daqiqa)

Og‘zaki davra suhbatı:

Stollar doira shaklida joylashtiriladi.

Savol:

1. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida qaysi art-terapiya turi samaraliroq deb o‘ylaysiz?”

2. “O‘z hayotingizda art-terapiya sizga qanday yordam bergan bo‘lishi mumkin?”

Har bir talaba o‘z fikrini qisqa va aniq bayon qiladi.

Yozma davra suhbatı:

Har bir talaba konvertga art-terapiyaga oid savol yozadi (masalan: “Musiqaterapiya nima uchun samarali?”).

Konvert yonidagi talabalarga uzatiladi va har kim javob yozib qo‘yadi.

Konvert oxirida o‘z egasiga qaytgach, savol muallifi javoblarni tahlil qiladi.

5-bosqich. Guruh taqdimotlari va muhokama (10 daqiqa)

Guruhlar o‘z mavzusi bo‘yicha taqdimot qiladi.

O‘qituvchi izoh beradi, to‘ldiradi.

6-bosqich. Yakuniy qism (5 daqiqa)

O‘qituvchi umumiy xulosa qiladi:

Art-terapiya ruhiy sog‘liqni mustahkamlashda muhim.

Har bir yo‘nalish va tur inson shaxsiy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega.

Faol talabalarga rag‘bat.

Afzalligi: “Davra suhbatı” orqali talabalar faollashadi, mustaqil fikrlash va o‘z nuqtai nazarini bildirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son”Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.

3-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertakterapiyadan foydalanish

Reja:

1. Ertakterapiya tushunchasi va ahamiyati
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ertakterapiyadan foydalanish usullari
3. Ertakterapiya metodlari va ularning pedagogik ahamiyati

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga ertakterapiya tushunchasi, yo'nalishlari va metodlarini tushuntirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ruhiy va emotsional rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdagi pedagogik ahamiyatini tushuntirish.

Talabalarni turli pedagogik metodlar orqali mavzuga faol jalb qil

Seminar mashg'ulot metodlari:

1. Aqliy hujum – talabalar ertakterapiya tushunchasi va ahamiyati bo'yicha fikrlarni erkin bayon qiladi.
2. Klaster – mavzuni tarkibiy qismlarga ajratib, asosiy yo'nalishlari va turlarini grafik tarzda tuzis
3. Grafik organayzer – ertakterapiya metodlarini vizual ko'rinishda taqdim etish.
4. Davra suhbatlari – talabalar aylana shaklida o'tirib, mavzu bo'yicha savol-javob orqali fikr almashadi.
5. Bahs-munozara – mavzu yuzasidan turli fikrlar va g'oyalarni tahlil qilish, pedagogik ahamiyatini muhokama qilish.

Vositalari:

Darslik, O'MK, elektron doska

Tarqatma materiallar (ertak matnlari, tasviriy materiallar)

Markerlar, doska

Seminar mashg'ulotining borishi

1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)

O'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, maqsad va vazifalarni tushuntiradi

Savol: "Ertak bolalar rivojlanishida qanday pedagogik rol o'ynaydi?"

Talabalar javoblarini aqliy hujum yordamida bildiradi.

2-bosqich. Nazariy qism (15 daqiqa)

Ertakterapiya tushunchasi: san'at, dramatik va ijodiy vositalar orqali bolalarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash usuli.

Yo'nalishlari:

Dramatik (dramaterapiya, o'yinlar

Vizual (tasviriyl san'at, rasm)

Musiqiy va raqs-harakat asosidagi

Pedagogik ahamiyati:

Bolalarda emotsional ifoda va kreativlikni rivojlantirish

Stress va qo'rqinchni kamaytirish

Nutq va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish

3-bosqich. Metodlar orqali mavzuni chuqurlashtirish (15 daqiqa)

1. Klaster – mavzuni tarkibiy qismlarga ajratib, diagramma yoki xarita shaklida ko'rsatish:

Ertakterapiya yo'nalishlari

Turlari

Pedagogik ahamiyat

2. Grafik organayzer – talabalarga ertakterapiya usullarini vizual tarzda taqdim etish va ularni tahlil qilish imkonini berish

3. Davra suhbatl – aylana shaklida o'tirib, savol-javob:

Savol: "Qaysi ertakterapiya usuli maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samaraliroq va nima uchun?"

4. Bahs-munozara – mavzuni chuqur tahlil qilish:

Talabalar turli fikr va g'oyalarni bildiradi

O'qituvchi yozib boradi va umumlashtiradi

Natijada pedagogik ahamiyati aniqlanad

4-bosqich. Yakuniy qism (5 daqiqa)

O'qituvchi seminar natijalarini xulosalaydi


Talabalar ertakterapiya tushunchasi va usullarini tushundi

Pedagogik ahamiyatini biladi

Turli interaktiv metodlar orqali mavzuga faol jalb qilindi

Seminar natijalari:

1. Talabalar ertakterapiya tushunchasi, yo‘nalishlari va metodlarini puxta biladi.
2. Pedagogik ahamiyatini tushunadi va tushuntira oladi
3. Turli metodlar yordamida mavzuga faol jalb qilinish orqali mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son”Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.
3. O‘zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug‘i. – T., 2025
4. Yo‘ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M,To‘ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.
6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.
7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.

4-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida artterapiya qo'llash

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida artterapiyaning ahamiyati
2. Mashg'ulotlarni artterapiya asosida tashkil etish va tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirish

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga artterapiya tushunchasi, asosiy yo'nalishlari va metodlarini tushuntirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy va emotsional rivojlanishida artterapiya usullarini qo'llashni o'rgatish.

Talabalarni turli interaktiv metodlar orqali mavzuga faol jalb qilish.

Seminar mashg'ulot metodlari:

Grafik organayzerlar – artterapiya yo'nalishlarini va pedagogik ahamiyatini vizual tarzda ko'rsatish

Klaster – tarkibiy qismlarga ajratib, asosiy g'oyalarni guruhlash

Aqliy hujum – talabalar fikr-mulohazalarini erkin bayon qiladi

Muammoli vaziyat – talabalar artterapiya jarayonidagi muammolarni tahlil qiladi va yechim topadi

Vositalari:

Darslik, O'MK, elektron doska

Tarqatma materiallar (tasviriy materiallar, rasm va rangli qog'ozlar)

Markerlar, doska

Seminar mashg'ulotining borishi

1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)

O'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, maqsad va vazifalarni tushuntiradi.

Savol: "Artterapiya bolalar rivojlanishida qanday pedagogik ahamiyatga ega?"

Talabalar javoblarini aqliy hujum orqali bildiradi.

2-bosqich. Nazariy qism (10–15 daqiqa)

Artterapiya tushunchasi: san'at, rasm, dramatik va musiqiy vositalar orqali bolalarning ruhiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash usuli.

Asosiy yo'nalishlari:

Vizual artterapiya (rassomlik, tasviriy san'at

Dramatik artterapiya (o'yinlar, dramatizatsiya)

Musiqiy artterapiya (musiqi va harakatlar orqali

Pedagogik ahamiyati:

Bolalarda emotsional ifoda va kreativlikni rivojlantirish

Stress va qo'rqinchni kamaytirish

Nutq va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish

3-bosqich. Muammoli vaziyat metodi (15–20 daqiqa)

Nazariy ko'rsatma:

Talabalar artterapiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi va yechim topish bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi.

Muammo murakkabligi talabalarning bilim darajasiga mos bo'lishi kerak.

Muammoli vaziyat metodining bosqichlari:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.

Masalan: "Bolalar rasm chizishda o'z fikrini ifoda eta olmayapti

2. Talabalar topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiriladi.

3. Talabalar kichik guruhlariga ajratiladi

4. Kichik guruhlar muammoli vaziyatni o'rganadilar, sabablarni aniqlaydilar va taqdimot qiladilar.

5. Guruhlar muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar va tahlil qiladilar.

Masalan: bolalarning o'z ijodiy ishlarini qadrlash, rag'batlantirish, o'yin shaklida mashg'ulot olib borish.

7. Guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi va eng maqbul variant tanlanadi

4-bosqich. Metodlarni boyitish

1. Grafik organayzer:

Artterapiya yoʻnalishlari, metodlar va pedagogik ahamiyatni diagramma tarzida koʻrsatish

2. Klaster:

Tarkibiy qismlar

Mashgʻulotlarni rejalashtirish

Faoliyat turlari (rassomlik, dramatizatsiya, musiqa)

Natijalarni baholash

3. Davra suhbat:

Savollar

1. “Qaysi artterapiya usuli bolalar rivojlanishi uchun samaraliroq va nima uchun?”
2. “Mashgʻulotlarni artterapiya asosida tashkil etishda nimalarga eʼtibor berish kerak?”

Talabalar fikr-mulohaza bildiradi va muhokama qiladi.

5-bosqich. Yakuniy qism (5 daqiqa)

Oʻqituvchi seminar natijalarini xulosalaydi:

Talabalar artterapiya tushunchasi, yoʻnalishlari va metodlarini tushundi

Muammoli vaziyat orqali mustaqil tahlil qilish va yechim topish koʻnikmasi shakllandi

Grafik organayzer va klaster orqali mavzuga vizual qarash imkoniyati yaratildi

Seminar natijalari:

1. Talabalar artterapiya tushunchasi, yoʻnalishlari va metodlarini puxta biladi.
2. Mashgʻulotlarni bolalar rivojlanishiga yoʻnaltirib tashkil etishni tushunadi.
3. Muammoli vaziyat va boshqa metodlar yordamida mustaqil fikrlash, tahlil va muammoni yechish koʻnikmasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr
Oʻzbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-

dekabr,802-son”Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to`g`risida

2. “Ilk qadam” davlat o`quv davturi. – T., 2022.

3. O`zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta`lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug`i. – T., 2025

4. Yo`ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.

5. Saidov M,To`ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

6. Tadjieva M. T, Kreativ fikrlashni rivojlantirishda art-terapiya metodlari, maqola, 2021.

7. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va diagnostikasi*, Toshkent, 2020.

8. Xalilova N. Art-terapiya: amaliy psixologiyada qo`llanilishi, maqola, O`zbekiston Psixologiya jurnali, 2022.



5-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq terapiyasi

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq terapiyasining ahamiyati
2. Tarbiyalanuvchilarga mashg'ulotlar jarayonida qo'g'irchoq terapiyasi orqali ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarni shakllantirish

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga qo'g'irchoq terapiyasi tushunchasi, metodlari va pedagogik ahamiyatini tushuntirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy, emotsional va nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlash usullarini o'rgatish.

Talabalarni interaktiv metodlar orqali mavzuga faol jalb qilish.

Seminar mashg'ulot metodlari:

Grafik organayzerlar – qo'g'irchoq terapiyasi yo'nalishlari va pedagogik ahamiyatini vizual ko'rsatish

Klaster – tarkibiy qismlarni ajratib, asosiy fikrlarni guruhlash

Aqliy hujum – talabalar fikr-mulohazalarini erkin bayon qiladi

Konseptual jadval – turli g'oyalarni taqqoslash va baholash

“T-sxema” metodi – mavzuga nisbatan mustaqil fikr bildirish va ijobiy/salbiy jihatlarni aniqlash

Vositalari:

Darslik, O'MK, elektron doska

Tarqatma materiallar: qo'g'irchoqlar, karta va qog'ozlar, markerlar, doska

Seminar mashg'ulotining borishi

1-bosqich. Kirish (5 daqiqa)

O'qituvchi mavzuni e'lon qiladi, maqsad va vazifalarni tushuntiradi.

Savol: “Qo'g'irchoq terapiyasi bolalar rivojlanishida qanday pedagogik ahamiyatga ega

Talabalar javoblarini aqliy hujum orqali bildiradi.

2-bosqich. Nazariy qism (10–15 daqiqa)

Qo'g'irchoq terapiyasi tushunchasi:

Tarbiyalanuvchilarni o'yin va simvolik harakatlar orqali ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlash usuli.

Pedagogik ahamiyati:

Bolalarda hissiy ifoda va empatiya rivojlanadi

Stress va qo'rqinchni kamaytiradi

Nutq va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi

Ijtimoiy o'zaro munosabatlarni yaxshilaydi

3-bosqich. Konseptual jadval metodi (10 daqiqa)

Mashg'ulot tartibi:

Talabalarga turli qo'g'irchoq terapiyasi mashg'ulotlari jihatlari ko'rsatiladi va ularni jadvalga tushurish so'raladi.

Namuna jadval:

O'rganilayotgan jihat Muhim belgilar, tavsiflar Qo'g'irchoq terapiyasida qo'llanilishi

1-jihat Emotsional ifoda Bolalar hissiyotlarini ifodalash

2-jihat Ijtimoiy o'zaro munosabat Bolalar o'zaro muloqotda bo'lishadi

3-jihat Nutq va til rivoji Qo'g'irchoq orqali hikoya qilish, suhbat

4-jihat Kreativlik Qo'g'irchoq bilan ijodiy o'yinlar

4-bosqich. "T-sxema" metodi (10 daqiqa)

Pedagog ish tartibi

Yangi mavzuni bayon qiladi va ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang'ich ma'lumot beradi:

1. (ijobiy) – bolalar rivojlanishida foydali jihatlar

2. – (salbiy) – noto'g'ri qo'llash oqibatlari

Talabalar topshiriqni yakka tartibda bajaradi va 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

Talabalar o'z xulosalarini o'qib eshittiradi.

O'qituvchi barcha fikrlarni umumlashtiradi va yakuniy xulosa shakllantiradi.

Namuna T-sxema jadvali:

+ (ijobiy) – (salbiy)

Bolalar hissiyotlarini ifoda qiladilar Noto'g'ri qo'llash stressga olib keladi
Nutq va so'z boyligi rivojlanadi Ijtimoiy o'zaro munosabatlar rivojlanmaydi
Kreativlik va fantaziya shakllanadi Faoliyat monoton bo'lishi mumkin

5-bosqich. Yakuniy qism (5 daqiqa)

O'qituvchi seminar natijalarini xulosalaydi:

Talabalar qo'g'irchoq terapiyasi tushunchasi va pedagogik ahamiyatini tushundi
Konseptual jadval va T-sxema orqali mavzuga tizimli yondashuv shakllandi

Talabalar mustaqil tahlil qilish va ijobiy/salbiy jihatlarni baholash ko'nikmasi oldi
Seminar natijalari:

1. Talabalar qo'g'irchoq terapiyasi usullarini puxta biladi.
2. Mashg'ulotlarni tarbiyalanuvchilar rivojlanishiga yo'naltirib tashkil etishni tushunadi.
3. Konseptual jadval va T-sxema yordamida mavzuni tizimli o'rganish va mustaqil fikr bildirish ko'nikmasi shakllanadi

«B.B.B»

Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xoxlayman

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son" Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025
4. Yo'ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.

6-Mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rang bilan davolash terapiyasidan foydalanish

Reja:

1. Rang terapiyasining nazariy asoslari va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri.
2. Ranglar orqali bolalarning emotsional holatini tartibga solish.
3. Guruh mashg'ulotlarida rang terapiyasi usullaridan foydalanish.

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rang terapiyasidan foydalanishning ahamiyatini, ranglarning bola psixikasiga ijobiy ta'sirini tushuntirish hamda amaliy mashg'ulotlarda qo'llashni o'rgatish.

Seminar mashg'ulot metodlari:

Grafik organayzerlar, Klaster, Aqliy hujum, Tushunchalar tahlili

Vositalar: Darslik, markerlar, rangli qog'ozlar, elektron doska, slaydlar.

“Tushunchalar tahlili” metodini qo'llash

Tushuncha mazmuni - Rang terapiyasi Ranglar orqali inson ruhiyati va hissiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish jarayoni.

Qizil rang Faollik, energiya, ishonch uyg'otadi, lekin haddan ortiq bo'lsa asabiylikni oshiradi

Ko'k rang Tinchlantiradi, stressni kamaytiradi, xotirjamlik beradi

Yashil rang Muvozanat, uyg'unlik va ishonch hissini kuchaytiradi

Sariq rang Quvonch, ijobiy kayfiyat, ijodkorlikni rag'batlantiradi

Terapiya jarayoni Guruhda yoki yakka tartibda, ranglar bilan o'yin va mashqlar orqali amalga oshiriladi

Amaliy topshiriqlar jadvali

Guruh faoliyati Mashq turi Kutilayotgan natija

1-guruh: Ranglar dunyosi Bolalarga turli rangdagi kartochkalarni ko'rsatish
Ranglarni farqlash, hissiy javob

2-guruh: Kayfiyat rasmlari Bolalar o'z kayfiyatini rang orqali tasvirlash
Emotsiyalarni ifodalash

3-guruh: Rangli meditatsiya Ko‘k va yashil rangli predmetlar bilan dam olish mashqi Stressni kamaytirish

4-guruh: Rangli mozaika Rangli qog‘ozlardan umumiy kompozitsiya yaratish Jamoaviy hamkorlik va ijodkorlik

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

O‘quv topshiriqda ko‘rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini» chizing:

Muammo osti muammolar

Muammo osti muammolarning mavjudligini tasdiqlovchi dalillar

2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o‘ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son”Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash” to‘g‘risida
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – T., 2022.
3. O‘zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug‘i. – T., 2025
4. Yo‘ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M,To‘ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

7-Mavzu: Bilish jarayonida korreksiyasi va taraqqiyoti

Reja:

1. Bilish jarayonining psixologik-pedagogik asoslari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi va o'ziga xosligi.
3. Bilish jarayonini rivojlantirish va korreksiyalash metodlari.

Mashg'ulot maqsadi:

Talabalarga maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi, undagi qiyinchiliklarni korreksiyalash yo'llari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan samarali metodlarni o'rgatish.

Seminar mashg'ulot metodlari: SWOT-tahlil, Grafik organayzer, Klaster, Aqliy hujum

Amaliy mashqlar

Vositalar: Darslik, tarqatma materiallar, rangli kartochkalar, ko'rgazmali vositalar, elektron doska.

1-jadval. Bilish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari

Bilish jarayoni Tavsifi Taraqqiyoti uchun shart-sharoitlar

Idrok Atrof-muhitni sezgi organlari orqali qabul qilish Rang-barang ko'rgazmalar, predmetlar bilan ishlash

Xotira Ma'lumotlarni eslab qolish, qayta tiklash va mustahkamlash O'yinlar, qayta hikoya qilish, rasm chizish

Diqqat Faoliyatni bir ob'ektga yo'naltirish va uni uzoq vaqt saqlab qolish Diqqatni jamlash o'yinlari, musiqiy mashqlar

Tasavvur Yangi obrazlarni ongda hosil qilish Syujet-rolli o'yinlar, rasm va loy ishlari

Tafakkur Tahlil, taqqoslash, umumlashtirish orqali bilim hosil qilish Savol-javoblar, mantiqiy topshiriqlar

2-jadval. Bilish jarayonida qo'llaniladigan korreksiya usullari

Usul Qo'llanilish shakli Kutilayotgan natija

Rang terapiyasi Rangli kartochkalar orqali diqqatni jalb qilish Emotsional muvozanat, diqqatni rivojlantirish

Logopedik o'yinlar Nutqni rivojlantirish mashqlari Xotira va nutqni yaxshilash

Sensor mashqlar Turli faktura va shakllardagi buyumlar bilan ishlash Idrokni rivojlantirish

Psixogimnastika Hissiy holatlarni obrazli harakatlar orqali ifodalash Kayfiyatni nazorat qilish, tasavvurni boyitish

Musiqqa terapiyasi Tinchlantiruvchi yoki quvnoq musiqalardan foydalanish Stressni kamaytirish, tafakkurni rag'batlantirish

SWOT-tahlil: Bilish jarayonini rivojlantirishda imkoniyatlar va muammolar

Kuchli tomonlari (S) Zaif tomonlari (W)

- | | |
|----------------------------------|-----------------------------|
| – Bolalarning tabiiy qiziqishi | – Diqqatning beqarorligi |
| – O'yin orqali tez o'zlashtirish | – Tez charchash |
| – Keng tasavvur imkoniyatlari | – Xotiraning cheklanganligi |

Imkoniyatlar (O) Tahdidlar (T)

- Innovatsion metodlarni qo'llash – Texnologiyalardan noto'g'ri foydalanish
- Rang va musiqa terapiyasini kiritish – Tarbiyachining tayyorgarlik darajasi past bo'lsa, natija susayadi
- Ota-onalar bilan hamkorlik – Bolaning individual xususiyatlari inobatga olinmasa muammo kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni 2020yil 30 oktabr O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr,802-son" Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash" to'g'risida
2. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – T., 2022.
3. O'zbekiston Respublika Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligining 2025-yil 28-avgustdagi 323 - sonli buyrug'i. – T., 2025
4. Yo'ldosheva M.Psixologik korreksiya usullari, Toshkent, 2018.
5. Saidov M, To'ychiev N. Psixologik diagnostika asoslari*, Toshkent, 2017.

8-Mavzu: Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'yin terapiyasidan foydalanish usullari

Reja:

1. O'yin terapiyasining mazmuni va ahamiyati.
2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'yin terapiyasidan foydalanish usullari.

Mashg'ulot maqsadi:

Bo'lajak tarbiyachilarga maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda o'yin terapiyasi usullaridan samarali foydalanishni o'rgatish.

Seminar mashg'ulot metodlari: Grafik organayzerlar, Klaster, Aqliy hujum, "Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi

Vositalar: Darslik, O'quv-metodik kompleks (O'MK), Elektron doska, "Xulosalash" (Rezyume, Veer) metodi tavsifi

Metodning maqsadi: Murakkab, ko'p tarmoqli va muammoli mavzularni chuqur tahlil qilish, ijobiy va salbiy tomonlarini ajratib ko'rsatish.

3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta’lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta’lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta’lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta’lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta’lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta’lim beruvchi ham ta’lim oluvchilarni ob’ektiv baholashi mumkin.

“Bahs-munozara” metodi.


Biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ✓ barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruxsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- ✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- ✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- ✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul echimi tanlanadi.

“Muammoli vaziyat” metodi.

Ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning echimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda echimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va

oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o'rganadilar. Quyida "Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Muammoli vaziyat" metodining tuzilmasi

"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:


1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni echish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Konseptual jadval” metodi

Konseptual jadval metodi - turli g‘oyalarni, qarashlarni o‘zaro taqqoslash va ularni turli toifalar bo‘yicha taqqoslagan holda baho berishga qaratilgan organayzer hisoblanadi. Metod o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda o‘quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:



Tinglovchilar e’tiboriga quyidagi namunani tavsiya etish mumkin:

O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	Muhim belgilar, tavsiflar		
	1-belgi (tavsif)	2-belgi (tavsif)	3-belgi (tavsif)
1-jihat			

2-jihat			
...			

“T – sxema” metodi

Pedagog:

- yangi mavzuni bayon qiladi va o‘quvchilarga ikki qarama-qarshi jihat haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni beradi;
- topshiriqni yakka tartibda bajarishlarini so‘raydi va 10 daqiqa vaqt ajratadi;
- vaqt tugagach o‘quvchilardan izohlarsiz o‘z fikr – mulohazalarini o‘qib eshittirishlarini aytadi;
- barcha xulosalar tinglangach, umumlashtiriladi va yakuniy xulosa shakllantiriladi.

Tinglovchi:

- mavzuni diqqat bilan tinglaydi;
- o‘zi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni daftariga qayd qilib boradi;
- berilgan sxema asosida tuchunchaga nisbatan o‘zining mustaqil fikrini bildiradi;
- yakuniy xulosasi bilan o‘tirganlarni tanishtiradi;
- reglamentga rioya qiladi.

Kutiladigan natija: uquvchilar mavzu yuzasidan zaruriy bilimlarni o‘zlashtiradi, kursning mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

“T” sxema asosida mustaqil faoliyatni tashkil etish.

+ (ha, ijobiy)	- (yo‘q, salbiy)

“Tuchunchalar tahlili” metodi

Metodning mohiyati. Ushbu uslub o‘quv predmeti mavzularini yodga olish, biron - bir mavzu bo‘yicha pedagog, tomonidan berilgan tuchunchalarga mustaqil

ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratishga yo'naltirilgan.

Metodning maqsadi. Mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tuchunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan karash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

Metodning qo'llanishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o'quv predmetining biron bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin ta'lim oluvchilarning-bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoya shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- tinglovchilarni guruhlariga (sharoitga karab) ajratadi;
- tinglovchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- tinglovchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tuchunchalar bilan tanishadilar;
- tinglovchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tuchunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tuchunchalarni qanday tuchungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- pedagog tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tuchunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tuchunchaga to'g'ri izoxni belgilaydi yoki ekranda har bir tuchunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;

- har bir tinglovchi to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tuchunchaga ega bo‘ladilar, o‘z-o‘zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

“Tuchunchalar tahlili” metodidan bir darsning o‘zida dars boshlanishida o‘tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning dastlabki bilimlari, qanday tuchunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin

Tuchunchalar	mazmuni

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarini topish, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholash, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• kuchli tomolari
W – (weakness)	• zaif va kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	• imkoniyatlari
T – (threat)	• to'siqlar

Bu metod 1963 yilda Garvard universitetining professori Andryus tomonidan biznes siyosati muammolariga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada birinchi marta taklif etilgan. Dastlab bu metod mavjud vaziyat haqidagi bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llangan. U o'rganilayotgan ob'ekt, vaziyat yoki jarayonning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, ob'ektni o'rab turgan tashqi muhit bilan bog'liq xavf xatarlarni aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu metodni ta'lim jarayonida qo'llash o'quvchilarda tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikma va malakalarini shakllantirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Metodni qo'llashga qo'yiladigan talablar - SWOT –universal tahlil metodini umumta'lim maktablarida qo'llash uchun pedagoglar ham, o'quvchilar ham ma'lum bir tayyorgarlikdan o'tgan bo'lishi, ya'ni bu metodning maqsadi, qo'llanilish holatlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishi lozim. Bunda o'rganilayotgan ob'ekt yoki masalaga taalluqli bo'lgan ichki va tashqi faktorlarni ajratish, ijobiy va salbiy omillarni ajrata olish malakalari shakllangan bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, tahlilini o'tkazish jarayonida ijtimoiy, siyosiy, madaniy muhitdagi o'zgarishlarni hisobga olish talab etiladi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy

fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- pedagog ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, pedagog tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

«FSMU» metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
 - har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi;
 - ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi- 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tinglovchilar:

1) kichik gurlarda Venn diagrammasini tuzadilar va kesishmaydigan joylarida rivojlangan davlatlar ta'lim tizimiga oid fikrlarini oydinlashtirib olib, to'ldiradilar;

2) juftliklarga birlashadilar, o'zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to'ldiradilar;

3) doiralarning kesishuvchi joyida ikki doira uchun umumiy bo'lgan fikrlar ro'yxatini tuzadi;

4) ish natijalarining taqdimoti

Test savollari

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yladigan Davlat talablarining 4- sohasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) Bilish jarayonini rivojlanishi;
- b) “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasiga;
- d) Ijtimoiy hissiy rivojlanish sohasiga
- e) Ijodiy rivojlanish sohasiga

2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yladigan Davlat talablarining 5-sohasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) Ijodiy rivojlanish;
- b) “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”
- d) “Bilish jarayonining rivojlanishi”
- e) Ijtimoiy hissiy rivojlanish

3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasining kichik sohalari nechta?

- a) 3 ta; b) 5 ta; c) 4 ta; d) 2 ta;

4. ”Ilk qadam” qanday dastur?

- a) davlat o‘quv dasturi; b) Ishchi dastur
- d) Variativ dastur e) Tayanch dastur

5. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi qaysi hujjat asosida ishlab chiqilgan?

- a) Ilk maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yladigan davlat talablari;
- b) MTT Nizom asosida ishlab chiqilgan
- d) O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiya asosida ishlab chiqilgan

e) Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun asosida ishlab chiqilgan

6. Dasturdan qayerlarda foydalaniladi?

a) davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida, mehribonlik uylari, boshlang‘ich majburiy ta’lim, boshqaruv organlari tashkilotlari;

- b) Ixtisoslashtirilgan MTT
- d) Savodxonlik markazlari
- e) Mehribonlik uylari.

7. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyasi qaysi?

- a) kommunikativ, o‘yin, ijtimoiy, bilish kompetensiyalari
- b) Bola kompetensiyalari
- d) Kichik soha, rivojlanish sohasi
- e) Ijodiy rivojlanish

8. Qaysi dastur ta’limda alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan?

- a) ”Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi; b) Bolajon tayanch dasturi
- d) Bilimdon dasturi e) Savodga tayyorlash

9. "Ilk qadam" o'quv-tarbiyaviy jarayonda rejalashtirishning qanday turlari qo'llaniladi?

- a) yillik, oylik, haftalik;b) kunlik haftalik
- d) yillik e) oylik

10. MTTning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

- a) o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;
- b) bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash
- d) bolalarni savodga tayyorlash
- e) bolalarni ijodiy rivojlantirish

11. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'quv yili qanday tashkil etiladi?

- a) 2-sentabrdan 31-maygacha;b) Yil davomida
- d) 2-sentabrdan 1-dekabrgacha e) Har oyda 12- 13

12. Bolaning rivojlanish xaritasi asosida yil davomida necha marta kuzatuv jarayoni tashkil etiladi?

- a) 3 marta (sentabr, dekabr, may oyida);
- b) Har chorakda
- d) Har oyda
- e) Bir yilda bir marotaba

13. Oraliq kuzatuvning maqsadi nima?

- a) Kuzatishning maqsadi bolalar uchun tanlangan metodikaning to'g'riligini belgilash va rivojlanish dinamikasini aniqlashdan iboratdir;
- b) Bolalar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni bajarish
- d) Kuzatish va baholash
- e) Kuzatishdan maqsad bolalar bilimini tahlil qilish

14. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari qanday sohalar bo'yicha belgilanadi ?

- a) jismoniy rivojlantirish sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish.
- b) jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiena ijtimoiy-hissiy rivojlantirish nutqi, o'qish va savodga tayyorgarligi Bilish jarayoni, atrof olam to'g'risidagi bilimga ega bo'lish va uni anglash
- d) badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish va badiiy estetik rivojlantirish. nutqi, o'qish va savodga tayyorgarligi
- e) jismoniy rivojlantirish, madaniy gigienik ko'nikmalarni shakllantirish ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish; bilish jarayonini rivojlantirish; badiiy estetik qobiliyatlarni rivojlantirish

15. Bilish jarayonining rivojlanishi sohasining kichik sohalarini belgilang.

- a) Intellektual anglash malakalari; elementar matematik malakalar; tadqiqiy bilish va samarali refleksif faoliyat
- b) Atrof olambilan tanishtirish; tabiat bilan tanishtirish; elementar matematika
- d) Elementar matematik ko'nikmalar, badiiy ijodiy qobiliyat; badiiy estetik rivojlantirish

e) jismoniy rivojlantirish, madaniy gigienik ko'nikmalarni shakllantirish ijtimoiy-kommunikativ rivojlantirish; bilish jarayonini rivojlantirish; badiiy estetik qobiliyatlarni rivojlantirish

16. Ijtimoiy hissiy rivojlanish sohasining kichik sohalarini belgilang

a) "Men" konsepsiyasi; hissiyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot;

b) Kattalar bilan muloqot; tengdoshlar bilan muloqot; "Men" Konsepsiyasi

d) "Men" konsepsiyasi, hissiy rivojlanish, o'zini himoya qilish, o'zini anglash malakalari

e) Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot, Men kontsepsiyasi, Hissiy rivojlanish

17. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari maqsadini belgilang.

a) mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

b) ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

d) bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

e) maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

18. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining vazifalari

a) maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

b) bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi

d) xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan

e) bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

19. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari qaysi tashkilotlar bilan kelishilgan

a) Vazirlar Mahkamasi qoshidagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi va «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazi bilan kelishilgan.

b) O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi

d) Maktabgacha ta'lim muasasalari rahbar va mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

e) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi

20. Integratsiyaga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating

a) bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik;

b) bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar

d) maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlari

e) bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon;

21. Refleksiv faoliyatga berilgan to'g'ri ta'rifni ko'rsating

a) bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni

b) bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi;

d) sohaning kichik guruhlar. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi;

e) inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar

22. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muasasalari davlat o'quv dasturi qachon tasdiqlangan

a) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-son hay'at yig'ilishi qarori

b) O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-son hay'at yig'ilishi qarori

d) Adliya vazirligining 2018-yil 3-yuldagi 3032-son

e) Adliya vazirligining 2017-yil 19-iyuldagi 2898-son

23. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muasasalari davlat o'quv dasturining tuzilishi kursatilgan qatorni belgilang.

a) Umumiy qoidalar, MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv, o'quv tarbiyaviy faoliyat, bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, ilovalar

b) Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetentsiyaviy yondashuv O'quv-tarbiyaviy faoliyat

d) MTT ta'lim jarayonining maqsad va tamoyillar Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuklari, Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish

e) Bolaning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari, Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish yakuniy qoidalar

24. Maktabgacha ta'lim tashkilotining katta guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

a) 17ta b) 10ta d) 12ta e) 15ta

25. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

a) 18ta b) 10ta d) 12ta e) 15ta

26. Maktabgacha ta'lim tashkilotining kichik guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

a) 12ta b) 10ta d) 14ta e) 15ta

27. Maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rta guruhida haftada nechta mashg'ulot rejalashtirilgan?

a) 14ta b) 10ta d) 12ta e) 15ta

28. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish davrini belgilang.

a) 1-iyundan -31-avgustgacha b) 25-maydan -30-avgustgacha

d) 2-maydan e) 30-iyulgacha

29) Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida 802-sonli" qarori qachon qabul qilingan?

A)2019-yil 19 –dekabrda B)2020-yil 22-dekabrda C)2022-yil 22-dekabrda

30) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash necha bosqichni amalga oshiriladi?

A)3 bosqichda B)4 bosqichda C)5 bosqichda

31) Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, " Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi?

A) shaxsiy (ruhiy), aqliy, maxsus tayyorgarlik, jismoniy

B) shaxsiy (ruhiy), intellektual, aqliy

C) jismoniy, intellektual, maxsus tayyorgarlik

32) Necha yoshli bolaning maktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim tashkilotdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim?

A) 4-5 yoshli B) 6-7 yoshli C) 5-6 yoshli

33) Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorgarlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi qanday xususiyatlar ahamiyatlidir?

A) mustaqillik, intizomlilik B) uyushganlik, intizomlilik C) barcha javoblar to'g'ri

34) Qanday tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

A) axloqiy -irodaviy tayyorgarlik B) jismoniy tayyorgarlik C) aqliy tayyorgarlik

35) Matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun olib boriladigan asosiy ish shakli.....

A. mehnat. B) Mashg'ulot C) O'yin

36) Bolalarni aktiv faoliyatini yangi materiallar bilan ishlash va o'tilgani takrorlash uchun tashkil qilinadi.

A) Sayr B) Mashg'ulot C) O'yin

37) Maktab ta'limiga tayyorlash yo'nalishlari to'g'ri berilgan qatorni toping.

A) Jismoniy B) Shaxsiy C) Aqliy va maxsus tayyorgarlik

38) “Bolalarni boshlang‘ich ta’limiga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Hukumat qarori nechinchi sonli qaror?

A) 321-sonli qaror B)155-sonli qaror C)132-sonli qaror

39) Bolalarni boshlang‘ich ta’limiga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarida bolalarning bo‘lish vaqti necha soatni tashkil etadi?

A) 4-5 soatni B) 3-4 soatni C) 2-3soatni

40) Bolalarni boshlang‘ich ta’limiga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlarida ta’lim -tarbiya jarayoni necha smenada tashkil etiladi?

A) 1smenada B) 2 yoki 3smenada C) 1 yoki 2smenada

40) Bolalarni boshlang‘ich ta’limiga majburiy bir yillikka tayyorlov guruhlarida bolalar soni necha nafardan oshmasligi kerak?

A) 25 nafardan B) 30 nafardan C) 28 nafardan

41) 2024-2025 o‘quv yiliga kelib 6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta’lim bilan necha foiz qamrab olinadi?

A) 80 foiz B) 90 foiz C)100 foiz

42) Tayyorlov guruhlarini xonalari mebel, anjomlar, o‘quv – metodik, rivojlantiruvchi o‘yinlar va o‘yinchoqlar bilan ta’minlash qancha muddatda amalga oshiriladi?

A) 2 oy muddatda B) 1 oy muddatda C) 3 oy muddatda

43) Bolalarni boshlang‘ich ta’limiga majburiy bir yillikka tayyorlash tizimiga necha yoshli bolalar qabul qilinadi?

A) 6-7 yoshli B) 5-7 yoshli C) 5-6 yoshli

44) Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qish va savodga tayyorlash mashg‘ulotlarida nimalar o‘rgatiladi?

A. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish

B. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o‘rgatish

C. Fonematik idrokni va tasavvurlarni rivojlantirish

D. Barchasi to‘g‘ri

45) Bolalarni savodga tayyorlashda matematik o‘yinlar nimalar rivojlanishiga ta’sir etadi?

A) Bilimni boyitishga

B) Aqliy faoliyatni o‘stirish

C) Bola hayotini rivojlantirish

46) Bola indikator atamasining ma’nosi nima?

A) Ko‘rsatkichlari B) Miqdori C) O‘lcham

47) Nutq,muloqot,o‘qish va yozish malakalari sohasi qanday kichik sohalarga bo‘linadi?

A) Nutq va til, yirik motorika

B) O‘qish malakalari,yirik motorika

C) Nutq va til,o‘qish malakalari, qo‘l barmoqlari mayda matorikasi.

48) Bolalarni savodga tayyorlash mashg‘ulotlarida o‘rgatiladigan mashg‘ulotlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping?

A) Kuylash, yurish, o‘qish

B) O‘qish, yozish,jismoniy mashqlar

- C) Chizish,yozish,yugurish malakalari
- 49) Bolalarni savodga tayyorlashda harflarni yozilishi qaysi guruhdan boshlab o'rgatiladi?
- A) O'rta guruh B) Tayyorlov C) Katta guuh
- 50) O'qish malakalarini egallash nomli kichik sohada qanday talablar qo'yiladi?
- A) Bola bosma materiallarga qiziqish bildiradi
B) Harflar va ramzlarni ajrata oladi
C) Oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalari rivojlantirish
- 51) Bolalarni savodga tayyorlash haftada necha marotaba o'tkaziladi?
- A) 1 marta B) 3 marta C) 2 marta
- 52) 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutq muloqot o'qish va yozish malakalari sohasi rivojlanishiga qanday talablar qo'yiladi?
- A) Tinglash va tushunish,tahlil va sintez ko'nikmalari
B) Ijodiy hikoya
C) Lug'atni faollashtirish
- 53) Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv nechanchi asrga paydo bo'lgan
- A) XIX asr B) XX asr C) XX asr o'rtalari D) XX asr boshi
- 54) Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv g'oyasi hayot yo'llarini tanlash erkinligini ta'minlaydigan shunday individual ijodiy faoliyatni tashkil etishdan iborat bu fikr kimga tegishli
- A) Komenskiy B) R. Ouen C) E. Bondarevskaya D) Ushinskiy
- 55) bolaning jamiyat hayotiga kirishining , uning ulg'ayishi turli xil turmush tarzini rivojlantirish
- A) Individuallik B) Ijtimoiylashuv C) Shaxs D) Rivojlanish
- 56) MTTda o'quv tarbiyaviy faoliyat qachondan qachongacha davom etadi?
- A) Iyun - avgust B) Sentabr- may C) May - sentabr
- 57) Boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlov guruhlari qaysi dastur asosida o'qitiladi?
- A) "Bolajon" B) "Ilk qadam" C) "Ilm yo'li"
- 58) 0-7 yoshli bolalarning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo'lib ular bilim, malaka va ko'nikmalar rivojlanishining ko'rsatkichlarini belgilaydigan hujjat nima deb nomlanadi?
- A) Davlat talablari B) Ilk qadam C) Ta'lim to'g'risidagi qonun
- 59) Davlat talablarida nechta rivojlanish sohasi bor?
- A) 3 B) 4 C) 5
- 60) Davlat talablari tarkibiga kiruvchi 5ta rivojlanish sohalarining vazifasi nima?
- A) 0 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning o'z-o'ziga hizmat ko'nikmalarini shakllantirish
B) nutq, o'qish va savodga tayyorlash darajasini oshirish
C) Atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo'yilgan talablarni egallash
- 61) 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutq,muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi rivojlanishiga qanday talablar qo'yiladi?

- A) Bolalar nutqini tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi
 B) bola so'zlashish va muloqot qilishga qodir bo'ladi
 C) oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalari oshadi
- 62) Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan nimalarga bog'liq?
 A) ruhiyatiga
 B) sog'lom tetik o'sishiga
 C) axloqiy sifatlarga, qo'llanmalarining monandligiga
- 63) Bolalarning faolligi qanday tajribani o'zlashtirishga yordam beradi?
 A) ijtimoiy tarixiy
 B) amaliy tajriba
 C) og'zaki nutqini
- 64) Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda nutq va savodga o'rgatishda qanday ishlar amalga oshiriladi?
 A) tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish
 B) unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish
 C) gapni so'zlarga bo'lish, so'zni bo'g'inlarga bo'lish
- 65) Mashg'ulot ishlanmasida nimalar yoritiladi?
 A) mavzuning maqsad vazifalari
 B) kutilayotgan natijalari
 C) kerakli jihozlar mashg'ulotning borishi
- 66) Yozish jarayonida bola nimalarni o'zlashtiradi?
 A) ruchka, qalamni to'g'ri ushlashni
 B) daftarni to'g'ri quyishni
 C) harf yozishda daftar chiziqlari, ular bo'ylab qulni xarakatlantirishni
- 67) Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlanadi. Diqqat barqarorligi nechi daqiqa hisoblanadi.
 A) 15-20 daqiqa B) 20-24 daqiqa C) 10-15 daqiqa
- 68) Ixtiyoriy xotiraga ta'rif berib.
 A) Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda sezish, idrok qilish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi.
 B) Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda eshitish, sezish, xotira soda namoyon bo'ladi.
 C) Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi.
- 69) 6-7 yoshli bolalarning so'z boyligi taxminan nechta so'zgacha boyib boradi.
 A) 3000 B) 3500 C) 4000
- 70) 7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo'lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko'nikmalar sanaladi.
 A) bola tomonidan odam turmush madaniyati predmentlari va narsalar dunyosining o'zlashtirilishi; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati.
 B) bola tomonidan matematik tasavvurlar, syujetli rollar, pozitiv muloqot qila olish qobiliyati.

C) bola tomonidan matematik tasavvurlar, qurish yasash, syujetli, tevarak olamni bilish va maktaga tayyorlash ko'nikmakari

71) Bola hayotining qaysi yillarida harakatlar rivojlanishi shifokor-pedagoglar hamkorligida tekshiriladi.

A) 1-2 yillari B) 1-3yillari C) 3-4 yillari

72) Bola yoshidan oshgach, o'sing qaysi davri tugaydi.

A) Maktabgacha yosh davri B) Ilk yosh davri C) Go'daklik

73) 2024-2025 o'quv yiliga kelib 6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim bilan necha foiz qamrab olinadi?

A) 80 foiz B) 90 foiz C) 100 foiz

74) Yetakchi mutaxassislarning fikricha "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi....

A) aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik;

B) maxsus, shaxsiy, aqliy tayyorgarlik;

C) Shaxsiy(ruhiy), aqliy, maxsus tayyorgarlik.

75) Bolaning jismoniy tayyorgarligi.....

A)...bolaning jismonan sog'lomligini, harakat sifatleri va ko'rish motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi;

B)... bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifatleri, qo'l mushaklari va ko'rish motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi;

C) ...bolaning sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, his qilish, qo'l mushaklari va psixik rivojlanishi izohlanadi;

D) ...bolaning psixik, ruhiy, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi bilan izohlanadi.

76) Maktabga axloqiy irodaviy tayyorgarlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi qaysi xususiyatlari ahamiyatlidir?

A) aqliy, intizomlilik, uyushganlik

B) uyushganlik, intizomlilik, psixalogik jihatdan rivojlanganlik;

C) mustaqillik, uyushganlilik, intizomlilik;

D) mustaqillik, intizomlilik, axliy.

77) Bolaning qaysi tayyorgarligi atrof-muhitga, kattalar, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatining shakllanganligini nazarda tutadi.

A) aqliy ruhiy B) shaxsiy C) jismoniy D) axloqiy va aqliy

78) Bolaning qaysi tayyorgarligi obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'z o'zini nazorat qilishi hamda, o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

A) aqliy B) estetik C) jismoniy D) shaxsiy (ruhiy)

79) Zamonaviy psixalogik pedagogik adabiyotlarda tayyrgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish tarzida aniqlanadi va 2 ta o'zaro jihatlar tarzida ko'rib chiqiladi ular qaysilar?

A) Maxsus tayyorgarlik va mustaqil o'qishga tayyorgarlik

B) Maktabga o'qishga umumiy psixalogik tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik

C) Psixalogik tayyorgarlik va umumiy tayyorgarlik

- D) umumiy psixologik tayyorgarlik va maktabga umumiy tayyorgarlik
- 80) Maktabga o'qishga tayyorgarlik qanday aniqlanadi?
- A) Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yiladegan talablar orqali aniqlanadi.
- B) Bolaning MTTdagi tayyorgarlik faoliyatlari orqali aniqlanadi.
- C) Bolaning oilaviy muhiti va Maktabgacha ta'lim tashkiloti muhiti orqali aniqlanadi.
- D) Bolaning yosh xususiyatlari orqali aniqlanadi.
- 81) Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bu..
- A) bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishi.
- B) bola aqliy faoliyatining muayyan darajada rivojlangan bo'lishi
- C) bola ruhiy faoliyatning yetarli darajada rivojlangan bo'lishi
- D) bola axloqiy faoliyatini yetarli darajada bo'lishidir.
- 82) Yetakchi mutaxassislarning fikricha, "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi....
- A) aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy tayyorgarlik;
- B) maxsus, shaxsiy, aqliy tayyorgarlik;
- C) aqliy, ruhiy, jismoniy, shaxsiy tayyorgarlik;
- D) shaxsiy(ruhiy), aqliy, maxsus tayyorgarlik.
- 83) Bolaning jismoniy tayyorgarligi.....
- A) ...bolaning jismonan sog'lomligini, harakat sifatlari va ko'rish motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi;
- B) ... bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifatlari, qo'l mushaklari va ko'rish motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi;
- C) ..bolaning sezgi a'zolari, ko'rish, eshitish, his qilish, qo'l mushaklari va psixik rivojlanishi izohlanadi;
- D) ...bolaning psixik, ruhiy, ko'rish, eshitish qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi bilan izohlanadi.
- 84) Maktabga axloqiy irodaviy tayyorgarlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi qaysi xususiyatlari ahamiyatlidir?
- A) aqliy, intizomlilik, uyushganlik
- B) uyushganlik, intizomlilik, psixologik jihatdan rivojlanganlik;
- C) mustaqillik, uyushganlilik, intizomlilik;
- D) mustaqillik, intizomlilik, aqliy.
- 85) Bolaning qaysi tayyorgarligi atrof-muhitga, kattalar, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatining shakllanganligini nazarda tutadi.
- A) aqliy ruhiy B) shaxsiy C) jismoniy D) axloqiy va aqliy
- 86) Bolaning maktabga tayyorgarligi necha yoshni o'z ichiga oladi?
- A) 3-4 yosh B) 4-6yosh C) 6-7yosh D) 5-7yosh
- 87) Bolaning qaysi tayyorgarligi obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'z o'zini nazorat qilishi hamda, o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.
- A) aqliy B) estetik C) jismoniy D) shaxsiy (ruhiy)

88) Zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish tarzida aniqlanadi va nechta o'zaro jihatlar tarzida ko'rib chiqiladi?

A) 3ta B) 5 ta C) 6ta D) 2ta

89) Zamonaviy psixologik pedagogik adabiyotlarda tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish tarzida aniqlanadi va 2 ta o'zaro jihatlar tarzida ko'rib chiqiladi ular qaysilar?

A) maxsus tayyorgarlik va mustaqil o'qishga tayyorgarlik

B) maktabga o'qishga umumiy psixologik tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik

C) psixologik tayyorgarlik va umumiy tayyorgarlik

D) umumiy psixologik tayyorgarlik va maktabga umumiy tayyorgarlik

90) Maktabga o'qishga tayyorgarlik qanday aniqlanadi?

A) Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yiladigan talablar orqali aniqlanadi.

B) Bolaning Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tayyorgarlik faoliyatlari orqali aniqlanadi.

C) Bolaning oilaviy muhiti va Maktabgacha ta'lim tashkiloti muhiti orqali aniqlanadi.

D) Bolaning yosh xususiyatlari orqali aniqlanadi.

91) Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bu..

A) bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishi.

B) bola aqliy faoliyatining muayyan darajada rivojlangan bo'lishi

C) bola ruhiy faoliyatning yetarli darajada rivojlangan bo'lishi

D) bola axloqiy faoliyatini yetarli darajada bo'lishidir.

92)xalqning orzu-umidlari vatanparvarlik, insonparvarlik o'ziga xos shaklda aks etgan.

A. Maqol B. Matal C. Ertak D. Alla

93) Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligida kimlar katta rol o'ynaydi?

A. Ota-onalar B. Tarbiyachilar C. A va B javoblar D. O'qituvchilar

94) Folklor so'zining ma'nosi?

A. Xalq donoligi B. Adabiyot C. So'z san'ati D. Og'zaki ijod

95) Folklor atamasi birinchi marta nechanchi yilda qo'llanilgan?

A. 1840 B. 1842 C. 1846 D. 1848

96) - folklorning jonli yashash tarzi

A. Variantlilik B. An'anaviylik C. Ertak D. Matal

97) Folklorshunoslik fani nechta tarmoqdan tashkil topgan?

A. 4 B. 5 C. 3 D. 2

97) Bolaning qaysi tayyorgarligi atrof-muhitga, kattalar, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatining shakllanganligini nazarda tutadi.

A) aqliy ruhiy B) shaxsiy C) jismoniy D) axloqiy va aqliy

98) Bolaning qaysi tayyorgarligi obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'z o'zini nazorat qilishi hamda, o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi.

A) aqliy B) estetik C) jismoniy D) shaxsiy (ruhiy)

99) 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi rivojlanishiga qanday talablar qo'yiladi?

- A) Bolalar nutqini tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'ladi
- B) bola so'zlashish va muloqot qilishga qodir bo'ladi
- C) oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalari oshadi

100) Bola nutqining rivoji ko'p jihatdan nimalarga bog'liq?

- A) ruhiyatiga
- B) sog'lom tetik o'sishiga
- C) axloqiy sifatlarga, qo'llanmalarining monandligiga

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar	
1	O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr. 2022 y
2	“Ilm yo’li” variativ dasturi. Toshkent-2022
3	Aleshina Yu.e .Shaxsiy va oilaviy psixologik maslahat. M.2002 yil2. Gonarenkon.V. San’at va fan sohasidagi daho . M, 1991-yil3. 3.Zaxira. Miya tashqarisida .M .19974. Zaxarov A.I. Bolalar va o‘spirinlarda nevrozlar.L : Tibbiyot.1988 yil
4	“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi 595-sonli Qonun. 16.12.2019
Qo‘shimcha adabiyotlar	
1	Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2	Sh.M. Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.
3	Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr